

**SCIENCE
PROBLEMS.UZ**

ISSN: 2181-1342 (ONLINE)

№ 1 (4) 2022

ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ
ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ
СОЦИАЛЬНО-ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES
AND SOCIAL SCIENCES



ЭЛЕКТРОН ЖУРНАЛ
ЭЛЕКТРОННЫЙ ЖУРНАЛ
ELECTRONIC JOURNAL

**ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ
АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-ГУМАНИТАРНЫХ НАУК
ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES.**

-2022. -№ 1(4). DOI: <https://doi.org/10.47390/B1342142022>

БОШ МУҲАРРИР:

Исанова Феруза Тулқиновна

ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:

ТАРИХ ФАНЛАРИ:

Юлдашев Анвар Эргашевич – тарих фанлари доктори, сиёсий фанлар номзоди, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти хузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Мавланов Укташ Махмасабирович – тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти хузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Хазраткулов Аброр – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети.

ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ:

Карлибаева Раја Ҳожабаевна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Худойқулов Садирдин Каримович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Азизов Шерзод Ўкташович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Божхона институти;

Холов Акташ Ҳатамович – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти хузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Шадиева Дилдора Ҳамидовна – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент в.б, Тошкент молия институти;

Шакаров Қулмат Аширович – иқтисодиёт фанлари номзоди, доцент, Тошкент ахборот технологиялари университети.

ФАЛСАФА ФАНЛАРИ:

Назаров Насриддин Атақулович – фалсафа фанлари доктори, сиёсий фанлар доктори, профессор, Тошкент архитектура курилиш институти;

Ҳакимов Назар Ҳакимович – фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Яхшиликов Жўрабой – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Ғайбуллаев Отабек Мухаммадиевич – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Хошимхонов Мўмин – фалсафа фанлари доктори, доцент, Жиззах педагогика институти;

Носирходжаева Гулнора Абдукаххаровна – фалсафа фанлари номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети.

ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Ахмедов Ойбек Сапорбаевич – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Кўчимов Шуҳрат Норқизилович – филология фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Салаҳутдинова Мушарраф Исамутдиновна – филология фанлари номзоди, доцент, Самарқанд давлат университети;

Кучкаров Рахман Урманович – филология фанлари номзоди, доцент в/б, Тошкент давлат юридик университети;

Юнусов Мансур Абдуллаевич – филология фанлари номзоди, Ўзбекистон Республикаси Президенти хузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Сайдов Улугбек Арипович – филология фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти хузуридаги Давлат бошқаруви академияси.

ЮРИДИК ФАНЛАР:

Ахмедшаева Мавлюда Ахатовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Эсанова Замира Нормуротовна – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган юрист, Тошкент давлат юридик университети;

Зулфиқоров Шерзод Хуррамович – юридик фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Миллий гвардияси Ҳарбий-техник институти;

Хайитов Хушвақт Сапарбаевич – юридик фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти хузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Асадов Шавкат Файбуллаевич – юридик фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти хузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Сайдуллаев Шахзод Алиханович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети.

ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ:

Хашимова Диљдархон Уринбоевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ибрагимова Гулнора Ҳавазматовна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Закирова Феруза Махмудовна – педагогика фанлари доктори, Тошкент ахборот технологиялари университети ҳузуридаги педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази;

Тайланова Шохида Зайневна – педагогика фанлари доктори, доцент.

ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Хайитов Ойбек Эшбоевич – психология фанлари номзоди, доцент, Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни илмий-методик таъминлаш, қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш маркази;

Кодиров Обид Сафарович – психология фанлари доктори (PhD), Самарканд вилоят ИИБ Тиббиёт бўлими психологик хизмат бошлиги.

СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Сеитов Азамат Пўлатович – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети.

“Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари” электрон журнали 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамияти.

Crossref DOI префекси: 10.47390. Ҳар бир журнал сони ва ундаги мақолаларга индивидуал DOI рақами берилади.

Таҳририят манзили:

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-үй.
Электрон манзил:

scienceproblems.uz@gmail.com

Боғланиш учун телефонлар:

(99) 602-09-84 (telegram); (94) 423-12-98

МУНДАРИЖА

ТАРИХ ФАНЛАРИ

Murodov Halim Salimovich

- MUSTAQILLIKNING DASTLABKI YILLARIDA O‘ZBEKISTONDA
XALQARO TURIZMNING RIVOJLANISHI VA UNING ME’YORIY-HUQUQIY
ASOSLARI 6-18

ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ

Aktamov Bobirjon Mardon o ‘g’li

- BAHOLASH FAOLIYATINI DAVLAT TOMONIDAN
TARTIBGA SOLISHNING MILLIY VA XORIJ AMALIYOTLARI
XUSUSIYATLARI 19-28

Shaislamova Nargiza Kabilovna

- TADBIRKORLIK FAOLIYATINI RIVOJLANТИRISHDA LOYIHA RISKLARINI
SAMARALI BOSHQARISH 29-38

Асамходжасаева Шоира Шукуруллаевна

- ИНСОН КАПИТАЛИНИ РИВОЖЛАНТИРИШДА ИСЛОМ СУФУРТА
ТИЗИМИНИ АМАЛГА ОШИРИШ ЙЎНАЛИШЛАРИ 39-45

ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ

Aхматова Интизора Хасан қизи

- ЖОНДОР ТУМАНИ ТОПОНИМЛАРИ СЕМАНТИКАСИ 46-51

Ташметова Азиза Сагдуллаевна

- ХОҲИШ – ИСТАК КАТЕГОРИЯСИНинг ГРАММАТИК ВА ЛЕКСИК
ВОСИТАЛАР ЁРДАМИДА ИФОДАЛАНИШИ 52-57

ПЕДАГОГИКА ВА ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ

Xalilov Xurshidbek Baxtiyorovich

- FANLARARO BOG‘LIKlar ASOSIDA GEOGRAFIYA FANIDAN
O‘QUVCHILARDА KOMPETENSIYALARNI SHAKLLANTIRISH
METODIKASI (5-SINF “TABIIY GEOGRAFIYA BOSHLANG‘ICH KURSI” 26-§
AMALIY MASHG‘ULOT MISOLIDA) 58-64

Жумабоев Наби Пардабоевич

- ШАРҚ МИНИАТЮРА САНЪАТИНИНГ ЭСТЕТИК ТАРБИЯДАГИ
ЎРНИ 65-71

Nabiyeva Odina Rafikjonovna

REPRODUKTIV YOSHDAGI AYOLLARDA RO'Y BERADIGAN TUG'RUQ
PSIXOZLARINI OLDINI OLISH VA AYOLLARNI RUHIY SALOMATLIGINI
MUSTAHKAMLASH 72-79

САНЪАТШУНОСЛИК ФАНЛАРИ

Сафаров Зарифжон Кўйлиевич, Файзуллаева Хуриида Кўйлиевна
“КАТТА АШУЛА” ЖАНРИНИНГ ЎЗБЕК ҚЎШИҚЧИЛИК САНЪАТИ
РИВОЖИДАГИ ЎРНИ ВА АҲАМИЯТИ 80-85

СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ

Маврулова Нилуфар Абдухалиловна
ГОСУДАРСТВЕННАЯ ПОЛИТИКА В ОБЛАСТИ СОЦИАЛЬНОГО
БЛАГОПОЛУЧИЯ 86-93

Тарих фанлари

**MUSTAQILLIKNING DASTLABKI YILLARIDA O'ZBEKISTONDA
XALQARO TURIZMNING RIVOJLANISHI VA UNING ME'YORIY-
HUQUQIY ASOSLARI**

Murodov Halim Salimovich

Buxoro davlat universiteti “Buxoro tarixi” kafedrasи tayanch doktoranti

**РАЗВИТИЕ МЕЖДУНАРОДНОГО ТУРИЗМА В УЗБЕКИСТАНЕ В
ПЕРВЫЕ ГОДЫ НЕЗАВИСИМОСТИ И ЕГО НОРМАТИВНО-
ПРАВОВАЯ БАЗА**

Муродов Халим Салимович

Бухарский государственный университет, базовый докторант кафедры «История Бухары»

**THE DEVELOPMENT OF INTERNATIONAL TOURISM IN UZBEKISTAN
IN THE FIRST YEARS OF INDEPENDENCE AND ITS REGULATORY
FRAMEWORK**

Murodov Halim

Bukhara State University, Basic doctoral student of the Department "History of Bukhara"

Иқтибос келтириши учун / For citation / Для цитирования:

Murodov H.S. Mustaqillikning dastlabki yillarida O'zbekistonda xalqaro turizmning rivojlanishi va uning me'yoriy-huquqiy asoslari // Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари. – 2022. – № 1 (4). – B. 6–18. <https://doi.org/10.47390/B1342142022N1>

Annotatsiya. Maqolada O'zbekistonning mustaqil davlat sifatida xalqaro turizmni rivojlantirish maqsadida jahon standartlariga javob beradigan turizm industriyasi va infratuzilmasini barpo etishi, tizimda yangi tartib – qoidalar ishlab chiqishi hamda “O'zbekturizm” milliy kompaniyasini tashkil etilishi, xorijiy fuqarolarning respublikaga kirish, chiqish, bo'lish qoidalari ishlab chiqilishi, sohada xususiy lashtirishning amalga oshirilishi, xorijiy investorlarning jalb etilishi va ularga berilgan imtiyozlar, Buyuk Ipak yo'lini qayta tiklashda O'zbekistonning

ishtiroki kabi masalalar atroflicha o'rganilgan. Jumladan respublikada xalqaro turizmni rivojlantirish borasidagi "Meros" dasturi amalga oshirilishi, "Turizm to'g'risida"gi qonun va unda xalqaro turizmning davlat e'tiboridagi asosiy yo'nalish ekanligi borasidagi jihatlar atroflicha tahlil etiladi. Ilmiy kuzatishlar natijasida soha rivoji bilan bog'liq xulosa va takliflar berilgan.

Kalit so'zlar: "O'zbekturizm", Buyuk Ipak yo'li, xalqaro turizm, Buxoro, imtiyoz, vakolatxona, viza, "Inpro", konvertatsiya.

Аннотация. В целях развития международного туризма Узбекистан как независимое государство должен построить индустрию туризма и инфраструктуру мирового уровня, разработать новые правила и положения в системе и создать национальную компанию «Узбектуризм». подробно изучено участие, осуществление приватизации в отрасли, привлечение и льготы иностранных инвесторов, участие Узбекистана в реконструкции Великого Шелкового пути. В частности, подробный анализ реализации программы «Наследие» по развитию международного туризма в стране, Закона «О туризме» и то, что международный туризм является ключевым направлением государственного внимания. В результате научных наблюдений даны выводы и рекомендации, связанные с развитием отрасли.

Ключевые слова: «Узбектуризм», Великий шелковый путь, международный туризм, Бухара, привилегия, представительство, виза, «Инпро», конверсия.

Abstract. In order to develop international tourism, Uzbekistan, as an independent state, must build a world-class tourism industry and infrastructure, develop new rules and regulations in the system, and create a national company "Uzbektourism" participation, implementation of privatization in the industry, attraction and benefits of foreign investors, participation of Uzbekistan in the reconstruction of the Great Silk Road are studied in detail. In particular, a detailed analysis of the implementation of the "Heritage" program for the development of international tourism in the country, the Law "On Tourism" and the fact that international tourism is a key area of state attention. As a result of scientific observations, conclusions and recommendations related to the development of the industry are given.

Key words: "Uzbektourism", the Great Silk Road, international tourism, Bukhara, privilege, representation, visa, "Inpro", conversion.

DOI: 10.47390/B1342142022N1

O'zbekistonni rivojlangan xalqaro turizm industriyasiga tezroq integratsiyalashuvini amalga oshirish, milliy turizm mahsulotlariga jahon sayyohlik tashkilotlari e'tiborini qaratish, turizmning barcha turlarini rivojlantirishning imkoniyatlaridan samarali foydalanish hamda ijtimoiy-iqtisodiy hayotdagi muammolarni hal etishdagi ahamiyatini kuchaytirish, turizmni davlatga valyuta olib keladigan iqtisodiyotning strategik sohasiga aylantirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi birinchi prezidenti I.Karimov tomonidan 1992 yil 27 iyulda "O'zbekturizm" milliy kompaniyasini tashkil qilish to'g'risida"gi farmoni qabul qilingan[1;B.2.]. PF-447-son farmoni xalqaro standartlarga mos milliy sayyohlik

tizimini yaratish, turizm industriyasi infratuzilmasini rivojlantirish, jahon turizm bozoriga chiqish, sohani boshqarishni takomillashtirish hamda iqtisodiy samaradorligini oshirish kabi vazifalarni belgilab berdi [2]. 1993 – 1994 yillardagi qabul qilingan “O‘zbekturizm” MK Ustavida [3], Vazirlar Mahkamasining 459-son qarorida [4] hamda 1993 yil 3 iyundagi “O‘zbekiston Respublikasida xalqaro turizmning zamonaviy infrastrukturasini yaratish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Vazirlar Mahkamasi qarori iqtisodiyotning yuqori samarador va xarajatlarni qoplaydigan sohasi bo‘lgan turizmning rivojlanishi uchun huquqiy, tashkiliy, iqtisodiy va moddiy-texnik chora-tadbirlarni amalga oshirishga yo‘l ochdi [5; B.158.]. Xalqaro turizm bozorida milliy turizm salohiyatini keng targ‘ib qilish va turizm sohasining yetakchi markazlari bo‘lgan Buxoro, Samarqand, Xiva, Toshkent kabi hududlarga chet el mashhur turistik brend kompaniyalar hamda chet el investorlarini jalb etish maqsadida 1994-yil 9-sentabrda Vazirlar Mahkamasining 459-son qarori qabul qilinib, unga ko‘ra Juhon sayyohlik tashkiloti (JST) va “O‘zbekturizm” Milliy kompaniyasining 1994-yil 3-6-oktabr kunlari Toshkent va Samarqand shaharlarida JSTning “Ipak yo‘li” xalqaro majlisini o‘tkazish to‘g‘risidagi taklifi qabul qilindi [6].

JST (Juhon sayyohlik tashkiloti) seminarlarida O‘zbekistonning xalqaro turizm biznesi sohasidagi manfaatlarini ifodalovchi “O‘zbekturizm” MK 1994 yil Toshkentda BMT va YUNESKO shafeligida “Ipak yo‘li” Juhon sayyohlik tashkilotining xalqaro seminarini tashkil etdi. Registon maydonida bo‘lib o‘tgan yig‘ilishda “Ipak yo‘li” xalqaro loyihasini rivojlantirishda ishtirot etuvchi davlatlar “Ipak yo‘lida turizm: Samarqand Deklaratsiyasi”sini qabul qildi. 1995-yil oktabr oyida Toshkentda JST seminarining mantiqiy davomi sifatida “Ipak yo‘li bo‘ylab turizm” Birinchi xalqaro sayyohlik yarmarkasi bo‘lib o‘tdi. Unda 33 davlatdan 100 dan ortiq firmalar, Ipak yo‘lida joylashgan davlatlarning milliy turizm tashkilot larining rasmiy delegatsiyalari ishtirot etdi [7;B.2.].

Sayyohlik industriyasining zamonaviy rivojlangan xalqaro turizm bilan globallashuvini tezlashtirish uchun jadal islohotlar davri ya’ni xususiylashtirish boshlandi. 1994 yilda ishlab chiqilgan “Turistlik korxonalarni xususiylashtirish va davlat tasarrufidan chiqarish dasturi” chuqur tizimli - institutsional o‘zgarishlarni amalga oshirishda juda katta ahamiyat kasb etdi. 1994—1995 yillar mobaynida «O‘zbekturizm» Milliy kompaniyasining 87,8% turistlik obyektlari davlat tasarrufidan chiqarilib, xususiylashtirildi. Natijada turizm sohasida olinayottan daromadlarning keskin o’sishiga erishildi: 1993 yilda 11,3 million so‘m miqdorida daromad olinib, bundan 2,1 million so‘m foyda ko‘rilgan bo‘lsa, 1994 yilda 221,3 million so‘m daromad olingan va bundan 110,6 million so‘m foyda olingan. Kiritilgan o‘zgarishlar turizmni qabul qilish shaklini jadallik bilan rivojlantirdi. 1993 yildan 1995 yilgacha chet ellik

turistlarni qabul qilish 43 mingdan 92 minggacha ko'paydi. Turizmdan tushgan chet el valyutasi miqdori 34,4 mln. AQSH dollaridan 101,2 mln. AQSH dollarigacha ko'paydi. 1995 yilda jami tushgan daromadning turizm sohasidagi ulushi mamlakat yalpi ichki mahsulotida 9% ni tashkil etdi, valyuta tushumi 67%ni tashkil etgan [8; B.6]. Ushbu jarayonda O'zbekiston hukumati qayta tiklanayotgan xalqaro turizm yo'nalishi – Buyuk Ipak yo'li ahamiyatini, ayniqsa uning milliy turizm sohasini rivojlantirish dagi muhim rolini anglab, 1995-yil 2-iyunda "Buyuk Ipak yo'lini qayta tiklashda O'zbekiston respublikasining ishtirokini avj oldirish va respublikada xalqaro turizmni rivojlantirish borasidagi chora-tadbirlar to'g'risida" PF-1162-son farmoni qabul qilindi[9]. Unga ko'ra sohaning quyidagicha strategik vazifalari belgilandi:

Birinchidan, Buyuk Ipak yo'lidagi Samarqand Buxoro, Xiva va Toshkentda xalqaro turizm bo'yicha maxsus ochiq iqtisodiy zonalar barpo etish hamda ushbu shaharlardagi aeroportlar va temir yo'l vokzallarida xorijiy sayyoohlar uchun bojxona tartiblarining xalqaro standartlarga mos soddalashtirilgan tartibi;

Ikkinchidan, Samarqand, Buxoro, Xiva va Toshkentda yangi tashkil etiladigan sayyoqlik tashkilotlari dastlabki foydani olgunga qadar uch yil mobaynida barcha turdag'i soliqlardan ozod qilinishi, shuningdek, mazkur tashkilotlar va firmalar foyda (daromad) olgan birinchi yili foyda (daromad) solig'inining 50 foizini, ikkinchi yili — 75 foizini, uchinchi yildan boshlab — 100 foizini to'lashi;

Uchinchidan, chet ellik investorlargaa turizm yo'nalishida qo'shma korxonalar tashkil etgan uchun avvalgi imtiyozlarga qo'shimcha ravishda, olib chiqib ketiladigan foydadan 5 yil muddatgacha soliq undirilmasligi;

To'rtinchidan, ikki oy muddatda xorijiy sayyoohlar uchun qonun bilan taqiqlangan obyektlardan tashqari respublikaning butun hududida amal qiluvchi yagona turistik vizani o'rnatish, turizm industriyasini va infrastrukturasni rivojlantirishga hissa qo'shadigan tadbirkorlarga besh yillik kreditlar berish, "O'zsayohatinvestbank"ni tashkil etish;

Beshinchidan, turizmda islohotlarni chuqurlashtirish, jahon standartlari miqyosidagi kichik va o'rta mehmonxonalar, motellar va kempinglar tarmog'i shakllantirilishini, tarixiy-madaniy meros keng ko'lamda targ'ib qilish, ilmiy-texnikaviy va investitsiya siyosatini hamda turizmda uzviy kadrlar siyosatini amalgalashirish uchun Vazirlar Mahkamasi huzurida turizm bo'yicha Idoralararo kengash tuzish;

Oltinchidan, qadimiy shaharlardagi yodgorliklarni asrash va foydalanish bo'yicha "Meros" dasturini ishlab chiqish hamda xalqaro turizmni rivojlantirish bo'yicha muammolarni joyida bartaraf etilishi uchun shaxsiy javobgarlik "O'zbekturizm", "O'zbekiston havo yo'llari", "O'zbekiston temir yo'llari" kompaniyalarining, Ichki ishlar vazirligining, Tashqi ishlar vazirligining, chegara va

bojxona xizmatlarining rahbarlari zimmasiga yuklatilishi kabi milliy turizm industriyasi va infratuzilmasi rivoji uchun xizmat qiladigan vazifalar shular jumlasidandir.

Ushbu PF-1162-son farmoni ijrosini ta'minlash va bu soha infratuzilmasini yanada zamonaviylashtirish maqsadida 1995-yil 3-iyunda Vazirlar Mahkamasining 210-son qarori qabul qilinib, unga binoan turizmni rivojlantirish bo'yicha idoralararo Kengash va xalqaro turizm bo'yicha maxsus ochiq iqtisodiy zonalar to'g'risidagi Nizomlarni tasdiqlash, "O'zbekiston havo yo'llari", "O'zbekiston temir yo'llari", Davlat soliq qo'mitasi "O'zbekturizm" milliy kompaniyasi va boshqa tegishli tashkilotlar birgalikda sayyoohlarni avia va temir yo'l transporti orqali tashishda imtiyozlar va chegirmalar berish kabi kirish turizmini rivojlanishiga ijobjiy ta'sir qiladigan choralar belgilandi.

Shuningdek, Buxoro, Samarqand, Urganch va Toshkent shaharlaridagi aeroport va temir yo'l vokzallarida turistlar uchun zamonaviy maxsus bojxona zonalari tashkil etish, "O'z avtoyo'l", "O'zavtotrans", "O'zbekturizm", "O'zbeksavdo", "O'zbekbirlashuv", Aloqa vazirligi, Sog'liqni saqlash vazirligi, "O'zdavneftmahsulot", viloyatlar va Toshkent shahar hokimlik lari sayyoohlarga xizmat ko'rsatish uchun Toshkent – Samarqand – Buxoro – Urganch – Xiva avtomagistrалini obodonlashtirish hamda yo'lbo'yi infratuzilmasi rivojlantirish maqsadida yangi servis xizmatlarini tashkil etish bo'yicha 1995 – 1998-yillarni o'z ichiga olgan kompleks dasturni ishlab chiqish kabi turizmnning tashkiliy jihatlariga e'tibor qaratildi.

Bundan tashqari, joylashtirish vositalari va boshqa turistik obyektlar qurilishi bo'yicha xalqaro tenderlar o'tkazish, turistlarga yuqori malakali tibbiy yordam ko'rsatish, turistlarni tibbiy sug'urta qilish bo'yicha takliflar berish, bevosita aviaqatnovlar o'rnatilgan davlatlar va shaharlarda "O'zbekturizm"ning turistik vakolatxonalarini ochish, sayyoohlardan gavjum boradigan manzillarda amaliy va tasviriy san'at, xalq ijodkorligi buyumlarini markazlari va do'konlarini tashkil etish, malakali kadrlar tayyorlash uchun "Xalqaro turizm" o'quv-ishlab chiqarish markazi, "Ipak yo'li" xalqaro turistik-reklama-axborot nashri chop ettirish kabi vazifalar belgilanishi xususiyash tirish jarayoni jadal ketayotgan milliy turizm sohasining rivoji uchun ayni zarurat edi. PF-1162-son va VM-210-son qarori hayotga tadbiq etilishi bilan dastlab 1995 yil 1 iyuldan O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi davlat hududida kuchga ega bo'lgan yagona turistik viza tartibini o'rnatdi [10; B.74].

Mamlakatda madaniy merosni saqlab qolish, muqaddas qadamjolarni tiklash, nomi unutilayotgan ajdodlarimiz xotirasi hamda merosini abadiylashtirish, obodonlashtirish uchun keng ko'lamda amalga oshirish ishlari boshlandi. Vazirlar Mahkamasining 210-sonli qarorida axborot sohasidagi ishlar alohida qayd etilgan – Kompaniya maxsus xalqaro turistik nashrni chiqarishda ishtirok etishi vazifasi amalga

oshirilib, to‘liq-rangli “Ipak yo‘li” gazetasi chop etila boshlandi. Shuningdek, xalqaro turizm infratuzilmasini rivojlantirish va “Buyuk ipak yo‘li” turistik yo‘nalishini rivojlantirish to‘g‘risidagi Hukumat qaroriga muvofiq, kompaniya London va Berlin shahrida bo‘lib o‘tadigan yirik xalqaro turizm almashinuv yarmarkalarida ishtirok etish orqali milliy turistik mahsulotlar va loyihalarni xalqaro miqyosda targ‘ib qilish faoliyatini olib bordi [11; B.2.]. 1995-2000 yillarda Buyuk Ipak yo‘lida joylashgan qadimiy shaharlarda madaniy merosni asrash, tadqiq va tashviq etish, ularning to‘liq ro‘yxatini tuzish, ilmiy ta‘mirlash va usta-kadrlar masalasi, madaniy meros yodgorliklaridan turizmni rivojlantirish uchun yanada samarali foydalanish, zamonaviy turizm infratuzilmasini barpo etish kabi tadbirlarni o‘z ichiga olgan “Meros” dasturi 1995 yil avgustda ishlab chiqilib, hayotga tadbiq etilishi turizmni rivojlantirish yo‘lidagi choralardan biri bo‘ldi [12; B.6-13]. Yevropa Ittifoqi xalqlari orasida qadimdan taniqli – “Buxoro”, “Samarkanda”, “Temurlano”, “Via della Seta” (“Ipak yo‘li”) kabi mashhur brendlarning ta‘siri kuchli bo‘lganligi boisdan, ularning O‘zbekistonga qiziqishlari yuqori darajada edi [13; B.152]. Shuningdek, O‘zbekistonda katta xalqaro va turistik forumlar, konferensiyalar, shaharlar yubileyлari, xalqaro sport musobaqalarini yoki MICE-turizm kabilarni ko‘proq va doimiy tashkil etilganda turizmning kengayishiga va rivojlanishiga sezilarli darajada ta‘sir qilgan bo‘lar edi. Masalan, 1997-yilda Buxoro va Xiva shaharlarining 2500 yillik yubileyлari YUNESKO homiyligida keng targ‘ibot asosida o‘tkazildi. Bu tadbir natijasida O‘zbekiston turizmi katta yutuqqa ya‘ni 1997-yilda turistlar soni – qariyib 1 millionga yetib, ko‘rsatilgan sayyoхlik xizmatlarining hajmi – eksport daromadi esa deyarli 200 million dollarni tashkil etgan. Taqqoslansa, 1996- yilda turistlar tashrifi 173 ming kishini, undan kelgan daromad esa – 15 million dollar bo‘lib, bu esa soha rivojlanishida va sayyoхlar sonini ko‘paytirishda turli xil xalqaro tadbirlar va tashviqotning kuchi qanchalik darajada ahamiyatli ekanligini yaqqol ko‘rsatdi [14].

Sayyoхlik va u bilan bog‘liq tarmoqlardagi amalga oshirilayotgan xususiylashtirish jarayonidagi o‘zgarishlar natijasida turistik turlari va tashkilotlarining ko‘payishiga, kirish hamda chiqish turizmining o‘sishiga, xalqaro sayyoхlik aloqalarining kengayishiga pirovard natijada xalqaro va ichki sayyoхlar sonining o‘sishiga ta‘sir qildi. Davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish davlat dasturiga muvofiq, chiqarildi va xususiylashtirildi. Ulardan o‘ttizta mehmonxona va mehmonxona Kompaniya tizimiga kiruvchi 115 ta turistik obyektning 95 foizdan ortig‘i davlat tasarrufidan majmuasi, 11 turistik markaz va kempinglar, 10 ta avtotransport obyekti, qurilish va savdo korxonalari, 6 ta mehmonxona besh-to‘rt-uch yulduzli mehmonxonalar talablariga javob beradi. Jumladan 1997 yilda respublikada xalqaro turizm bilan shug‘ullanish uchun litsenziya olgan turli mulkchilik shaklidagi 340 dan ortiq turistik korxona mavjud bo‘lib, shundan 140 tasi Toshkent shahriga

to‘g‘ri keladi [15; B.1]. Bu davrda kompaniyalar katta qismi turistlarni qabul qilishdan ko‘ra xorijga jo‘natishga ixtisoslashgan bo‘lib, ayniqsa sayyohlik turlaridan shopping-turlar, sayyohlarni dengiz bo‘yida dam olishga jo‘natish, diniy (ziyorat) turizmi, xorijda o‘qish va davolanish kabi xizmat turlari ustunlik qiladi. Elita (madaniy) turizm faol rivojlanmoqda – bu boshqa xalqlar madaniyati va an’analarini o‘rganish uchun sayohat qilish demakdir. „O‘zbekiston havo yo‘llari“ kompaniyasining reyslari bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri aloqada bo‘lgan mamlakatlar – Turkiya, Hindiston, Pokiston, Bahrayn, Bangkok, BAA, Malayziya, Germaniya, Angliya, Gretsiya, Isroil, AQSh kabilarning markaziy shaharlarida vakolatxonalar ochish orqali xorijiy turoperatorlar bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri aloqalarni yo‘lga qo‘yishga muvaffaq bo‘ldi [16; B.1].

O‘zbekistonning asosiy turistik maskanlari bo‘lgan Buxoro va Xiva shaharlaridagi yodgorliklar muhofazasini kuchaytirish, viloyatlarning turistik salohiyatini jahonga namoyish etish, turizm industriyasini va infratuzilmasini zamon talablari darajasiga ko‘tarish hamda Buxoro va Xiva shahrining 2500 yilligi munosabati bilan 1996 yil 3 yanvarda 1996-1997 yillarda Buxoroda tashqi va ichki turizmni rivojlantirish dasturi ishlab chiqildi [17; B.33-37]. Dasturga ko‘ra, bir qator davlatlar sayyohlari uchun vizasiz kirishni (Malayziya, Indoneziya tajribasi misolida) joriy etish hamda viza rasmiylashtirish vaqtini qisqartirib, viza to‘lovi summasini kamaytirish kabilar chora tadbirlar belgilandi. Mazkur imtiyoz va yengilliklar ushbu tadbirlar doirasi bilan cheklandi. Agar bu choralar keyinchalik ham doimiy amaliyatga joriy etilganda turizmda xorijiy sayyohlarni yanda ko‘proq jalb etishga omil bo‘lardi. Davlat organlari faoliyat samaradorligini oshirish orqali madaniyat, fan va turizm sohasidagi xalqaro aloqalarni kuchaytirishga qaratilgan Vazirlar Mahkamasining 1996-yil 25-sentabrdagi 335-son qarori qabul qilinib, unga ko‘ra, Tashqi ishlar vazirligi tarkibida Madaniyat, fan va turizm sohasida xalqaro hamkorlik boshqarmasi tuzilishi, uning faoliyati respublika vazirlilik, tashkilotlarning chet davlatlar hamda xalqaro tashkilotlar bilan madaniyat, fan va turizm sohasidagi xalqaro aloqalarini rivojlantirish va muvofiqlashtirish ekanligi belgilandi [18]. “O‘zbeketurizm” MK oldiga xalqaro turizmni rivojlantirish uchun jahon standartlariga javob beradigan mehmonxonalarini ko‘paytirish va ularagini servis xizmatini yuqori darajaga ko‘tarish, respublikaga turistlar oqimini ko‘paytirish va xorijiy investorlarni jalb etish kabi asosiy vazifalar qo‘yildi. Targ‘ibot-tashviqot ishlari yo‘lga qo‘yildi. O‘zbekistonning sayyohlik salohiyatiga bag‘ishlangan ekspozitsiyalar tashkil etildi (O‘zbekiston Respublikasi Savdo va ko‘rgazmalar agentligida, Shveytsariyaning Altendorf shahrida). Yevropa sayyohlik operatorlari uchun muntazam seminarlar o‘tkazish yo‘lga qo‘yilgan. O‘zbekistonning sayyohlik salohiyati haqidagi ma’lumotlar dunyoning eng yirik kataloglariga kiritilgan. “O‘zbeketurizm” MK uchun turizm xizmatlari bozorini

diversifikatsiya qilish, an'anaviy xalq bayramlari, turli tarixiy-madaniy tadbirlar, xalqaro kongresslar (ish turizmi), turli sport turlari bo'yicha musobaqalar, ekoturizmni turistik mahsulot sifatida taqdim etish kabilar kun tartibidagi dolzARB vazifalar edi. 1997 yilda "O'zbekturizm" sayyohlik borasida 100 ga yaqin yo'nalishlarni taklif etgan. Tog' turizmi, ovchilik va baliq ovlashni sevuvchilar uchun "O'zmaxsustur" o'z yo'nalishlarini ishlab chiqdi. Sport turlarini 8 ta kompaniya (AST, Yordamchi, Erta, AL-Geo, Pandsher, Asia-Raft, Toshkent turistik va sport klubi, Mountain Club) taklif etadi. "O'zbekturizm" MKning yo'nalish siyosati 1997-1998 yillarda, asosan, quyidagi asosiy yo'nalishlarda yanada rivojlantirish uchun : «Buyuk ipak yo'li» bo'ylab sayyohlik marshrutlari; Amir Temur tavalludining 660 yilligiga bag'ishlangan, temuriylar davri haqida hikoya qiluvchi marshrutlar; O'zbekistonda yashovchi xalqlarning etnografiyasi, madaniyati va urf-odatlari haqida hikoya qiluvchi marshrutlar ishlab chiqildi. Mehmonxona xizmati borasida Kompaniya tomonidan sohaga xorijiy investitsiyalarni jalb qilish, xizmat ko'rsatishni yaxshilash bo'yicha muvaffaqiyatli ishlar olib borildi. O'zbekiston turizm bozorida "Meridian", "Intercontinental", "Holiday Inn" kabi xalqaro kompaniya va firmalar mustahkam o'rin egallamoqda. Muvaffaqiyatli amalga oshirilgan qator loyihalarni bu: "Hotel Uzbekistan" O'zbekiston-Malayziya qo'shma korxonasini tashkil etish, "La-Meridian-Tashkent" mehmonxona majmuasini to'liq mulkka sotish hamda Germaniyaning "Inpro" kompaniyasi tomonidan rekonstruksiya nihoyasiga yetkazilgan "Shodlik Palace" mehmonxonasi foydalanishga topshirildi. "Shodlik Palace"— mehmonxona boshqaruvi Germaniyaning Fon Kuzten Hotel and Consulting kompaniyasiga topshirildi, bu esa SRS-bronlash xizmati "Steingenberger" yordamida O'zbekistonga xorijlik sayyohlarni jalb qilishda omil bo'lmoqda. 1996 1997 yillarda Hindiston kompaniyasi tomonidan Samarqand va Buxoroda xalqaro toifadagi mehmonxonalar foydalanishga topshirildi. Xitoylik hamkorlar bilan birgalikda "Ziyorat" mehmonxonasi (Farg'ona) rekonstruksiya qilindi. "Larsen & Turbo" firmasi Xiva shahridagi mehmonxonani ta'mirlamoqda. Bu mehmonxonalar yaqin kelajakda sezilarli yuklanishi o'ziga olib, joylashtirish borasidagi o'rin joy yetishmasligi muammosini hal etishda ijobiy ta'sirini ko'rsatdi [19; B. 3-4]. Vazirlar Mahkamasi 1998-yil 8-avgustda 346-sون "Sayyoh lik tashkilotlari faoliyatini tashkil etishni takomillashtirish to'g'risida"gi qarorni qabul qilib, "O'zbekturizm" milliy kompaniyasiga a'zo sifatida yangi tuzilma Xususiy sayyohlik tashkilotlari uyushmasini(XSTU) tashkil etilishi, uni boshqarish (qarorning 3, 4 ilovalari) va mazkur tashkilot Buyuk ipak yo'lini tiklashda, zamonaviy sayyohlik infratuzilmasini rivojlantirishda, a'zo bo'lgan xususiy sayyohlik tashkilotlariga axborot, maslahat va uslubiy yordam ko'rsatish maqsad va vazifalarni bajarishini hisobga uning tuzilishi tasdiqlandi [20]. "O'zbekturizm" boshqaruvi ijro apparatida rais, rais yordamchisi,

birinchi o`rinbosar, 3 ta o`rinbosar shu jumladan xususiy sayyohlik tashkiloti uyushmasi raisi hamda 13 ta boshqarma va bo`limlar faoliyat yuritishi belgilangan. Mazkur qarorga ko`ra “O`zbekturizm” boshqaruvi ijro apparati tuzilmasi, 1999 yil 1 yanvargacha “Turizm to`g`risida”gi qonun loyihasini hamda sayyohlik xizmatlari sohasida yagona davlat standartlarini ishlab chiqish, 1999 yildan 2005-yilgacha bo`lgan davrda turizmni rivojlantirish Dasturini tuzish, turizmda xususiy lashtirishni chuqurlashtirish, kichik sayyohlik tashkilotlarini chet elliq sarmoyadorlarga sotish va mehmonxona boshqaruviga xorijiy firmalarni jalb etish borasida aniq takliflar kiritishni o`z ichiga olgan qarorlar qabul qilindi. Yuqoridagi farmon ijrosini ta`minlash maqsadida 1999 yil 15 aprelda “2005 yilgacha bo`lgan davrda O`zbekistonda turizmni rivojlantirish davlat dasturi to`g`risida” farmon qabul qilinib, quyidagilar belgilandi[21]:

Birinchidan, mazkur dastur va uni amalga oshirish bo`yicha Muvofiqlashtiruvchi kengash tuzildi.

Ikkinchidan, sayyohlik tashkilotlari uchun qo`srimcha bojxona imtiyozlari berilib, unga ko`ra xorijdan import qilinadigan texnologiya va mehmonxona uskunalari, turistik xizmatlarga mo`ljallangan transport vositalari uchun bojxona poshlinalari to`lashdan 3 yil muddatga ozod qilinishi hamda turistlarga erkin ayriboshlanadigan valyuta hisobidan xizmatlar ko`rsatishni tashkil etish tartibini va buning uchun maxsus cassalar tashkil etish,

Uchinchidan, O`zbekiston Respublikasining AQSh, Yaponiya, Buyuk Britaniya, Germaniya, Fransiya va Italiyadagi elchixonalarida madaniyat va turizm masalalari bo`yicha maslahatchi lavozim tashkil etilishi hamda turizm bo`yicha kuchli oliy o`quv yurtlarida malakali kadrlar tayyorlashni kuchaytirish borasida “Umid” jamg`armasi faoliyatini kengaytirish kabi yangi tartiblar va o`zgarishlar belgilandi. Ushbu chora tadbirlar yangi asr bo`sag`asida O`zbekistonda xalqaro turizmni yangi bosqichga ko`tarish uchun ijobiy qadam bo`ldi. Yuqoridagi PF-2286-sun farmon asosida xorijiy sayyohlar uchun yanada ko`proq qulayliklar yaratish borasida davlat tomonidan e`tibor kuchayib, soha taraqqiyoti xizmat qiladigan yangi huquqiy normalar yaratilishiga asos bo`ldi. Jumladan “Xorijiy sayyohlarga erkin almashtiriladigan valyutada xizmat ko`rsatish tartibi” 1999-yil 13-mayda 727-sun bilan davlat ro`yxatidan o`tkazilgan [22]. Unga ko`ra:

Birinchidan, “O`zbekturizm” MK korxonalar tomonidan mamlakat hududida sayyohlik va qo`srimcha xizmatlar ko`rsatish uchun xorijiy turistlardan erkin konvertatsiya qilinadigan naqd valyutani qabul qilish uchun korxonalar ro`yxati VM-346-sun qarori bilan belgilangan.

Ikkinchidan, sayyohlik korxonalar tomonidan naqd erkin konvertatsiya qilinadigan valyuta bo`yicha turistlarga ko`rsatiladigan xizmatlar bo`lib quyidagilar

hisoblanadi: sayyoohlarga ko'rsatiladigan mehmonxona va undagi barcha qo'shimcha xizmatlar bilan birga transport xizmati va ekskursiya xizmatlari.

Uchinchidan, turistik xizmatlar ko'rsatish litsenziyasiga ega bo'lgan sayyoohlik kompaniyalari "O'zbekturizm" MK korxonalarini tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar haqini plastik debet yoki kredit kartalari yoki naqd pulsiz hisob-kitoblarning boshqa shakllari orqali amalga oshirishi amaliyotlarini joriy etildi.

To'rtinchidan, sayyoohlik korxonalarini turistik va qo'shimcha xizmatlarga haq to'lash uchun xorijiy turistlardan chet el valyutasini qabul qilish, saqlash va xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlarga yetkazish uchun vakolatli banklarga topshirishi hamda xizmat ko'rsatishdan olingan valyuta tushumlarini belgilangan tartibda majburiy sotishi shartligi ko'rsatilib, bu tartiblarning to'g'ri bajarilishi uchun korxona rahbarlari shaxsiy javobgarligi belgilangan.

O'zbekistonda turizm sohasi rivojlanishini yangi pog'onaga ko'tarish, jadal o'sish tendensiyasini ko'rsatayotgan jahon turizmi industriyasi darajasidagi moddiy texnik bazani ya'ni joylashtirish vositalarining hamma turlarini ko'paytirish, yangi davrning rivojlanish talablari va xalqaro standartlarga mos normativ huquqiy hujjatlar yaratish borasidagi sayi harakatlar natijasida iqtisodiyotning muhim strategik sohasining bosh huquqiy asosi bo'lgan 22 moddadan iborat "Turizm to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni 1999-yil 20-avgustda 830-I-son bilan qabul qilindi [23]. Ushbu qonunning yangiliklaridan biri uning matnida qo'llanilgan turizm sohasi bilan bog'liq tushunchalarning ya'ni turizm, turistik faoliyat, ekskursiya faoliyati, turistik resurslar, turistik faoliyat subyektlari, turistik industriya, tur, gid (ekskursiya yetakchisi), sertifikat kabilarning ta'riflari (3, 13-moddalarda) berilganligi bo'lib, masalan 3-modda asosiy tushunchalar deb nomlanib, undagi turist tushunchasiga — O'zbekiston hududi bo'ylab yoki boshqa mamlakatga sayohat qiluvchi (doimiy istiqomat joyidan turizm maqsadida jo'nab ketgan) jismoniy shaxs ekanligi ta'riflangan. Qonunning 4-moddasida turizm sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari belgilanib, bunda doim e'tibor berilgan yo'nalishlardan turizm va turistik industriyani rivojlantirish, turizm sohasidagi normativ bazani takomillashtirish, turistlarning xavfsizligini, ularning huquqlari, qonuniy manfaatlari va mol-mulki muhofaza qilinishini ta'minlash kabilardan tashqari shu davrgacha kam e'tibor berilgan:

- a) bolalar, yoshlar, nogironlar va aholining kam ta'minlangan qatlamlari turizmi (ekskursiyalari) uchun sharoit yaratish borasida;
- b) turizm sohasining ilmiy ta'minotini tashkil etish va rivojlantirish;
- c) kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish;
- d) turistik industriyani rivojlantirish uchun investitsiyalar jalb etish;

e) fuqarolarning sayohat qilish paytidagi dam olish, erkin harakatlanish va boshqa huquqlarini ta'minlash kabi yo`nalishlarga e'tibor kuchaytirilishi belgilandi.

Mazkur qonunning 5,6,7-moddalarida ijro etuvchi hokimiyat, vakolatli davlat organining hamda mahalliy davlat hokimiyati organlarining turizm sohasidagi vakolatlari, 8-moddasida turistik faoliyatni litsenziyalash ya`ni litsenziya asosida faoliyat amalga oshirilishi, 9-moddada turistik faoliyatni moliyalash manbalari, 10-moddada turistik xizmatlarni sertifikatlashtirish va uning majburiyligi, undan bosh tortish, turistik xizmatlarni sertifikatlashtirishning natijasi salbiy bo`lishi sertifikatning amal qilishini bekor qilish turistik faoliyatni amalga oshirish uchun berilgan litsenziyaning amal qilishini to`xtatib qo`yishga yoki litsenziyadan mahrum etishga sabab bo`lishi belgilangan. Jumladan 13-modda sayyoqlik yo`llanma (vaucher) haqida bo`lib, unga ko`ra bu — turistning yoki turistlar guruhining tur tarkibiga kiruvchi turistik xizmatlarga bo`lgan huquqini belgilovchi va bunday xizmatlar ko`rsatilganligini tasdiqlovchi hujjat ekanli, 14,15-moddalarda turistlar huquqi va majburiyatlar, 16, 17- moddalarda turistik faoliyat subyektining huquqlari va majburiyatlar, 18, 19-moddalarda turistlarning xavfsizligiga davlat tomonidan kafolati berilishi va uni ta'minlash chora tadbirlari, 20-moddada sayyoohlarni sug`urta qilish va uning majburiyligi kabi normalar joriy etilish bu jahon sayyoqlik normalariga milliy turizmnинг me`yoriy huquqiy normalarini moslashtirish yo`lidagi ijobiy qadam edi [24]. “Turizm to`g`risida”gi qonuni va undan kelib chiqadigan chora tadbirlarni “O`zbekturizm” MK tomonidan amalga oshirilishi respublikada yuqori samarali va raqobatbardosh turizm majmuasini yaratish, sayyoqlik infratuzilmasini rivojlantirish, sohaga chet el sarmoyasini olib kirish, turizm mahsulotlari va xizmatlarini diversifikasiya qilish, korxonalarining o`zini-o`zi boshqarishini kengaytirish, kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlash kabi vazifalarni ro`yobga chiqarish hamda turizm sohasini milliy iqtisodiyotning yetakchi sohasiga aylantirish edi.

Xulosa qiladigan bo`lsak, turizm sohasining asosiy istemolchilari turist maqomidagi xorijiy fuqarolar uchun O`zbekistonga kirish, chiqish, bo`lish kabi qoidalar, mehmonxona va boshqa yashash joylarida turistlarning huquqlari, turizm subyektlarining majburiyatlarini belgilanishi sayyoohlarni xavfsizligi ta'minlashga omil bo`ldi. JSTning “Buyuk Ipak yo`li”ni tiklash borasidagi taklifi va O`zbekistonning bu boradagi ijobiy qadamlari, “Meros” dasturiishlab chiqilishi kabilar avvalambor xalqaro turimni rivojlantirishga qaratilgani bilan ahamiyatli edi. Bu borada rivojlangan xalqaro turizm industriyasiga tezroq integratsiyalashuvini amalga oshirish, milliy turizm mahsulotlariga jahon sayyoqlik tashkilotlari e`tiborini qaratish maqsadida Respublikada xalqaro turizmnинг zamonaviy industriyasi va infrastrukturasini barpo etish chora-tadbirlari ya`ni mehmonxonalarini rekonstruksiya qilish, qurilayotgan mehmonxonalarini tezroq qurib foydalanishga topshirish choralari olib borildi. Chet el

va mahalliy sarmoyadorlar uchun imtiyozlar berildi. O'zbekistonda turizmni rivojlantirish davlat dasturi hamda "Turizm to'g'risida"gi qonuni qabul qilinishi bilan turistik faoliyat subyektining huquqlari va majburiyatları, turistlarning sog'ligi, xavfsizligiga davlat e'tiborining yanada kuchayishi, xalqaro aloqalarning kuchaytirilish kabi tartib va vazifalar belgilandi. Xalqaro turizmni rivojlantirishda ijobiy o'zgarishlar bilan bir qatorda, 1991-1999 yillar davomida sohaning bir qator tarmoqlarida muammolar, rivojlanishga to'ganoq bo'ladigan hamda milliy turizm imijiga salbiy ta'sir ko'rsatayotgan tartib yoki qoidalar saqlanib qoldi. Bu esa keyingi davrlarda mamlakat turizmi oldidagi yechilish zarur bo'lgan vazifaga aylandi. Jumladan quyidagilarni keltirish mumkin: a) Jahon turizm bozorida milliy turistik mahsulotning targ'ibot tashviqoti ya'ni faol reklamasi yo'lga qo'yilmaganligi [25; B.59.], b) Viza tartibidagi kamchilik va noqulaylik lar, bojxona va chegaradagi turistlarni bezdiradigan rasmiyatchilikblarning ko'pligi ya'ni ma'muriy to'siqlar mavjudligi [26; B.117], c) Turistik mavsу davrida asosiy turistik markaz bo'lgan tarixiy shaharlarda joylashtirish vositalari-mehmonxonalarining kamligi va o'rin joylarning yetishmasligi, d) O'zbekistonning turistik yo'nalish sifatida cheklangan jozibadorligi hamda mehmonxona sanoatidagi narxlarning xizmat ko'rsatish darajasiga mos kelmasligi kabilardir [27; B.152-154].

Адабиётлар рўйхати / Список литературы / References:

1. O'zR MA. 141-M- Fond. 1-Ro'yxat.38-Ish. 2-varoq
2. <https://lex.uz/docs/223878>
3. <https://www.lex.uz/uz/docs/566556?ONDATE=15.02.1993>
4. <https://lex.uz/docs/-1014149>
5. I.S.Tuxliev.Turizm asoslari. Samarqand. 2008.B-158
6. <https://lex.uz/docs/-1014149>
7. O'zR MA. 141-M- Fond. 1-Ro'yxat.38-Ish. 2-varoq
8. I.S.Tuxliev. Turizm asoslari. Samarqand.2008. B-6
9. <https://lex.uz/docs/-182051?ONDATE=02.06.1995%2000#-1491810>
- 10.M.T.Alieva. Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida turizm xizmatlari sohasini boshqarishning iqtisodiy jihatlari(O'zbekiston Respublikasi misolida). Iqtisodiyot fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. Toshkent. 2019. B-74
11. O'zR MA. 141-M- Fond. 1-Ro'yxat.38-Ish. 2-varoq.
12. O'zR MA. 141-M- Fond. 1-Ro'yxat.38-Ish.6-13-varoqlar.

13. Buxoro viloyat davlat arxivi. 1503-M-Fond. 1-Ro`yxat.44-Ish .152-varoq.
14. <https://data.worldbank.org/indicator/ST.INT.RCPT.CD?locations=UZ>
15. O`zR MA. 141-M- Fond. 1-Ro`yxat.38-Ish. 1-varoq.
16. O`zR MA. 141-M- Fond. 1-Ro`yxat.38-Ish. 1-varoq
17. O`zR MA. 141-M-Fond.1- Ro`yxat. 38-Ish. 33-37- varoqlar.
18. <https://lex.uz/docs/-475948>
19. O`zR MA. 141-M- Fond. 1-Ro`yxat.38-Ish. 3-4-varoq
20. <https://lex.uz/docs/-838278?ONDATE=08.08.1998%2000#-905240>
21. PF-2286-сон 15.04.1999. 2005-yilgacha bo`lgan davrda O`zbekistonda turizmni rivojlantirish davlat dasturi to`g`risida (lex.uz)
- 22.727-сон 13.05.1999. Предоставления услуг иностранным туристам за свободно конвертируемую валюту (lex.uz)
23. 830-I-сон 20.08.1999. Turizm to`g`risida (lex.uz)
24. 830-I-сон 20.08.1999. Turizm to`g`risida (lex.uz)
- 25.M.T.Alieva. Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida turizm xizmatlari sohasini boshqarishning iqtisodiy jihatlari(O'zbekiston Respublikasi misolida). Iqtisodiyot fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. Toshkent. 2019. B-59
26. M.T. Alieva. Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida turizm xizmatlari sohasini boshqarishning iqtisodiy jihataari “Fan” Toshkent.2013.B-117
27. Buxoro viloyat davlat arxivi. 1503-M-Fond. 1-Ro`yxat.44-Ish 152-154- varoqlar

Иқтисодиёт фанлари

**BAHOLASH FAOLIYATINI DAVLAT TOMONIDAN TARTIBGA
SOLISHNING MILLIY VA XORIJ AMALIYOTLARI XUSUSIYATLARI**

Aktamov Bobirjon Mardon o‘g‘li

Toshkent moliya instituti mustaqil tadqiqotchisi

**ОСОБЕННОСТИ НАЦИОНАЛЬНОЙ И ЗАРУБЕЖНОЙ ПРАКТИКИ
ГОСУДАРСТВЕННОГО РЕГУЛИРОВАНИЯ ОЦЕНОЧНОЙ
ДЕЯТЕЛЬНОСТИ**

Актамов Бобиржон Мардон угли

Независимый исследователь Ташкентского финансового института

**FEATURES OF NATIONAL AND FOREIGN PRACTICE OF STATE
REGULATION OF APPRAISAL ACTIVITY**

Aktamov Bobirjon Mardon Ugli

Researcher of Tashkent Institute of Finance

aktamovisgunner@gmail.com; (+99890 351 0757)

Иқтибос келтириши учун / For citation / Для цитирования:

Aktamov B.M. Baholash faoliyatini davlat tomonidan tartibga solishning milliy va xorij amaliyotlari xususiyatlari // Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари. – 2022. – № 1 (4). – Б. 19–28.
<https://doi.org/10.47390/B1342142022N2>

Annotatsiya. Maqolada O‘zbekiston Respublikasi, Yevropa va Amerika davlatlarida baholash faoliyatini davlat tomonidan tartibga solishning xususiyatlari ko‘rib chiqiladi. O‘zbekistonda baholash faoliyatini davlat tomonidan tartibga solish vositalarini batafsil tahlil qilinib, Italiya va AQSh misolida Yevropa va Amerikada baholash faoliyatini tartibga solish tizimlarining o‘xshashligi va farqlari aniqlandi.

Tayanch so‘zlar: Baholash faoliyati, baholash standartlari, tartibga solish, baholash tashkilotlari, malaka sertifikati.

Аннотация. В статье рассматриваются особенности государственного регулирования оценочной деятельности в Республике Узбекистан, странах Европы и Америки. Детальный анализ инструментов государственного регулирования оценочной деятельности в Узбекистане. На примере Италии и США выявлены сходства и различия систем регулирования оценочной деятельности в Европе и Америке.

Ключевые слова: Оценочная деятельность, стандарты оценки, регламент, оценочные организации, квалификационный аттестат.

Annotation. The article discusses the features of state regulation of appraisal activities in Uzbekistan, Europe and America. A detailed analysis of the instruments of state regulation of valuation activities in Uzbekistan. On the example of Italy and the USA, similarities and differences of regulation systems of appraisal activities in Europe and America are revealed.

Keywords: Evaluation activities, valuation standards, regulation, valuation organizations, qualification certificate.

DOI: 10.47390/B1342142022N2

Kirish

Baholash faoliyati mulkiy munosabatlar infratuzilmasining muhim elementi hisoblanadi. O‘z navbatida, davlat tomonidan baholash faoliyatini tartibga solinishi uning rivojlanishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Mamlakatimizda baholash faoliyatini tartibga solish tizimi xalqaro tajribadan kelib chiqqan holda va iste’molchilar talablarini hisobga olib baholash xizmatlari sifatini oshirishga qaratilgan.

Bugungi kunda baholash xizmatlar bozorida 230 dan ortiq baholash tashkilotlari, shu jumladan xalqaro kompaniyalar mavjud bo‘lib, ularda 1200 ga yaqin baholovchilar professional faoliyat yuritib kelmoqda. Shu bilan birga, baholash xizmatlari bozori hajmi 2020 yilda atigi 72 mlrd. so‘mni tashkil etdi [1].

Ushbu ma’lumotlarni tahlil qilgan holda shuni takidlash kerakki, respublikada baholash faoliyatining taraqqiyoti uyg‘un rivojlantirilayotgan iqtisodiy islohotlar talablariga to‘liq javob bermayapti. Baholash tashkilotlari faoliyati iqtisodiy islohotlarning bugungi bosqichi talablariga to‘liq mos emasligi yuzaga kelgan holatning asosiy sababi hisoblanadi. Bugungi kunda baholash faoliyatini tartibga solish, uni davlat tomonidan muvofiqlashtirish, uning uslubiy ta’minotini hamda novmativ-huquqiy bazasini takomillashtirib borish, xususan baholash xizmatlari bozorining professional ishtirokchilari faoliyatini litsenziyalash, baholovchilarga malaka serfitikatlarini berish, umuman olganda mazkur faoliyatni baholash xizmatlari bozori bilan yaxlit holda tartibga solish murakkab bir mexanizmni tashkil etadi.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi

O‘zbekiston Respublikasida baholash sohasidagi qonunchilikga muvofiq baholash faoliyati davlat tomonidan va o‘z-o‘zini boshqarish organlari tomonidan tartibga solinadi. Davlat aktivlarini boshqarish agentligi baholash faoliyatida davlat

regulyatori bo‘lib faoliyat yuritadi.

Rossiyalik iqtisodchi-olimlarning ta’kidlashicha, “baholash faoliyatini tartibga solish-mavjud iqtisodiy inqirozni bartaraf etish, to‘laqonli tarkibiy tuzatishlarni amalga oshirish va investisiya jarayonlarını faollashtirishning zarur shartidir” [2].

Xorijlik iqtisodchi olim E.D.Navrotskaning fikricha, baholash faoliyatini rivojlanishi mulk qiymatini baholash xizmatları bozorining dinamik muhitga ega murakkab tizim ekanligi unda baholash xizmatları hajmi vaqt birligi ichida talab va taklif asosida uzlusiz o‘zgarib borishi bilan belgilanadi [3].

Iqtisodchi olim, Baholash fondi (The Appraisal Foundation, TAF)ning a’zosi D.S.Buntonning fikricha, hozirgi kunda baholash faoliyatini tartiblashtirish alohida nazariyaga va yuqori darajada tartiblashtirilgan murakkab, samarali infratuzilmaga va dinamik muhitga ega bo‘lib, zamonaviy iqtisodiyot rivojini qiymatiy belgilaydigan murakkab tizim sifatida namoyon bo‘lmoqda [4].

Kasbiy faoliyat sifatida baholash faoliyati mamlakatda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning hozirgi ehtiyojlariga javob berishi, shuningdek, mintaqaviy va tarmoq xususiyatlarini hisobga olishi kerak [5].

Yuqoridagilar asosida xulosa qilish mumkinki, baholash faoliyatini tartibga solish – bu baholovchi tashkilotlar va baholovchilar faoliyatini samarali tashkil etish va ularning ish sifatini yaxshilashga qaratilgan jarayoni.

Tadqiqot metodologiyasi


Tadqiqot davomida, tizimli tahlil, statistik guruhlar va taqqoslama tahlil, ekspert baholash va boshqa usullardan foydalaniłgan.

Tahlil va natijalar

Bugungi kunda mamlakatimizda baholash faoliyatini tartibga solish mexanizmi 1999-yil 19-avgustdagı 811-I-sonli “Baholash faoliyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining Qonuni bilan belgilanadi. Misol uchun, mamlakatimizda baholash faoliyatini huquqiy tartibga solishning zamonaviy tizimi O‘zbekiston Respublikasi Davlat aktivlarini boshqarish agentligi tomonidan amalga oshiriladi, bu esa o‘z navbatida baholash faoliyatini tartibga solish va yagona davlat siyosatini ishlab chiqishni ta’minlaydi. Ayni vaqtda baholash faoliyatini davlat tomonidan tartibga solish bilan bir qatorda o‘z-o‘zini tartibga solish mexanizmi ham mavjud.

O‘zbekiston Respublikasida baholash faoliyatini davlat tomonidan tartibga solish tizimini takomillashtirishning asosiy maqsadi baholash xizmatlarini standartlashtirishga yordam beradigan professional xizmatlarning sifatini oshirishdir. 2020-yil 4-iyunda ro‘yxatdan o‘tgan, ro‘yxat raqami 3239-sonli O‘zbekiston Respublikasi Davlat aktivlarini boshqarish agentligi direktorining buyrug‘iga ko‘ra, xalqaro baholash standartlari hisobga olgan holda, O‘zbekiston Respublikasining Yagona Milliy Baholash Standarti qabul qilindi. Sxematik tarzda baholash faoliyatini

tartibga solishning asosiy instrumentlari quyidagi 1-rasmda keltirilgan.



1-rasm. Baholash faoliyatini tartibga solishning asosiy instrumentlari¹

Baholash standartlari tizimi O'zbekiston Respublikasining Yagona Milliy Baholash Standarti va baholash tashkilotlarining o'z-o'zini tartibga solish uyushmalari qoidalari standartlaridan iborat. Hozirda O'zbekiston Respublikasining Yagona Milliy Baholash Standarti 13 ta Mulkni baholash standartlari(MBS)dan iborat bo'lib, ular quyidagi 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval

Mulkni Baholash Standartlari (MBS)²

Tartib raqami	Nomlanishi
№1	Baholash faoliyatida foydalilanligan prinsiplar, atamalar va ta'riflar
№2	Baholashga oid vazifa
№3	Baholash jarayonida o'tkaziladigan o'rganishlar va tahlillar
№4	Baholash haqidagi hisobotni tuzish
№5	Baholash bazalari
№6	Baholash yondashuvlari va usullari
№7	Biznesni va biznesda ishtirok etish huquqini baholash
№8	Ko'chmas mulkni baholash
№9	Nomoddiy aktivlarni baholash
№10	Tovar-moddiy zaxiralarini baholash
№11	Mashina va uskunalarni baholash
№12	Xususiylashtirish maqsadida davlat uy-joy fondini baholash
№13	Baholovchilar ishi sifatini nazorat qilishning ichki qoidalariiga qo'yiladigan umumiy talablar

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, 2021-yilning 1-yanvariga qadar

¹ Muallif ishlanmasi

² Muallif ishlanmasi

Respublikamizda baholash faoliyati majburiy tartibda litsenziyalash talabi mavjud edi, lekin O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-avgustdagи PF-6044-sonli “Litsenziyalash va ruxsat berish tartib-tamoillarini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoniga muvofiq litsenziyalash o‘rniga o‘z-o‘zini tartibga solish hamda baholovchilarning o‘z-o‘zini tartibga soluvchi tashkilotlari faoliyatini rivojlantirish mexanizmi joriy etildi.

Bundan tashqari, baholovchilarga malaka sertifikatini berishga ham yangi talablar joriy etildi. 2020-yil 23-dekabrdagi 805-sonli “Baholovchilar va rietorlarning malaka imtihonini o‘tkazish va ularga malaka sertifikatini berish bo‘yicha davlat xizmatlari ko‘rsatishning ma’muriy reglamentlarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qaroriga muvofiq baholovchi malaka sertifikatini olish uchun talabgor quyidagi me’zonlarga javob berishi kerak:

1) oliv iqtisodiy, yuridik yoki texnikaviy ma’lumotga, baholovchi yoki baholovchining yordamchisi lavozimida so‘nggi besh yilda kamida bir yil ish stajiga yoxud oliv ma’lumotga ega bo‘lishi, bunda xorijiy davlatlarda olingan oliv ma’lumot yoki ilmiy daraja belgilangan tartibda O‘zbekiston Respublikasida tan olingan taqdirda inobatga olinadi.

2) vakolatli organ tomonidan belgilangan tartibda kelishilgan dastur bo‘yicha va baholash tashkilotlari hamda baholovchilar professional birlashmalarining takliflarini hisobga olingan holda maxsus o‘qiganligi haqida sertifikatga ega bo‘lishi.

Shuni ham takidlab o‘tish kerakki, “Baholash ishi: baholash faoliyati va rietorlik (obyektlar bo‘yicha) (5A231501)” yoki “Ko‘chmas mulkni ekspertiza qilish va boshqarish: Ko‘chmas mulkni baholash va boshqarish (5A340901)” mutaxassisligi bo‘yicha oliv ma’lumotga ega bo‘lgan yoki baholovchining xalqaro sertifikatiga ega bo‘lgan talabgor maxsus o‘quvdan o‘tmasdan malaka imtihonini topshirishga haqli.

Agar imtihon muvaffaqiyatli topshirilsa, baholovchiga malaka sertifikati beriladi hamda ushbu sertifikat besh yil davomida amal qiladi. Malaka imtihonidan o‘tmagan talabgor imtihonni takroran topshirish uchun imtihon o‘tkazilgan kundan boshlab kamida bir oy vaqt o‘tgandan so‘ng yuqoriagi qarorning reglamentida belgilangan tartibda malaka imtihonidan o‘tish uchun takroran murojaat qilishga haqli.

Shunday qilib, Davlat aktivlarini boshqarish agentligining normativ-huquqiy hujjatlari bilan belgilangan O‘zbekiston Respublikasida baholash faoliyatini davlat tomonidan tartibga solishning muayyan vositalari mavjud. Baholash faoliyatini huquqiy tartibga solishning asosiy vositalariga quyidagilar kiradi: Yagona Milliy Baholash Standartlari tizimi, malaka sinovlari orqali baholovchilar xizmatlarini sertifikatlash, baholovchilarni tayyorlash bo‘yicha o‘quv dasturlarini birlashtirish, qonunchilik ijrosini amalga oshirish yuzasidan muayyan nazorat olib borish.

Tadqiqotmiz davomida biz baholash faoliyatini tartibga solishning xorijiy

mamlakatlar tajribasini ham ko‘rib o‘tishni maqsad qildik. Xususan, Amerika Qo‘shma Shtatlarida baholash faoliyatini huquqiy tartibga solish ko‘p darajali tizimni o‘z ichiga oladi. Ushbu tizim o‘z navbatida, aniq vazifani bajaradigan ko‘plab turli xildagi professional institutlardan tashkil topgan. Shuningdek, baholash faoliyatini davlat tomonidan belgilangan normativ hujjatlar bilan tartibga solinadi va litsenziyalash faqat ko‘chmas mulkni baholash sohasida amalga oshiriladi.

Baholash fondi (The Appraisal Foundation, TAF), 1986 yilda ko‘chmas mulkni baholash standartlarini ishlab chiqish maqsadida tashkil etilgan bo‘lib, bugungi kunda standartlar, metodologiyalar, tuzatishlar va boshqalarni ishlab chiqadigan to‘rtta maslahat kengashidan tashkil topgan. Baholash jamg‘armasi baholash agentlari o‘rtasida yuzaga keladigan nizolarni ham hal qiladi [6].

Baholash standartlari kengashi (Appraisal Standards Board, ASB), tarkibi Amerika standartlari USPAP (Uniform Standards of Professional Appraisal Practice)ni ishlab chiqish va modernizatsiya qilish va talqin qilishda ishtirot etadigan yetti vakillikdan iborat tashkilot hisoblanadi.

Baholash amaliyoti kengashi (Appraisal Practice Board, APB) tarkibiga o‘z faoliyatining turli sohalarida konsalting xizmatlarini ko‘rsatadigan baholovchilardan iborat beshtadan to‘qqiztagacha vakilliklarni o‘z ichiga oladi. Shuningdek, bu bo‘lim baholashning umumiyy nazariyasi (Recognized Valuation Methods and Techniques) bo‘yicha eslatmalarni ishlab chiqadi va ularni nashr etadi.

Baholovchilar malaka kengashi (Appraiser Qualifications Board, AQB) ekspertiza aspektlarini ishlab chiqadi va ko‘chmas mulk sohasidagi baholovchilarning ma’lumoti va tajribasiga talablarni belgilaydi [7].

AQSHda Baholash Fondidan tashqari, baholovchilar uyushmalarining a’zolari va bir qator federal agentliklarning vakillari, shuningdek, baholash qo‘mitalarini (Appraisal Boards) o‘z ichiga oladigan Baholovchilar malaka kengashi (Appraiser Qualifications Board, AQB) kabi tashkilotlar mavjud. Baholash bo‘yicha quyi qo‘mita federal davlat organi hisoblanadi. Baholash faoliyatini huquqiy tartibga solish va baholash standartlariga rioya qilishni nazorat qiladi, shuningdek, baholovchilarning federal reestrini boshqaradi va baholash jamg‘armasi faoliyatini nazorat qiladi [8].

Bundan tashqari, AQShda baholovchilar turli xil professional tashkilotlarga, masalan, Amerika baholovchilar jamiyati, Xalqaro baholovchilar jamiyati, Biznesni baholash instituti, Mashina va uskunalar baholovchilari assotsiatsiyasi, Xalqaro davlat baholovchilari assotsiatsiyasi [9].

Agar baholovchining malakasi haqida to‘xtalib o‘tadigan bo‘lsak, AQShda ko‘chmas mulk baholovchilari uchun juda yuqori talablar mavjud va ular tomonidan ko‘rsatiladigan xizmatlar boshqa mulk turlarini baholovchilarga nisbatan ishonchli hisoblanadi. Ko‘chmas mulk baholovchilar muayyan o‘quv kurslarini o‘tib, keyin

maxsus sinovlar orqali ko‘chmas mulkni baholashni amalga oshirish huquqini beruvchi litsenziya(sertifikat) olishlari talab etiladi. Professional imtihon muvaffaqiyatli topshirilsa ham, litsenziya olish uchun uchta talab mavjud: Biznesni Baholovchilar Instituti (Institute of Business Appraisers, IBA) professional tashkilotiga a’zolik, oliv ma’lumotli diplom mavjudligi, shuningdek, muayyan o‘quv kurslarini majburiy ravishda topshirish kabilar. Shaxsiy litsenziya hududiy xususiyatga ega bo‘lib, u faqat taqdim etilgan shtatda amal qiladi. AQShning istalgan nuqtasida mulkni baholash huquqiga ega bo‘lish uchun baholovchi federal litsenziyani olishi kerak. Ko‘chmas mulk bilan bog‘liq bo‘lmagan sohada baholovchi bo‘lish uchun o‘z-o‘zini boshqaruvchi baholovchilar tashkilotlarining faqat bittasiga a’zo bo‘lish talab etiladi. O‘z navbatida, Amerika baholovchilarining majburiyatlari AQShning baholash faoliyati to‘g‘risidagi federal qonunlari, ayrim davlatlarning normativ-huquqiy hujjatlari, kasbiy baholash amaliyoti uchun yagona standartlar, baholovchilar uyushmalarining talablari va individual aktlar bilan tartibga solinadi [7].

Shunday qilib, AQShda baholash faoliyatining professional institutlarni tashkil etishning aniq tizimi, baholash faoliyatining muayyan qonunchilik bazasi va baholovchilarga nisbatan aniq talablar mavjud.

Tahlillarimiz davomida biz baholash faoliyatini tartibga solishning Yevropa mamlakalari amaliyotini ham o‘rgandik. Masalan, Italiyada ko‘chmas mulkni baholash nazorati bo‘yicha davlat yoki jamoat qoidalari mavjud emas. Baholash faoliyatini tartibga solishning asosiy organlari: Italiya Baholovchilari Milliy Kengashi (National Council of Italian Surveyors, CNGGL), Italiya ko‘chmas mulkni baholash instituti - Italiya baholovchilari professional tashkiloti (Italian Institute for Real Estate Valuation), Baholash Ekspertlari Uyushmasi (Association of Expert Valuers, GEOVAL) [7].

Italiyada baholash faoliyati Yevropa standartlari tashkiloti (TEGOVA)ga, Italiya ko‘chmas mulkni baholash standartlari (Italian Property Valuation Standard), va Italiya bankirlari uyushmasi (Italian Banking Association, AIB)ning Mulkni Baholash Tamoyillari (Guidelines for the valuation of property guaranteeing credit exposures)ga asoslangan. Italiya baholash standartlari xalqaro baholash standartlariga o‘xshash va qiymatni aniqlash, uni o‘lchash usullari, baholash tartib-qoidalari, hisobotning asosiy nuqtalari hamda baholashning muayyan turlariga tushuntirishlar kabilarni o‘z ichiga oladi. Italiyada baholash faoliyati standartlari tavsiyaviy xarakterda qabul qilinadi va faoliyat uchun muayyan litsenziyani talab qilmaydi [9].

Yuqoridagilardan kelib chiqib, tahlil qilingan material asosida turli mamlakatlarda muayyan xususiyatlarga ega bo‘lgan baholash faoliyatini davlat tomonidan tartibga solishning turli tizimlari mavjud degan xulosaga kelindi. O‘zbekiston Respublikasi, AQSh va Italiyaning baholash faoliyatini huquqiy tartibga

solist tizimlarining farqlari va o‘xshashligi qiyosiy jadval shaklida taqdim etiladi (2-jadval).

2-jadval.

O‘zbekiston Respublikasi, AQSh va Italiyada baholash faoliyatini davlat tomonidan tartibga solish tizimining qiyosiy xususiyatlari³

Me’zonlari	O‘zbekiston Respublikasi	AQSh	Italiya
Baholash faoliyatini normativ-huquqiy tartibga solish tizimining qisqacha tavsifi	Hozirgi bosqichda O‘zbekiston Respublikasi da baholash faoliyatini tartibga solish tizimi 19.08.1999 yildagi O‘zbekiston Respublikasining “Baholash faoliyati to‘g‘risida”gi 811-I-sonli Qonuni va va ushbu qonunga muvofiq O‘zbekiston Respublikasining boshqa normativ-huquqiy hujjatlari	Turli xil professional institutlardan tashkil topgan ko‘p bosqichli tizim, o‘z navbatida, muayyan funktsiyalarni bajaradi. Baholash faoliyatini davlat tomonidan tartibga solish normativ-huquqiy hujjatlar faqat ko‘chmas mulkni baholash sohasida litsenziyalash bilan tartibga solinadi	Davlat tomonidan ko‘chmas mulk baholash faoliyatini nazorat qilish bo‘yicha qarorlar mavjud emas. Baholash faoliyatini tartibga solish asosiy organlari: Italiya Baholovchilar Milliy Kengashi, Italiya Ko‘chmas Mulkni Baholash Instituti-Italiya baholovchilarining professional tashkiloti, Baholash Ekspertlari Uyushmasi
Baholovchilarining malakasiga qo‘yiladigan talablar va uni tasdiqlash tartibi	23.12.2020 yildagi 805-sonli “Baholovchilar va rieltorlarning malaka imtihonini o‘tkazish va ularga malaka sertifikatini berish bo‘yicha davlat xizmatlari ko‘rsatishning ma’muriy reglamentlarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori	Muayyan miqdordagi soat, muayyan ish tajribasi va ko‘chmas mulk baholovchilaridan ta’lim olish. Bundan tashqari, baholovchi sertifikat olish uchun professional imtihonni topshirishi shart. Boshqa baholash faoliyati uchun o‘zini nazorat qiluvchi baholovchi tashkilotlarning a’zosi bo‘lishi kerak.	Baholovchilarni mehnat faoliyati tasdiqlanadi ammo malakani tasdiqlash uchun rasmiy tartib-qoidalar talab qilinmaydi.
Baholash faoliyatini litsenziyalash xususiyatlari	2021 yil 1 yanvaridan baholash faoliyatini olib boorish uchun litsenziya talab qilinmaydi. O‘z-o‘zi boshqaruvchi baholovchi tashkilotlariga majburiy a’zolik talab etiladi.	Hozirgi kunda, davlat faqat ko‘chmas mulk sohasidagi baholovchilarни sertifikatlashni nazorat qiladi. Ushbu baholovchilarni sertifikatlash Baholash Jamg‘armasi tomonidan belgilangan baholovchilarning malakasiga qo‘yiladigan muayyan talablarga muvofiq alohida hududlar	Baholash faoliyatini olib boorish uchun litsenziya talab qilinmaydi.

³ Muallif ishlanmasi

		va shtatlar tomonidan amalga oshiriladi.	
Amaldagi baholash standartlari	Yagona Baholash Milliy Standarti	AQSH baholash standartlari USPAP.	“TEGOVA” tashkilotining Yevropa standartlari, Italiya ko'chmas mulkni baholash standartlari (Italian Property Valuation Standard), Italiya Bankirlar Uyushmasi (Italian Banking Association) tomonidan ishlab chiqilgan Mulkni Baholash Tamoyillari (Guidelines for the valuation of property guaranteeing credit exposures)

Jadvalda baholash faoliyati uchun davlat organlari tomonidan nisbatan yumshoq nazorat Italiya uchun xos ekanligini xulosa qilish mumkin. Biroq, barcha mamlakatlarda o‘z-o‘zini tartibga solish instituti mavjud va AQShda ko‘chmas mulk sohasida baholovchilarning faoliyatini litsenziyalash qo‘srimcha ravishda amalga oshiriladi. Barcha mamlakatlarda baholashning xalqaro standartlariga tayangan holda baholash faoliyatini normativ-huquqiy tartibga solish tizimi yaratildi.

Xulosa va takliflar.

Tahlillar asosida mamlakatimizda baholash xizmatlar bozori faoliyat samaradorligini oshirish uchun quyidagi chora-tadbir va tavsiyalarni belgilash maqsadga muvofiq:

1) baholash xizmatlar bozorining iqtisodiy taraqqiyotini ta’minlashdagi yuksak ahamiyatidan kelib chiqib, qabul qilingan normativ-huquqiy xujjatlar ijrosini ta’minlash, uning bajarilishini jiddiy nazoratga olish lozim;

2) baholovchi kadrlarning malakasini muntazam oshirib boorish tizimini joriy etish va ularni xalqaro sertifikatlarni qo‘lga kiritishda ko‘maklashish va ularni rag‘batlantirish;

3) O‘zbekiston Respublikasi mulkni baholash bo‘yicha standartlarini xalqaro standartlarga yanada uyg‘unlashtirishga, shuningdek, baholash faoliyatini davlat tomonidan tartibga solish sohasida to‘plangan xalqaro tajribani tanqidiy tahlil qilish va ulardan foydalanishga yo‘naltirilgan bo‘lishi kerak;

milliy iqtisodiyotda baholash xizmatlari bozorining rolini oshirish uchun ilg‘or xorijiy tajribalarni O‘zbekiston baholash xizmatlari bozoriga to‘liq tadbiq etish, bu boroda malakali mutaxassislar tayyorlash tizimiga yagona tuzilmani yaratish g‘oyasi asosida yondashish, sohani raqamli iqtisodiyot talablari asosida qayta ko‘rib chiqish va baholash faoliyatini tartibga soluvchi mavjud qonunchilik bazasini takomillashtirish maqsadga muvofiqdir.

Адабиётлар рўйхати / Список литературы / References

1. www.davaktiv.uz sayti ma'lumotlari
2. Козырев А.Н., Макаров В.Л., «Особенности оценочной деятельности применительно к условиям новой экономики» Москва 2003
3. Nawrocka E., 2018, Income Risk in Property Valuation for Loan Security Purposes, Real Estate Management and Valuation, vol. 26, no. 2, pp. 12-22. DOI: 10.2478/remav-2018-0012
4. David S.Bunton, The Appraiser Regulatory System in the United States //Information Technology & Management. Jun2019, Vol.15 Issue 2, p168-182
5. International Valuation Standards IVS -2017. IVSC, 2017.- 115 р
6. Марков С.Н. Теоретические аспекты оценочной деятельности в США: система профессиональных институтов и требования к оценщикам. // Алтайский вестник Финуниверситета. — 2020. — № 5. — С. 40–43.
7. Сравнительная характеристика системы государственного регулирования оценочной деятельности в Российской Федерации, США и Италии. // Составлено автором самостоятельно.
8. Ефимова Ж.А. Сравнительный анализ осуществления оценочной деятельности в России и за рубежом. // Бенефициар. — 2020. — № 41. — С. 6– 9.
9. Краткий анализ практики организации и регулирования оценочной деятельности в ряде стран [Электронный ресурс] URL: <https://cutt.ly/4rnCo87> (дата обращения: 14.12.2021).
- 10.O‘zbekiston Respublikasining 19.08.1999 y. 811-I-sonli “Baholash faoliyati to‘g‘risida”gi qonuni. <http://lex.uz/>
- 11.O‘zbekiston Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 23 dekabrdagi “Baholovchilar va rieltorlarning malaka imtihonini o‘tkazish va ularga malaka sertifikatini berish bo‘yicha davlat xizmatlari ko‘rsatishning ma’muriy reglamentlarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 805-sonli Qarori
- 12.O‘zbekiston Respublikasining Yagona Milliy Baholash Standarti 04.06.2020 yilda ro‘yxatdan o‘tgan, ro‘yxat raqami 3239 <http://lex.uz/>

Иқтисодиёт фанлари

**TADBIRKORLIK FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHDA LOYIHA
RISKLARINI SAMARALI BOSHQARISH**

Shaislamova Nargiza Kabilovna

“Baholash ishi va investitsiyalar” kafedrasi katta o‘qituvchisi, TMI

**ЭФФЕКТИВНОЕ УПРАВЛЕНИЕ РИСКАМИ ПРОЕКТА В РАЗВИТИИ
ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ**

Шаисламова Наргиза Кабиловна

Старший преподаватель кафедры «Оценочное дело и инвестиции», ТФИ

**ЭФФЕКТИВНОЕ УПРАВЛЕНИЕ РИСКАМИ ПРОЕКТА В РАЗВИТИИ
ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ**

Shaislamova Nargiza Kabilovna

Senior Lecturer, Department of Valuation and Investments, TIF

Иқтибос келтириши учун / For citation / Для цитирования:

Shaislamova N.K. Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishda loyiha risklarini samarali boshqarish //

Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари. – 2022. – № 1 (4). – Б. 29–38.

<https://doi.org/10.47390/B1342142022N3>

Annotatsiya. Maqolada milliy iqtisodiyotda tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishda investitsiya loyihalari risklarini tahlil qilish va boshqarishning ahamiyati ko’rib chiqilgan, risklarni boshqarishning asosiy bosqichlari muallif tomonidan yoritib berilgan. Shuningdek, amaliyotda ko’p qo’llanadigan risklarni pasaytirish yo’llari keltirilgan.

Kalit so’zlar: risk, investitsiya risklari, risklarni tahlil qilish, risklarni boshqarish, risk tamoyillari, tahlil usullari, diversifikasiya, sug’urtalash va moliyaviy zahiralar yaratish.

Аннотация. В статье рассматривается значение анализа и управления рисков инвестиционных проектов в развитии предпринимательской деятельности в национальной экономике, автором описываются основные этапы управления рисками. Также

представлены основные пути снижения инвестиционных рисков, которые обычно используются на практике.

Ключевые слова: риск, инвестиционные риски, анализ рисков, управление рисками, методы анализа, диверсификация, страхование и создание резервов.

Abstract. The article discusses the importance of risk analysis and management of investment projects in the development of business activities in the national economy, the author describes the main stages of risk management. The article also presents the main ways to reduce investment risks, which are usually used in practice.

Key words: risk, investment risks, risk analysis, risk management, risk analysis methods, diversification, insurance and creation of reserves.

DOI: 10.47390/B1342142022N3

Mamlakatimiz taraqqiyotining ustuvor yo'nalishlari va rivojlanish dasturlarini belgilashda albatta, asosiy e'tibor yanada qulay investitsiya muhitini yaratishga va xorijiy investitsiyalarni keng jalg qilishga qaratilayotganligini ta'kidlash kerak. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoev: "Investitsiya – bu iqtisodiyot drayveri, o'zbekcha aytganda, iqtisodiyotning yuragi, desak, mubolag'a bo'lmaydi. Investitsiya bilan birga turli soha va tarmoqlarga, hududlarga yangi texnologiyalar, ilg'or tajribalar, yuksak malakali mutaxassislar kirib keladi, tadbirkorlik jadal rivojlanadi"[1, 2] deb qayd etgani e'tiborga molikdir. Chunki faol va samarali investitsiya siyosatini amalga oshirilishi va investitsiya muhitining investorlar uchun yanada qulay bo'lishiga erishish – mamlakatning iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyotiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Investorlar uchun koronavirus inqirozi sharoitida sarmoya kiritishdan oldin investitsiya loyihamiga ta'sir qilishi mumkin bo'lgan risklarni tahlil qilish, risklarni baholash va samarali boshqarish, loyiha salbiy ta'sir etuvchi omillarni o'z vaqtida aniqlash va ularning salbiy ta'sirini pasaytirish yuzasidan kerakli chora-tadbirlarni ishlab chiqish masalasi yanada muhim vazifalar qatoridan joy oldi. Yuqoridagilardan kelib chiqib, zamonaviy va ilg'or tajribalar asosida investitsiya loyihamari risklarini tahlil qilish va baholash uslubiyotini takomillashtirish hozirgi dolzarb vazifalardan biriga aylandi, deb ta'kidlash mumkin.

Iqtisodiy adabiyotlarda risk tushunchasi qator iqtisodchi olimlar tomonidan turlicha ta'riflanadi. "Risk" so'zi ispancha-portugalcha so'zdan olingan bo'lib, "rif", "suv ostidagi qoya" degan ma'nolarni bildiradi va bu qoyani mohirona aylanib o'tish ma'nosini, ya'ni xavf-hatar bilan bog'liqligini anglatadi[3, 284-b.]. Taniqli lug'atshunos S.I.Ojegovning rus tili izohli lug'atida "risk - bu muvaffaqiyatga intilish, baxtli hodisaga umid" [4, 2517-b.] degan ma'no anglatadi deyilsa, butun dunyoga mashhur Webster lug'atida riskka "xavf, zarar va talafot ko'rish ehtimoli"[5] deb

qaralgan. “Risk” tushunchasiga juda yaqin bo’lgan “noaniqlik” tushunchasi bir qator iqtisodchi olimlar tomonidan riskning ba’zi bir turlarini tasniflash uchun sinonim sifatida qo’llaniladi, xususan, M.Bernadete Jankes, Anabela P.Tereso, Paulo S.L.P. Afonso o‘z ilmiy ishlarida “Risk, asosan, moliyaviy yo’qotishlarni anglatadi. U noaniqlik sinonimi sifatida ishlataladi va investitsiya loyihasi bilan bog’liq daromadlarning o‘zgaruvchanligini anglatadi”[6, 902-910-b.] degan fikrni bildirsalar, professor V.N.Livshits “Noaniqlik deganda, investitsiya loyihasini amalga oshirish shart-sharoitlari to‘g‘risidagi ma’lumotlarning to’liq emasligi yoki aniq emasligi tushuniladi, loyiha riski deganda esa, loyiha ishtirokchilari tomonidan loyihani amalga oshirishning salbiy baholangan shart-sharoitlarining paydo bo’lish ehtimolidir, ana shu jihatdan risk noaniqlikka qaraganda subyektivdir”[7, 485-b.], deya risk va noaniqlik o‘rtasidagi farqni izohlaydi.


Professor A.V.Vaxabov “Investitsion risk umumiyligi moliyaviy riskning tarkibiy qismi bo’lib, o’zida moliyaviy yo’qotishlar ehtimolini va investitsiyalardan daromadlarni to’liq ololmaslik yoki qo’shimcha investitsion xarajatlarning paydo bo’lishini namoyon etadi” [8, 165-b.] , deb ta’rif beradi.

Martina Merkova, Josef Drabek risk to‘g‘risida quyidagi fikrlarni bildirib o’tishgan: “Risk har qanday tadbirkorlikning muqarrar qismidir, shuning uchun uni tahlil qilish juda muhim, ammo, shu bilan birga, paradoks shundan iboratki, bu loyihaning eng oxirigacha baholab bo’lmaydigan qismi hisoblanadi”[9, 656-662-b.].

Hozirgi kunda loyiha risklari deganda loyihani amalga oshirish natijasida ko’zlangan daromadlarning pasayishiga sabab bo’ladigan vaziyatlar majmuasi tushuniladi. Shu bilan birga, loyiha riski investitsion loyihani amalga oshirishga halaqit beradigan yoki loyiha samaradorligini pasaytiradigan risklarning yig’indisini ham anglatadi. Investitsiya riskini ma’lum bir investitsion qarorni qabul qilish natijasida zahiralarni yo’qotish imkoniyati, daromadlarni ololmaslik yoki qo’shimcha harajatlar zarurati sifatida belgilash mumkin.

Bugungi kunda investitsiya loyihalarini amalga oshirishda faqatgina loyihaga ta’sir etuvchi risk turlari aniqlanib qolmasdan, balki ularni tahlil qilib, baholab, so’ngra bunday risklarni samarali boshqarish va pasaytirish bo'yicha chora-tadbirlar ishlab chiqilmoqda. Investitsiya loyihasini ishlab chiqishda va amalga oshirish davrida yuzaga kelishi mumkin bo’lgan risklarning har bir turini alohida hisobga olish, o’rganish va tahlil qilish, baholash hamda ularni pasaytirish choralarini ishlab chiqish zarur bo’ladiki, bu risklarga qarshi kurashishning eng samarali usuli hisoblanadi.

Bizningcha, risklarni boshqarishning asosiy bosqichlarini quyidagicha ifodalash mumkin (1-rasm).



1-rasm. Risklarni boshqarish bosqichlari⁴

Risklarni boshqarish – investitsiya loyihasiga ta'sir etuvchi risklarni aniqlash, baholash, hisoblash, nazorat qilish (monitoring) va kamaytirish maqsadida kompaniyada doimiy olib boriladigan tuzilmaviy jarayondir. Risklarni boshqarish va baholashdan maqsad, investorga investitsiya loyihasini amalga oshirishning maqsadga muvofiqligi to'g'risidagi qarorlarni qabul qilish va mumkin bo'lgan moliyaviy yo'qotishlardan himoyalash bo'yicha chora-tadbirlar ishlab chiqish uchun kerakli ma'lumotlarni taqdim qilishdan iborat.

⁴ Muallif tomonidan iqtisodiy adabiyotlarni o'rganish asosida ishlab chiqildi.

Shuni e'tiborga olish lozimki, investitsiya loyihalari risklarini boshqarishda ularni tahlil qilish va baholash natijalariga asoslanib, boshqarish usullari tanlanadi. Demak, loyiha risklarini baholash qanchalik mukammal amalga oshirilsa, buning natijasida loyiha bo'yicha aniq va ishonchli ma'lumotlarga ega bo'linadi va loyiha shunchalik samarali boshqariladi.

Amaliyotda investitsiya risklarini baholashning bir qancha usullari mavjud bo'lib, ulardan asosiylarini quyida keltirib o'tamiz (2-rasm).

- 
- Loyiha sezgirligi tahlili;
 - "Zararsizlik nuqtasi"ni aniqlash usuli;
 - Loyiha barqarorligini tekshirish usuli;
 - Matematik usullar (o'rtacha kvadratik chetlanish, dispersiya va variatsiya);
 - Ekspert baholash usuli;
 - Analogiya (o'xshashlar) usuli;
 - Riskni hisobga oluvchi foiz stavkalar usuli;
 - "Qarorlar daraxti" barpo etilishi usuli;
 - Stsenariylar usuli;
 - Monte-Karlo usuli.

2-rasm. Investitsiya risklarini baholash usullari⁵

Investitsiya loyihalari risklarini boshqarishdan asosiy maqsad risklarni pasaytirish hisoblanadi. Ana shu ma'noda tadbirkor risklarni samarali boshqarish uchun ularni pasaytirish yo'llarini ham bilishi talab etiladi.

Riskni pasaytirishning aniq vositasini tanlashda investor va tadbirkorlar quyidagi tamoyillarga asoslansalar, maqsadga muvofiq bo'lishini ilmiy va amaliy tadqiqotlar ko'rsatdi:

- ortiqcha tavakkal qilish kerak emas;
- risk oqibatlari to'g'risida o'ylash lozim;
- kam narsa uchun risk qilish kerak emas.

Birinchi tamoyilga asosan, investor o'z kapitalidan ko'ra ko'proq risk qilishi mumkin emas, ya'ni investor investitsiya loyihasini amalga oshirish to'g'risida qaror qabul qilishidan avval quyidagilarga amal qilishi lozim:

⁵ Muallif tomonidan iqtisodiy adabiyotlarni o'rganish asosida ishlab chiqildi.

- loyihaga ta'sir etuvchi risk bo'yicha mumkin bo'lgan zararning maksimal hajmini aniqlab olishi;
- zararlarni qo'yilayotgan kapital va o'zining barcha moliyaviy mablag'lari bilan taqqoslashi lozim.
- ushbu kapitalning yo'qotilishi investorning bankrot bo'lishiga olib kelishkelmasligini risk koeffitsientini hisoblash asosida aniqlashi lozim. Risk koeffitsienti quyidagicha topiladi:

$$Rk = Z/O'MR$$

(1) [10; 62-b.]

Bunda Rk – risk koeffitsienti; Z – maksimal mumkin bo'lgan zararlar summasi; O'MR – o'z moliyaviy resurslar hajmi.

Formuladagi $Rk \leq 0,3$ – riskning mumkin bo'lgan darajasi; $Rk \geq 0,7$ – investorni bankrotlikka olib keluvchi risk koeffitsienti.

Ikkinci tamoyilning amalga oshirilishi investorning risk ehtimolligi miqdori va oqibatlarini aniqlab olgan holda riskni pasaytirish usullari to'g'risida qaror qabul qilinishini talab etadi.

Uchinchi tamoyilning amal qilinishi loyihadan ko'rildigan zarar hajmi nisbatan yuqori bo'lgan hollarda riskdan (tavakkal qilishdan) bosh tortish zarurligi bilan anglanadi, ya'ni oz samara uchun ko'p mablag'dan voz kechish kerak emas.

Investitsiya loyihalarini amalga oshirishdagi alohida risklar ta'sirini yo'qotish yoki yumshatish uchun bir qancha yo'llardan foydalilanadi.

1. Riskdan qochish - risk bilan bog'liq tadbirlardan voz kechishni (demak, bunda foydadan ham voz kechishni) bildiradi.

2. Riskni ushlab qolish – investor zimmasiga riskni qoldirish, bunda investor o'z kapitalini riskli tadbirlarga yo'naltirayotganda, risklardan ko'rildigan zararlarni qoplash uchun yetarli mablag'larga ega bo'lishi talab etiladi. Ko'zda tutilmagan xarajatlarni qoplash uchun zahira mablag'larini tashkil etish yo'li bilan yo'qotishlar hajmini qisqartirish mumkin bo'ladi.

3. Riskni uzatish (sug'urtalash) – investor risk havfini kimningdir zimmasiga yuklaydi. Riskni sug'urtalash, mantiqan olganda, muayyan risklarni sug'urta kompaniyalariga berishni anglatadi. Uning mohiyati investorning riskdan qutilish maqsadida daromadning bir qismidan voz kechishini anglatadi.

4. Risk darajasini pasaytirish – investor tomonidan yo'qotish ehtimoli va miqdorini kamaytirishga harakat qilishni anglatadi. Risk darajasini pasaytirish uchun turli usullar qo'llaniladi, ular ichida eng ommapob usullarga diversifikatsiya, cheklash (limitlash), sug'urta qilish yoki o'z-o'zini sug'urtalash, ishonchli va to'liq axborot va ma'lumotlarga ega bo'lish kabilar kiradi.

Investitsiya risklarini pasaytirish usullari quyidagilardan iborat:

- risklarni diversifikatsiyalash;
- risklarni sug'urtalash;
- risklarni loyiha qatnashchilari o'rtasida taqsimlash;
- risklar uchun moliyaviy zahiralar ajratish.
- qo'shimcha ma'lumotlar va axborotlarga ega bo'lish.

Risklarni diversifikatsiyalash bir-biriga bog'liq bo'limgan turli xil faoliyatlar o'rtasida risklarni taqsimlash xisoblanadi. Diversifikatsiya turli xil faoliyatlar o'rtasida investitsiyalarni taqsimlash asosida riskning bir qismidan qutulish imkonini beradi (masalan, investitsiya portfelin shakllantirish).

Investitsiya portfelin shakllantirishda risklarni taqsimlashning quyidagi shakllari mavjud:

- tovar va xizmatlar hamda faoliyat turlari bo'yicha diversifikatsiyalash;
- iste'molchilarini diversifikatsiyalash;
- mol yetkazib beruvchilarni diversifikatsiyalash;
- loyiha qatnashchilarni diversifikatsiyalash.

Risklarni sug'urtalash bu risklardan og'ish hisoblanib, bunda mukofot evaziga risklarni sug'urta kompaniyalariga berish orqali risklarni pasaytirish hisoblanadi. Sug'urtalashda mulkni sug'urtalash hamda baxtsiz hodisalardan sug'urtalash amalga oshiriladi. Mulkiy sug'urtalashning quyidagi shakllari mavjud:

- moddiy yo'qotishlar va zararlardan himoya qilish maqsadida pudrat qurilishlarini sug'urta qilish;
- moddiy yo'qotishlar va zararlardan himoya qilish maqsadida dengiz yoki havo transportlari orqali tashilayotgan yuklarni sug'urta qilish;
- moddiy yo'qotishlar va zararlardan himoya qilish maqsadida pudrat va subpudrat tashkilotlariga tegishli bo'lган asbob uskunalarni sug'urta qilish.

Baxtsiz hodisalardan sug'urta qilishning quyidagi shakllari mavjud:

- qurilish qatnashchilari tana jarohatlari, shaxsiy zarar yoki mulkiy zarar ko'rganlarida bosh pudrat tashkilotlari faoliyatini himoya qilish maqsadida umumiy fuqorolik javobgarligidan sug'urta qilish;

- loyihalashtirish jarayonida arxitektorlik va texnik nuqtai nazardan xatolarga yo'l qo'yilganda loyihalarni boshqarishda kamchiliklar kelib chiqqanda bosh pudrat tashkilotini moddiy javobgarlikdan sug'urta qilish.

Risklarni loyiha qatnashchilari o'rtasida taqsimlash moliyaviy reja va shartnoma xujjalalarini ishlab chiqish davomida amalga oshiriladi. Risklarni taqsimlashda loyiha qatnashchilari ularga tegishli bo'lган u yoki bu risklarni ko'paytirib yoki kamaytirgan holda qaror qabul qiladilar.

Risk orqali ko'rilgan zararlarni qoplash moliyaviy zahiralarni tashkil etishni ko'zda tutadi. Ko'zda tutilmagan zararlarni qoplash uchun moliyaviy zahiralarni tashkil etish orqaligina loyihani amalga oshirishda vujudga keladigan uzilishlarni bartaraf etish mumkin.

Moliyaviy zahiralarni tashkil etishda quyidagilarni aniqlash lozim:

- ko'zda tutilmagan xarajatlarni qoplash uchun kerakli bo'lган mablag' miqdori;
- ko'zda tutilmagan xarajatlarni qoplash uchun kerakli bo'lган zahiraning tarkibi;
- belgilangan zahiralardan foydalanish maqsadlari.

Moddiy zahiralar maxsus zahiralar tashkil etishni, masalan, ma'lum bir davr mobaynida loyiha bo'yicha ishlab chiqarish uzilishlarsiz amalga oshirilishi uchun xom ashyo va materiallar zahiralarni tashkil etishni anglatadi.

Tadbirkorlar yoki investorlar ba'zan investitsiya bo'yicha qarorlarni ma'lumotlarning yo'qligi yoki ma'lumotlarning yetarli emasligi sharoitida ham qabul qilishlari mumkin va shu sababli, investor loyihaning kelajakdagi istiqbolini to'g'ri belgilash maqsadida hamda loyihaning risklilik darajasini pasaytirish maqsadida ko'proq axborotlarga va kengroq ma'lumotlarga ega bo'lishni istaydi. Axborotlar sifatini oshirish va aniq ma'lumotlarga ega bo'lish qo'shimcha xarajatlarni keltirib chiqaradi. Shuning uchun loyihani tavsiflovchi ko'rsatkichlarning ishonchlilagini oshirish imkoniyati bilan bu ma'lumotlarni olishga ketgan xarajatlarni taqqoslash lozim [11, 258-259 b.].

Shu bilan birga, xorijiy bank amaliyotida eng keng tarqalgan, kredit riskini pasaytirishga qaratilgan tadbirlar ham mavjud bo'lib, ularni quyida keltirib o'tamiz:

1) Qarzdorning kreditga layoqatliligin puxta baholash. Xorij bank amaliyotida ssuda oluvchini balli baholashga asoslangan usul juda keng tarqalgan (skoring metod). Bu usul mijoz reytingini aniqlashni ko'zda tutadi. Qarzdorni baholash mezonlari har bir bank uchun qattiq individuallashgan bo'lib, uning amaliyotdagi mavqeidan kelib chiqadi va vaqtiga bilan qayta ko'rib chiqiladi.

2) Bir qarzdorga beriladigan kreditning hajmini kamaytirish. Bu usul yirik hajmdagi kapitalni bitta mijozga emas, aksincha, uni bir necha mijozlar o'rtasida taqsimlash afzalligini bildiradi.

3) Kreditlarni sug'urtalash. Kreditni sug'urtalash uning qaytmaslik riskini to'liq sug'urta bilan shug'ullanuvchi tashkilot zimmasiga yuklanishini ko'zda tutadi. Sug'urtalash bilan bog'liq barcha xarajatlar ssuda oluvchilar tomonidan to'lanadi.

4) Yetarli ta'minotni jalb qilish. Bunday usul bankka berilgan summaning qaytishini va foiz olinishini kafolatlaydi. Kredit riskidan himoya qilishda asosiy e'tibor zararlarni qoplash uchun mo'ljallangan yetarli ta'minotni jalb qilishiga emas, balki ushbu zararlarga yo'l qo'ymaslik uchun qarzdorning kreditga layoqatliligin tahlil

qilishga qaratiladi. Chunki ssuda kredit kelishuviga muvofiq qaytarilishini hisobga olib beriladi.

Xulosa qilib aytganda, milliy iqtisodiyotda investitsiya loyihalarini samarali amalga oshirish loyiha risklarini baholash va boshqarish usullarini takomillashtirishni talab etadi. Buning uchun quyidagi ilmiy va amaliy taklif-tavsiyalar ishlab chiqildi:

1. Investitsiya loyihalari risklarini boshqarishda ularni tahlil qilish va baholash natijalariga asoslanib, boshqarish usullari tanlanadi. Loyihani samarali boshqarish esa, ko'zlangan samarali natijaga erishishga olib keladi. Shuning uchun loyiha risklarini baholashni puxta va mukammal amalga oshirish lozim;

2. Investitsiya loyihalari risklarini baholash va boshqarish usullarini tanlashda loyihaga ta'sir etuvchi risklarning o'ziga hos xususiyatlarini hisobga olish lozim. Bunda masalan, risklar sug'urtaladigan va sug'urtalanmaydigan turlarga bo'linadi. Sug'urtalanmaydigan risklardan fors-major risklari yoki siyosiy risklarni sug'urtalash usuli orqali boshqarish va sug'urta xarajatlarini hisoblashdan ko'ra, moliyaviy zahiralarni ajratish usuli va xarajatlarni qoplash uchun kerakli bo'lган mablag' miqdorini aniqlash afzal hisoblanadi;

3. Investitsiya loyihalari risklarini baholashda kompleks baholash ishlarini amalga oshirish lozim, ya'ni risklarni baholashda faqat bitta baholash usuli bilan kifoyalanmasdan, balki obyektiv (statistik va hisobot ma'lumotlariga asoslangan) usullar hamda subyektiv (ekspert fikriga asoslangan) usullar, shuningdek, sifat va miqdor jihatdan baholash usullarining integratsiyasiga asoslangan kompleks baholanishi lozim. Bunda bitta usulning kamchiliqi ikkinchi usulning afzalligi bilan qoplanadi va risklarni mukammal baholanishiga erishiladi;

4. Milliy iqtisodiyotda risklarni baholash usullari xorij tajribalariga va ayniqsa, axborot kommunikatsiya texnologiyalariga asoslangan bo'lishi lozim. Xorijiy iqtisodchi olimlar tomonidan taklif etilgan moliyaviy vositalar asosida risklarni boshqarish usullarining qo'llanilishi innovatsion moliyalashtirish mexanizmlaridan foydalанишига, ilg'or va zamonaviy boshqarish usullarining keng qo'llanilishiga olib keladi.

Адабиётлар рўйхати / Список литературы / References

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. Toshkent. 25 yanvar, 2020 yil.
<https://uza.uz/oz/politics/zbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyeevning-oliy-25-01-2020>

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. Toshkent. 28 dekabr, 2018 yil. www.press-service.uz
3. Инвестиции: Учеб. пособие для студентов вузов, обучающихся по направлению подготовки «Экономика» / Б.Т.Кузнецов. – М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2015. – 663 с. (С. -284.)
4. Ожегов С.И., Шведова Н.Ю. Толковый словарь русского языка: 80000 слов и фразеологических выражений. 4-е изд., доп. – М.: А ТЕМП, 2006. – 3423 с. (С. -2517.)
5. Merriam-Webster's Dictionary and Thesaurus, Mass-Market Paperback – April 1, 2014.
6. M.B. Junkes, A.P. Tereso, P.S.L.P. Afonso The Importance of Risk Assessment in the Context of Investment Project Management: A Case Study// Conference on ENTERprise Information Systems / International Conference on Project MANagement / Conference on Health and Social Care Information Systems and Technologies, CENTERIS / ProjMAN / HCist 2015 October 7-9, 2015. (902-910 pages).
7. Виленский П.Л., Лившиц В.Н., Смоляк С.А. Оценка эффективности инвестиционных проектов: Теория и практика: учеб. пособие. – 4-е изд., перераб. и доп. – М.: Издательство «Дело» АНХ. 2008. – 1104 с. (С.-485.)
8. A.V.Vaxabov, Sh.X.Xajibakiev, N.G.Muminov Xorijiy investitsiyalar. O'quv qo'llanma. / i.f.d. professor A.V.Vaxabovning umumiy tahriri ostida. – Т.: “Moliya”, 2010. – 328 b. (B. -165.)
9. Martina Merkova, Josef Drabek. Use of risk analysis in investment measurement and management. (<http://toc.proceedings.com/29281webtoc.pdf>) (656-662 pages).
- 10.Балабанов И.Т. Риск-менеджмент: учебное пособие. – М. Финансы и статистика, 1996. – 196 с. (С. -62).
- 11.Староверова Г. С. Экономическая оценка инвестиций: Учеб. пос. – М. КНОРУС, 2006. – 312 с. (С.-258).

Иқтисодиёт фанлари

**ИНСОН КАПИТАЛИНИ РИВОЖЛАНТИРИШДА ИСЛОМ СУГУРТА
ТИЗИМИНИ АМАЛГА ОШИРИШ ЙЎНАЛИШЛАРИ**

Асамходжаева Шоира Шукуруллаевна

ТМИ, “Баҳолаш иши ва инвестициялар” кафедраси катта ўқитувчиси

**НАПРАВЛЕНИЯ РЕАЛИЗАЦИИ ИСЛАМСКОЙ СИСТЕМЫ
СТРАХОВАНИЯ В РАЗВИТИИ ЧЕЛОВЕЧЕСКОГО КАПИТАЛА**

Асамходжаева Шоира Шукуруллаевна

Старший преподаватель кафедры «Оценочное дело и инвестиции» ТФИ

**DIRECTIONS FOR THE IMPLEMENTATION OF THE ISLAMIC
INSURANCE SYSTEM IN THE DEVELOPMENT OF HUMAN CAPITAL**

Asamxodjaeva Shoira

Senior teacher, Tashkent Institute of Finance

Иқтибос келтириши учун / For citation / Для цитирования:

Асамходжаева Ш.Ш. Инсон капиталини ривожлантиришда ислом сугурта тизимини амалга ошириш йўналишлари // Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари. – 2022. – № 1 (4). – Б. 39–45.
<https://doi.org/10.47390/B1342142022N4>

Аннотация. Мақолада инсон капиталини ривожлантиришда ижтимоий сугурта муносабатларининг аҳамияти ҳамда ислом сугурта тизимининг анъанавий сугуртадан фарқли жиҳатлари тадқиқ қилинган. Ўзбекистонда ислом сугуртаси шаклларидан бирни бўлган тақафулни амалга ошириш йўналишлари ўрганиб чиқилган.

Калит сўзлар: инсон капитали, ижтимоий сугурта, ризк, ислом сугуртаси, тақафул, вақф, жамгарма.

Аннотация. В статье рассматривается роль социального страхования в развитии человеческого капитала и отличия исламской системы страхования от традиционного страхования. Изучены направления реализации одной из продуктов исламского страхования тақафул в Узбекистане.

Ключевые слова: человеческий капитал, социальное страхование, риск, исламское страхование, таакафул, вакф, фонд.

Abstract. The article discusses the role of social insurance in the development of human capital and the differences between the Islamic insurance system and traditional insurance. The directions of implementation of one of the products of Islamic insurance takaful in Uzbekistan were studied.

Key words: human capital, social insurance, risk, Islamic insurance, takaful, waqf, fund.

DOI: 10.47390/B1342142022N4

Инсон капитали корхона учун муҳим ва айни пайтда қиммат ресурсдир. Шунинг учун иш берувчи нафақат корхонанинг инсон капиталини шакллантиришга, балки уни тўплаш, ҳимоя қилиш ва юқори даражада сақлашга интилади, яъни уни доимий равишда такрор ишлаб чиқаришдан манфаатдордир. Кўпгина мамлакатлар қатори бизнинг республикамиизда ҳам бу борада бир қатор ишлар амалга оширилмоқда. Мухтарам Президентимиз Ш.М.Мирзиёев таъкидлаганлариdek, “Бу ишлардан асосий мақсад мамлакатимизда инсон капиталини ривожлантириш. Хом ашё ва уни қайта ишлаш билан узоқча бориб бўлмайди. Қолаверса ишлаб чиқаришда қўшимча қиймат олиш учун ҳам инновациялар керак. Шу боис илм-фан тараққиётимизнинг муҳим йўналиши, таянчи бўлади”[1]. Бу муаммони репродуктив функцияни бажарадиган ижтимоий суғурта орқали ҳал қилиш мумкин. Инсон капиталининг такрор ишлаб чиқарилиши деганда шахснинг муҳим ижтимоий-иқтисодий фазилатлар ва қобилиятларнинг ташувчиси сифатидаги такрор ишлаб чиқарилиши тушунилиши мумкин. Корхонанинг инсон капитали ходимнинг ҳаёти ва соғлиги билан боғлиқ хавф-хатарларга, яъни ижтимоий рискларга дучор бўлади. Ижтимоий суғурта муносабатлари - бу иш берувчилар ва ишчиларни ижтимоий хавфлардан ҳимоя қилиш соҳасидаги меҳнат муносабатларининг давоми ва ривожланишидир. Шу сабабдан инсонларни турли хавфлардан ҳимоялашда суғурта тизимига мурожаат қилинади.

Ҳар бир мамлакатда фуқароларнинг ижтимоий суғуртаси ўзининг шаклланиши ва ривожланишининг тарихий йўлидан ўтди, аммо уларнинг ривожланиши учун қўйилган вазифаларнинг барча ўхшашлиги билан уларни ҳал қилиш усуслари ва ёндашувлари сезиларли даражада фарқ қиласиди. Ижтимоий суғурта давлат ижтимоий сиёсатининг асосий қисмидир. Мамлакатда ривожланган ижтимоий суғурта тизими фуқароларга самарали ҳимоя механизmlарини тақдим этади ва шу билан биргаликда иқтисодий барқарорликни таъминлайди ва жамиятда ижтимоий бирдамлик муҳитини яратади. Бугунги кунда бир-биридан тузилиши билан ҳам, молиялаштиришнинг

турли усуллари билан ҳам фарқ қилувчи турли хил ижтимоий суғурта тизимлари мавжуд [2]. Ҳозирги кунда дунёниг бир қатор мамлакатларида анъанавий суғурта хизматлари билан бирга исломий суғурта муносабатларини ривожлантиришга ҳам алоҳида эътибор қаратилмоқда.

Ислом суғуртаси тақафул, вақф, ўзаро ёрдам жамғармалари ва ўзаро суғурта каби шаклларда амалга оширилиши мумкин. Исломий суғурта шаклларидан бири бўлган “тақафул” арабча сўздан олинган бўлиб, “ўзаро кафолатлаш” маъносини билдиради. Тақафул Ўзбекистон қонунчилигига кўзда тутилган, фуқаро ва ташкилотлар томонидан муайян пул маблағларини бирлаштириш йўли билан, амалга оширилиши мумкин бўлган икки томонлама суғуртага мос келади. Ушбу суғурта тури айrim мамлакатларда вақф кўринишида ҳам қўлланиб келинмоқда. Бундан, молиявий маҳсулот ёки тизимнинг нафақат номига, балки унинг шакли ва тамойилларига ҳам эътибор қаратиш муҳимлигини англашимиз мумкин.

Шу ўринда тақафул ва анъанавий суғурта ўртасидаги фарқларнинг айримларига тўхталиб ўтсак.

Ислом хуқуқшуносларининг аксарияти шариатга тўғри келмаганлиги сабабли анъанавий суғурта шартномасини ислом динида қабул қилиниши мумкин эмас, деган холосага келишган. Бунда анъанавий суғурта билан боғлиқ қўйидаги сабаблар асос қилиб келтирилган:

- у ал-ғарор (ноаниқлик) элементини ўз ичига олади;
- у фоиз назарияси ва амалиётига асосланади; анъанавий ҳаёт суғуртаси сиёсати фоизга асосланади, исломий модел эса шерикчиликка асосланади, бунда иштирокчилар томонидан бадалларнинг бир қисми эҳсон сифатида қабул қилинади. Шу сабабли, тақафулдаги сиёсат эгалари одатда иштирокчилар деб аталади;
- бу қимор ўйинларининг бир тури сифатида қаралади.

Аввало, исломий суғурта, ислом шариатига мувофиқ, васийлик ва ҳамкорлик тамойилларига асосланган ижтимоий ҳамжиҳатлик (тақафул) шаклидир.

1. Анъанавий суғуртада суғурталанган шахс ноаниқликни ўрнини босади. Олдиндан белгиланган тўлов, мукофот эвазига у суғурталовчига белгиланган рисклардан юзага келиши мумкин бўлган иқтисодий йўқотишлиарни ўрнини босади. Ислом суғуртасида иштирокчилар барча рискларни ўзаро бўлишади ва ҳеч қандай таваккалчилик ўтказилмайди.

2. Анъанавий суғурта компаниялари фойда олиш истагидан келиб чиқади, ислом суғурта компаниялари эса нотижорат ҳисобланади, актсиядорлар ўз хизматлари учун ҳақ олиш ва бизнесдаги улуш олиш хуқуқига эга бўлсалар ҳам,

бизнес фойдасига улуш олиш ҳуқуқига эга эмаслар. улар томонидан бошқариладиган маблағларнинг инвеститсион даромадлари

3. Анъанавий сұғурта компаниясидаги сұғурта әгалари ислом компанияларида бўлганларида компания директорлари сайловида овоз бериш ёки компаниянинг йиллик ҳисобларини кўриш ҳуқуқига эга эмаслар; ушбу имкониятлардан маълум миқдорда бадаллар тўлайдиган барча иштирокчилар фойдаланишлари мумкин.

4. Такафул тизимида, агар сұғурта полиси муддатидан олдин сұғурталанган шахс вафот этса, бенефициар сұғурта мукофотларининг тўлиқ миқдори, бонус ва дивидендлар ҳамда тўланган бадаллар бўйича олинган фойданинг бир улушини, шунингдек компанияяга шерикчилик асосида қўшилган иштирокчилар хайр-эҳсонини олиш ҳуқуқига эга. Бундай битим жамиятдаги nochorларнинг фаровонлигига ўзаро ҳисса сифатида қаралади. Агар сұғурта қилдирувчи сұғурта полиси муддати тугагунга қадар тирик бўлса, у сұғурта мукофотларининг тўлиқ миқдорини, сұғурта мукофотлари бўйича олинган фойданинг улушини, компания сиёсатига мувофиқ мукофот ва дивидендларни олиш ҳуқуқига эга.

5. Анъанавий ҳаётни сұғурталаш полисида агентнинг тўловлари сұғурта қилдирувчининг тўланган бадалларидан тўланади, ислом моделида эса агентлар компания учун ишлайди ва шу тариқа компания томонидан тўланади.

6. Анъанавий тизимдаги сұғурта улуси, одатда, сұғурталанган шахсга тўланади, агар у сұғурта полисининг амал қилиш муддати тугаганда тирик бўлса. Агар у ушбу санадан олдин вафот этса, сұғурта фоизлари фойда олувчиликарга тўланади, улар орасида оила, хизматчилар, компания, ишончли вакил, шериклар, гаровга қўювчи ва бошқалар киради. Лекин ислом моделига кўра, сұғурта фоизлари васият тамойилига кўра сұғурталанган шахснинг меросхўрларига тўланади [4].

Такафул тўғри амалга оширилиши учун маҳсус сұғурта жамғармаси тузилади. Жамғарма аъзолари олдиндан эълон қилинган тартиб-қоидага кўра сұғурта учун бадалларни эҳсон сифатида жамғармага киритишади, жамғарма эса ўз мулкига айланган ушбу маблағлар ҳисобидан аъзоларининг келишилган зарарларини қоплаб туради. Йил якунида сұғуртадан ортган маблағларнинг бир қисми жамият низомидаги тартиб-қоидалар асосида кейинги йиллар захирасига олиб қўйилиши ёки аъзолар ўртасида тақсимланиши, вақф шаклида тузилган жамғарманинг қолдигидан эса муҳтоҷларга моддий ёрдам ҳам кўрсатилиши мумкин.

Такафул ёки ислом сұғуртаси ўзаро ёрдам ва ихтиёрий бадаллар тамойилларига асосланган бўлиб, гуруҳ аъзолари ўртасида рискларни жамоавий

ва ихтиёрий тақсимлашни таъминловчи тизимдир. Такафул - ислом ҳуқуқи тамойилларига жавоб берадиган сұғурта тури ҳисобланади [5].

Ислом сұғуртасида ҳам анъанавий сұғуртада бўлгани каби сұғуртанинг иккита тармоғи мавжуд: оиласи тақафул ва умуми тақафул. Такафул операциялари анъанавий сұғуртанинг барча соҳаларида амалга оширилиши мумкин.

Дастлаб, тақафул тизими мүқобил сұғурта тизими сифатида ривожланган. Аммо вақт ўтиши билан бу тизимда шариат тамойилларининг мавжудлиги мусулмон бўлмаган аҳолининг ҳам тақафул операторлари хизматларидан фойдаланишига ҳеч қандай тўсқинлик қиласлигини кўрсатди. Ҳозирда исломий сұғурта амал қиласлиган барча мамлакатларда “Тақафул” ташкилотларининг мижозлари ҳам мусулмонлар, ҳам бошқа дин вакиллари. Масалан, ислом сұғурта бозори дунёда энг ривожланган Малайзияда “Тақафул” ташкилотлари мижозларининг аксарияти мусулмон бўлмаганлардир. Шунингдек, исломий сұғурта маҳсулотлари Европада, хусусан, Буюк Британияда жуда машҳур. Бугунги кунда Европа ва Марказий Осиё мамлакатлари ислом молияси соҳасидаги мутахассислар томонидан ислом сұғурта тизимини ривожлантириш нұқтаи назаридан энг истиқболли мамлакатлар сифатида баҳоланмоқда.

Ҳозирда кўпгина мамлакатларда давлат, аҳоли ва молия сектори эксперлари томонидан ислом молиясига қизиқиш фаол ўсиб бораётганини кузатиш мумкин. Мазкур мамлакатларда мутахассислар томонидан тақафул тизимини жорий этиш имкониятлари ўрганилмоқда [3]. Бу борада дуч келинаётган энг долзарб муаммолар сифатида қўйидагилар кўрилмоқда:

- 1) ислом сұғуртаси фаолиятининг ҳуқуқий асослари;
- 2) тақафул фондини бошқариш моделини танлаш;
- 3) ислом инвестиция воситаларининг етишмаслиги;
- 4) корпоратив бошқарув.

Ислом сұғуртаси маълум нұқталарда анъанавий сұғуртадан сезиларли даражада фарқ қилиши сабабли, тақафул тизими фаолияти учун қўйидаги қонунчилик асосларини кўриб чиқиши зарур:

- 1) тақафул операторларини ва тақафул бозорининг бошқа профессионал иштирокчиларини лицензиялаш (рўйхатдан ўтказиш) шартларини белгилаш;
- 2) тақафул операторларининг сұғурта тўловларини кафолатлаш жамғармасини ташкил этиш;
- 3) тақафул саноати институционал инфратузилмасини шакллантириш: тақафул брокерлари институтини жорий этиш;

- 4) қайта суғурталаш фаолиятига қўйиладиган талабларни аниқлаш (қайта тақафул);
- 5) қайта суғурталовчилар томонидан ўз ушлаб қолиши миқдорини аниқлаш;
- 6) шариат маслаҳат кенгашини тузиш;
- 7) корпоратив бошқарув тамойилларини ва рискларни бошқариш тизимиға қўйиладиган талабларни белгилаш;
- 8) халқаро ислом молия бозорлари билан ҳамкорлик: Ислом молиявий хизматлар кенгаши, Ислом молия институтлари учун бухгалтерия ва аудит ташкилоти (ААОИФИ) ва бошқалар;
- 9) тақафул операциялари учун қулай солиқ шароитларини яратиш.

Ислом суғурта ташкилотининг фойдаси тақафул фондининг танланган бошқарув модели туридан келиб чиқкан ҳолда шакллантирилади. Бугунги кундаги ТАқафул тизимиғининг энг оммабоп моделлари қўйидагилар: 1) Вакала - бу вакиллик модели бўлиб, араб мамлакатларида машҳур модел ҳисобланади; 2) Мудараба – бу фойдани тақсимлаш модели бўлиб, Малайзияда кенг қўлланилади (шунингдек, иккала моделнинг ўзгартирилган шакллари); 3) Вакала-Мудараба модели – яъни иккала моделнинг комбинацияси; 4) Вақф модели – бу модел қўпроқ Покистонда қўлланилади. Мазкур моделларнинг ўзига хос хусусиятларини ўрганган ҳолда амалиётда қўллаш бўйича тавсиялар бериш мумкин.

Ислом молия тизимидағи корпоратив бошқарув ҳам асосан анъанавий молия тизимидағи қоидалар билан бошқарилади. Фақат ислом ҳуқуқи тамойилларига риоя қилишни тартибга солувчи нормалардан келиб чиқкан ҳолда фарқланади. Бу борадаги асосий қоида ислом молия институтида ислом молияси тамойилларига риоя этилиши учун масъул бўлган маҳсус орган – Шариат Кузатув кенгашининг мавжудлиги ҳисобланади. Ислом суғурта ташкилотида бундай кенгашни тузиш зарурати инкор этилмайди ва қонун даражасида албатта тузилиши керак. Бундан ташқари, кенгаш аъзоларини танлаш мезонлари халқаро стандартларга мувофиқ белгиланиши керак.

Хулоса қилиб айтганда, инсон капиталини ривожлантиришда уни турли хатарлардан ҳимоя қилишга эҳтиёж сезилади. Бу эҳтиёжни қондиришда анъанавий суғурта хизматлари билан бир қаторда исломий суғурта хизматларидан ҳам фойдаланиш замон талабига айланиб бормоқда. Шуни ҳам таъкидлаш керакки, кўпгина мамлакатларда ислом суғурта шаклларини амалиётга жорий этишдаги муаммолар суғурта соҳаси фаолиятини тартибга солувчи қонун ҳужжатларида тегишли норманинг йўқлиги билан бир қаторда, тегишли кадрларнинг этишмаслиги ва уларни республика ҳудудида тайёрлаш имкониятида ҳам кўзга ташланмоқда.

Адабиётлар рўйхати / Список литературы / References

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг илм-фан ва олий таълим соҳасини ривожлантириш бўйича белгиланган вазифалар ижросига багишланган йиғилиши.
(<https://www.gazeta.uz/oz/2019/05/29/inson-kapitali/>)
2. Маҳкамова Ш., Маманов А. Ижтимоий сұғурта моделлари: жаҳон тажрибаси ва Ўзбекистон амалиёти. «Экономическое обозрение» журнали. №2 (254) 2021.
3. Махметова А.С., Мекемтас К.М. Некоторые аспекты внедрения исламского страхования (такафул) в Республике Казахстан.
<https://cyberleninka.ru/article/n/nekotorye-aspekty-vnedreniya-islamskogo-strahovaniya-takaful-v-respublike-kazakhstan>
4. Islamic Insurance (Takaful). (<https://www.islamic-banking.com/explore/islamic-finance/islamic-insurance-takaful#Top>)
5. <https://dic.academic.ru/dic.nsf/ruwiki/1337490>.

Филология фанлари

ЖОНДОР ТУМАНИ ТОПОНИМЛАРИ СЕМАНТИКАСИ

Ахматова Интизора Хасан қизи

Навоий давлат педагогика институти таянч докторанти

СЕМАНТИКА ТОПОНИМОВ ЖОНДОРСКОГО РАЙОНА

Ахматова Интизора Хасан қизи

Базовый докторант Наваинского государственного педагогического института

SEMANTICS OF TOPONYMS OF JONDOR DISTRICT

Akhmatova Intizora Khasan qizi

Basic doctoral student of Navoi State Pedagogical Institute

Иқтисиос келтириши учун / For citation / Для цитирования:

Ахматова И.Х. Жондор тумани топонимлари семантикаси // Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари. – 2022. – № 1 (4). – Б. 46–51. <https://doi.org/10.47390/B1342142022N5>

Аннотация. Мақолада топонимлар халқнинг миллий-маънавий бойлиги эканлиги, Жондор тумани жой номларининг лексик, эътимологик хусусиятларини мисоллар асосида ёритиши мақсад қилинган. Топонимларнинг шаклланишида ҳар бир халқнинг миллий анъаналари, дунёқараши, касб-корининг намоён бўлиши баён этилади. Топонимларнинг номланини тарихи, келиб чиқиши, маъно нозикликларининг моҳияти ҳақида фикр юритилади.

Калим сўзлар: Ономастика, Топонимика, Топоним, Этноним, Эътимология, Халқ урф одати, Миллий бойлиги.

Аннотация. Статья призвана осветить лексические, этимологические особенности топонимов Жондорского района на примере того, что топонимы являются национальным и духовным достоянием народа. Формирование топонимов описывает национальные традиции, мировоззрение, профессию каждого народа. Рассмотрены история наименования топонимов, их происхождение, сущность тонкостей значения.

Ключевые слова: ономастика, топонимия, топонимия, этноним, этимология, народная традиция, национальное богатство.

Abstract. The article aims to highlight the lexical, etymological features of place names of Jondor district, based on examples, that toponyms are a national and spiritual wealth of the people. The formation of toponyms describes the manifestation of national traditions, worldview, profession of each nation. The history of naming of toponyms, their origin, the essence of the subtleties of meaning are considered.

Key words: Onomastics, Toponymy, Toponymy, Ethnonym, Etymology, Folk Tradition, National Wealth.

DOI: 10.47390/B1342142022N5

Топонимларни ўрганиш барча замонларда долзарблик касб этган. У инсон ижтимоий фаолияти ҳақида маълумот берувчи муҳим омиллардан биридир. Бу соҳанинг тадқиқига оид изланишлар илдизи анча қадимийдир. Сўнгги йилларда топонимиканинг назарий ва амалий асослари ишлаб чиқилди. Бу соҳанинг ривожида рус олимларидан В.А.Никонов, А.В.Суперанская, А.П.Дульзон, Э.М.Мурзаев, В.Н.Топоров, О.Н.Трубачев, ўзбек номшуносларидан Ҳ.Ҳасанов, Э.Бегматов, Т.Нафасов, С.Қораев, З.Дўсимов ва бошқаларнинг хизматлари катта бўлди. Ўзбекистон топонимияси XX асрнинг 60-йилларидан илмий асосда ўрганила бошланди. Дастлаб, Қашқадарё, Хоразм, Тошкент, Сурхондарё, Самарқанд, Марғилон, Кўқон, Бухоро, Бойсун, Мирзачўл, Шахрисабз худудларидаги жой номлари тадқиқ этилди. Ушбу изланишлар самараси уларок, топонимикага оид бир неча луғатлар, рисола ва монографиялар нашр этилди. Натижада, бугунги кунда жаҳон тилшунослигида бўлгани каби Ўзбекистондаги топонимлар ҳақидаги маълумотлар кўпгина манба сифатида шаклланди.

Топонимика сўзи юонча сўздан олинган бўлиб, *topos* – жой ва опума – исм, ном деган маъноларни ифодалайди. Бу бўлим тилшунослик фанининг Ономастика соҳасининг жой номлари ва тил бирлиги сифатидаги тузилиши, уларнинг номланиш сабаблари, тараққий топиши ва ривожланиши жараёнида тилнинг грамматик хусусиятларини, улардаги тил ҳодисаларининг тузилишини ўрганувчи бўлимидир. Топонимлар муайян бир худуддаги жой номлари мажмуини ифодалаганда топонимия, алоҳида олинган жой номини билдирганда эса топоним деб юритилади.

Топонимлар ҳам бошқа тил бирлигидаги лексемалар сингари тил луғат тизимининг бирлигидир. Шуниси аҳамиятлики, топонимлар тил тизимидағи барча лексемалардан ўзининг луғавий маъносидан ташқари, унинг табиатидаги ички хусусиятлари, жумладан, жамиятдаги маълум бир даврнинг маънавий ҳолати, иқтисодий турмушидан маълумот берши билан ажралиб туради. Бундан ташқари, жой номлари тил тизимининг қадимий шаклларининг фонетик, лексик ва морфологик элементларини ўзида мужассамлаштиради.

Масалан: Бухоро вилоятининг Жондор туманидаги Кўлён қишлоғининг эътимологияси, унинг қўлнинг ёнида жойлашганлигини баён этмоқда. Гарчи ҳозирда бу қишлоқнинг атрофида биронта қишлоқ бўлмасада. Бундан маълум бўладики, топонимлар жой номи бўлиб келиши билан бирга, ўзи номлаган жойнинг табиий географик шароити, аҳолининг этник таркиби вужудга келишининг асосий манбалари ҳисобланади.

Топонимика тилшунослик фанида тил тарихи (тарихий лексикология, тарихий фонетика, тарихий морфология), диалектология, этимология учун катта аҳамият касб этади. Бу соҳага оид тадқиқот ишларини олиб боришда муҳим манба ҳисобланади. Тилимиздаги топонимик бирликларнинг кўпчилик қисмини ҳозирда архаизм ёки историзмга айланган жой номлари ташкил қиласди. Мисол тариқасида шулардан баъзиларини келтирамиз: Бухоро вилояти Жондор туманидаги Урганжиён топоними таркибидаги -и, (-иён) қўшимчалари ҳозирда жой номига қўшилиб, унинг қайси худуд вакили каби маънолари эскирган. Истемолдан чиқсан ҳисобланади. Аммо бу қўшимча орқали бир худудда яшаётган халқнинг қайси уруғ вакили эканлигини ва бошқа жойдан кўчиб келган аҳоли ваклларининг номи каби маълумотларни ўзида акс эттироқда. Шу худудда яшаётган Урганжилар номли уруғ вакилларининг номи ҳам юқоридаги тарифга мос келади. Аммо бундаги -и, қўшимчаси -лик қўшимчаси билан маънодошликтин ҳосил қилмоқда. Баъзи топонимлар таркибida учрайдиган -т, -от, -ат қўшимчаси анча тарихий қўшимчалар сирасига киради. Улар кўплик, жамлик маъноларини ифода этади. Ушбу морфемалар ҳозирда ҳам баъзи жой номлари таркибida учрайди. Масалан: Хоразм вилоятида: Бофот – боғлар, боғ – роғли жой, Қарши туманида: Кўлот – атрофида кўли кўп жой каби маъноларни ифодалаётган топонимлари шундай номлар жумласига киради.

Топонимларда маълум худуднинг ўсимликлар дунёси, ҳайвонот олами ҳам ўз аксини топади. Топонимик маълумотларга асосланган ҳолда шу атрофларда қадимда қандай ўсимликлар ўсганини, қандай ҳайвонлар яшаганлигини билиб олса бўлади. Юлғунзор, Ёнғоқлик, Шувоқзор, Себзор, Яккатут, Гулзор, сингари топонимларда шундай ҳолатни кузатиш мумкин.

Топонимлар аҳоли миграцияси (бир жойдан иккинчи жойга кўчиши) хусусида муҳим маълумотлар бера олади. Марказий Осиёда 10 дан ортиқ Самарқанд деб аталувчи қишлоқлар бор. Буларнинг ҳаммаси Самарқанд шаҳрига нисбат бериб қўйилган номлардир. Қўқон шаҳридаги Исфара гузар, Андижон вилояти Пахтаобод туманидаги Қўқонқишлоқ, Наманган вилояти Мингбулоқ туманидаги Қўқонтўпи, Самарқанд вилоятининг Самарқанд туманидаги Тошкентлик, Жиззах шаҳри ва унинг атрофларидағи Оққўргонлик, Ховослик, Ўратепалиқ, Равотлик, Сурхондарё вилояти Ангор туманидаги Фарғонагузар,

Кумкўрғон туманидаги Бандихонлик топонимлари аҳолининг кўчиши асосида пайдо бўлган номлардир. Бир объектдан иккинчи объектга бориб ўрнашиб қолган аҳолининг янги жойи уларнинг аввалги жойи номи билан атала бошлаган. Бир объект номи иккинчи объект учун ҳам ном бўлиб ўтган. Ўлкамизда Жалойир, Қурама, Қотағон, Манғит, Қангли, Кенагас, Найман, Дўрмон, Урганжи, Қўнғирот, Қиёт, Қовчин, Чимбой сингари қишлоқ номлари бир неча жойда учрайди. Булар ўзбек халқи таркибига кирган уруғ-қабилалар номлари билан аталган этнотопонимлардир. Бу хил жой номларига қараб шу номли аҳоли масканларида қадимда шундай қабила, уруғ вакиллари истиқомат қилган деб bemalol айтиш мумкин. Бундай ҳолат Жондор тумани микротопонимларида ҳам учрайди: Қазоқон, Қазоқон, Қўшработ, Жалоир, Арабхона, Қипчоқ, Умархўжа, Тороб, Манғит, Хўжалар, Араблар каби топонимларни кўплаб худудларда учратиш мумкин.

Шу билан бирга, юртимизнинг кўпгина вилоятларида учрайдиган оқ ва қора лексемалари билан боғлиқ Оқсув, Қорасув каби топонимларни учратиш мумкин. Қизиги шундаки, бундай оқ ва қора топоним шаклидаги қисмлар бугунги кунда ранг-тус ифодаловчи сўз маъносини йўқотган.

Профессор Т.Нафасов Оқработ деган қишлоқлар республикада анчалиги, работнинг араб истилосидан сўнг савдо йўлларида қурилган тевараги девор билан ўралган манзил, карвонсарой, ҳарбий истеҳком, шаҳардан ташқарида қурилган сарой эканлиги ҳамда Оқработ – катта работ, улкан истеҳком эканлигини қайд этган.[6; 198–199- б.]

Юқоридаги фикрларга таянган ҳолда айтиш мумкинки, Жондор туманидаги Оқработ топоними таркибидаги оқ лексемаси ҳам улкан, буюк каби маъноларни ифодаламоқда. Бунинг яна бошқа бир сабабига кўра, Жондор туманининг қадимда Буюк ипак йўли йўналишида жойлашганлиги ҳисобга олинса, фикримиз янада аниқроқ далилланади.

Вилоятнинг бошқа худудида учрайдиган Оқпўлат топоними таркибидаги оқ лексемаси ҳам ранг-тус ифодаловчи бирлик эмас. Аксинча пўлат уруғ номининг кўламини ифодаламоқда. Бунда ҳам катта худудда яшовчи уруғ маъносини ойдинлаштирумокда. Манбаларда туркий уруғ номлари орасида пўлатчи/пўладчи номи мавжудлиги, барлосларда ҳам пўлатбачча деган уруғ тармоғи борлиги, қорақалпоқларнинг кандакли уруғининг бир шоҳобчаси тоқпўлат деб аталиши, Қашқадарё вилоятида Пўлати ва Бухоро вилоятида Оқпўлат номли қишлоқлар борлиги ва этнонимдан қишлоқ номи келиб чиққанлиги келтирилган. [3; 212- б.]

Бу фикрлардан аниқлашадики, Жондор туманидаги Пўлоти топоними ҳам этнонимдан топонимга айланган.

Хозирги кунда оқ ва қора лексемалари тил бирлиги сифатида ўзаро зид маъноли сўздир. Аммо Жондор туманида учрайдиган баъзи топонимлар эътимологияси ўрганилаиш жараёнида маълум бўлишича, уларнинг маъноси ўзаро қарама-қарши аксинча маъно жиҳатидан анча яқинликни ифодалаганлигини кўришимиз мумкин.

Бундай таркибли топонимлар таркибидаги қора шакли бир қанча ўзига хосликларни намоён этади. Бу ҳақда сўз юритар экан, профессор Т.Нафасов ушбу сўзниң *туркӣ ва мӯғул тилларида қора/xара – баландлик..., текисликдаги кичик баландлик, дўнг жой, кичик тена* маъноларида қўлланишини таъкидлаган. [6; 198–199- б.]

Шу билан бирга яна бир тадқиқотчи А.Пардаев ўзининг номзодлик диссертациясида қора сифат лексемаси хусусида сўз юритиб, манбаларда бу сўз “катта”, “йирик”, “муҳташам”, “улуғ”, “қудратли”, “кучли”, “покиза”, “мусаффо”, “қуруқлик”, “ер”, “зулмат кўки”, “шимол” каби маъноларда қўлланиши борасида маълумотлар мавжудлигини кўрсатган.[7; 8 - б.]

Юқоридаги фикрларга таянган ҳолда айтиш мумкинки, Жондор туманидаги Оқработ, Работи қара топонимлари ранг-тус маъносини эмас, балки улуғ, буюк, қудратли, покиза каби маъноларни ифодалаган.

Туман топонимларини ўрганиш жараёнида маълум бўлдики, баъзи топонимлар замирида фасллар маъноси ойдинлашади. Масалан: бундай топонимлар сирасига Довча, Лола, Гулзор каби номларни келтириш мумкин. Бундай топонимларнинг номланишида халқимизнинг анимистик қарашлари етакчилик қилишини англашимиз мумкин. Яъни уларнинг табиат қўчига ишончи асосида ўзи яшаб турган жойнинг ҳар доим баҳор фаслидай куркли, хушманзара бўлиши орзузи яширганлиги номоён бўлади.

Шу билан бирга, тумандаги баъзи топонимлар замирида шу ерлик аҳолининг касб кори, машғулоти маънолари ойдинлашган. Бундай топонимлар сирасига Хумдонак, Шамширгарон каби топонимларни мисол қилиб келтириш мумкин.

Хулоса ўринда айтиш мумкинки, ҳар бир улка топоними замирида шу жойнинг маданияти, урф-одати акс этади. Ҳар қандай топонимда миллат тарихи ва қадрияти номоён бўлади.

Адабиётлар/Литература/References:

1. Бегматов Э., Улуқов Н. Ўзбек ономастикаси терминларининг изоҳли лугати. – Наманган, 2006. – Б.76-83.

2. Дўсимов З., Эгамов Х. Жой номларининг қисқача изоҳли луғати. –Т.: Ўқитувчи, 1977. – Б.48.
3. Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси. 7-жилд. – Т.: “Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси” Давлат нашриёти, 2004. – Б.212.
4. Рахматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати (туркий сўзлар). – Т.: Университет, 2000. – Б.31-32.
5. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 2 томлик. 1-том. – М.: Рус тили, 1981. – 631 б.
6. Нафасов Т. Қашқадарё қишлоқномаси. Қашқадарё вилояти қишлоқлари номининг тадқики. – Т.: Мухаррир, 2009. – Б. 379.
7. Пардаев А.Н. Ўзбек тилида сифатларнинг семантик-услубий хусусиятлари: Филол. фанл. номз. ... дисс. автореф. – Самарқанд, 2004. – Б.8.

Филология фанлари

ХОҲИШ – ИСТАК КАТЕГОРИЯСИННИГ ГРАММАТИК ВА ЛЕКСИК ВОСИТАЛАР ЁРДАМИДА ИФОДАЛАНИШИ

Ташметова Азиза Сагдуллаевна

Чирчиқ Олий танк қўмондонлик мухандислик билим юрти Тиллар кафедраси
катта ўқитувчиси

ВЫРАЖЕНИЕ КАТЕГОРИИ ЖЕЛАНИЯ С ПОМОЩЬЮ ГРАММАТИЧЕСКИХ И ЛЕКСИЧЕСКИХ СРЕДСТВ

Ташметова Азиза Сагдуллаевна

Старший преподаватель кафедры Языков Чирчикского ВТКИУ

EXPRESSION OF THE CATEGORY OF DESIRE USING GRAMMATICAL AND LEXICAL MEANS

Tashmetova Aziza Sagdullayevna

Chirchik Higher Tank Commanding Engineering School Senior teacher, Department
of Languages

Иқтибос келтириши учун / For citation / Для цитирования:

Ташметова А.С. Хоҳиш-истак категориясининг грамматик ва лексик воситалар ёрдамида ифодаланиши // Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари. – 2022. – № 1 (4). – Б. 52–57.
<https://doi.org/10.47390/B1342142022N6>

Аннотация. Уибӯ мақолада инглиз ва ўзбек тилларида хоҳииш - истак маъносини билдирувчи лексик бирликларнинг функционал-семантик майдонини таҳлил этишига харакат қилинди. Хозирги инглиз тилида хоҳииш категорияси тил тизимининг лексик, семантик ва морфологик қатламларида ўз ифодасини топшиш жараёнлари кенг ёритилди.

Калит сўзлар: грамматик ва лексик воситалар, потенциал-ирреал, синтактик қурилмалар, эргаиши гапли қўйшига гаплар, ундаши ҳодисаси, микромайдон, имплицит ва эксплицицит.

Аннотация. В данной статье предпринята попытка проанализировать функционально-семантическое поле лексических единиц, выраждающих значение желания в английском и узбекском

языках. В современном английском языке широко освещен процесс нахождения выражения категории желания в лексическом, семантическом и морфологическом слоях языковой системы.

Ключевые слова: грамматические и лексические средства, потенциально-нереальное, синтаксические устройства, деепричастные союзы, консонантное событие, микрополе, имплицитное и эксплициитное.

Abstract. This article attempts to analyze the functional-semantic field of lexical units expressing the meaning of desire in English and Uzbek. In modern English, the process of finding the expression of the category of desire in the lexical, semantic and morphological layers of the language system is widely covered.

Key words: grammatical and lexical means, potentially unreal, syntactic devices, adverbial conjunctions, consonantal event, microfield, implicit and explicit.

DOI: 10.47390/B1342142022N6

Хоҳиш- истак сўзловчи ёки гап субъектиning борлиқни амалга оширишга бўлган ҳиссий бўялган интилишидир.

Хоҳиш категориясида морфологик, синтактик, лексик ва талаффуз орқали ифода этиш воситалариниг мавжудлиги ва уларнинг ўзаро мустаҳкам алоқада бўлиши ушбу категорияни таҳлил этишнинг нақадар кўпқиррали эканлигини кўрсатади.

Хоҳиш инглиз тилида бир қатор грамматик ва лексик воситалар ёрдамида ифодаланади. Ушбу воситалар Е.В.Гулыга томонидан икки усул ёрдамида умумлаштирилади:

1) феъл шакллари талаффуз ва баъзида лексик-грамматик воситалар билан мужассамликда фаолият юритувчи синтактик структуралар; ушбу синтактик структураларни тўлдириб борувчи луғат таркиби хоҳиш категориясини конкретлаштиради;

2) турли хилдаги гапларда юзага чиқувчива гаплардаги ўрни ва морфологик шаклларига қараб янгиланувчи "want" доминанти билан биргаликдаги «хоҳламоқ» тематик қаторининг лексик бирликлари;[1,80 б.]

Феълларнинг синсемантик табиати хоҳиш обьектини конкретлаштирувчи лексика ёрдамида янада аниқлашади.

Хоҳиш категорияси К.Бюллер томонидан киритилган тилнинг уч функцияси билан чамбарчас боғлиқдир. [2,107 б.] Хоҳиш категориясининг ўзига хослиги бу уч функция (экспрессия, мурожаат ва маълум қилиш)нинг ҳамасини бажара олиш қобилиятида намоён бўлади. У ёки бу функцияning бошқаларига нисбатан устунлиги хоҳишни ифода этиш усулига боғлиқ. Агар ифода ва мурожаат функциялари устунлик қилса, сўзловчи синтактик қурилмалардан фойдаланади. Хоҳиш сўзловчидан чиқиб адресатга, бошқа шахсга (предметга)

ёки сўзловчининг ўзига қаратилади. Хоҳишни амалга оширувчи асосий синтактик устқурма бўлиб эргаш гапли қўшма гаплар хизмат қиласди.

1) *If you wanted to be exact, it was a decimal that went on and on forever without repeating the pattern of numbers (C.S).*

2) *If I were you, I would work hard in order to submit all the papers on time.*

Ушбу стандартлашган қурилмаларнинг доимий белгилари бўлиб қўйидагилар кўзга ташланади:

1) *if* боғловчиси;

2) замондаги оппозиция, яъни, эргаш гап бош гапга нисбатан ўтган замонда;

3) *would, should* ёрдамчи сўзлари агар эргаш гап ўтган замонда бўлса ва *will, shall* агар эргаш гап хозирги замонда бўлса.

Е.В.Гулига хоҳиш истакни қўйидаги гурухларга ажратади:

1) умумий характердаги хоҳиш, истак;

2) хозирги замонга қаратилган хоҳиш;

3) келаси замонга қаратилган хоҳиш;

4) ўтган замонга қаратилган хоҳиш.

Шу билан бирга, у потенциаллик (хоҳишнинг асосий хусусиятларидан бири) ва ўтган замон ўзаро боғлиқ эмас деб хисоблайди, шунинг учун ўтган замонга қаратилган хоҳишни бажариб бўлмайди дейди ва бундай хоҳишни ирреал хоҳиш деб номлайди. [1,186 б.]

Майлнинг морфологик шакллари потенциал-ирреал модалликни ифода этганлиги ва потенциал-ирреал хоҳишни амалга ошириш учун синтактик қурилмалар зарурлиги сабабли хоҳиш синтактик категория сифатида қаралади.

Юқорида келтирилган иккинчи гапнинг биринчи шахсда бўлган ҳолатида хоҳиш ўзидан чиқаётган сўзловчи ва гапнинг субъекти бир-бирига мос тушади. Эргаш гапли қўшма гапларда ифодалаш функцияси устунлик қиласди ва бу функция ҳис-хаяжонли интонация ёрдамида кучайтирилади. Маълум қилиш функцияси эргаш гапли қўшма гапларда яширин тарзда иштирок этади: одатда бу каби гапларда борлиқнинг ё содир бўлмаган (2-мисол), ё, балки энди содир бўладиган хусусияти хақида маълум қилинади. Баъзида ирреал-потенциал хоҳиш, истак нореал шарт-шароитга мос келади, бу эса ушбу маънолар бир-бирини тўлдиришидан далолат беради.

Хоҳиш маъносини ифода этувчи синтактик қурилмаларни ўрганишда хоҳиш билан узвий боғланган ундаш ҳодисаси эътибор марказида қолади. Бу икки мазмун (хоҳиш ва ундаш)нинг ўзаро боғлиқликни Е.В.Гулмга таҳлил этганида К.Бругманнинг баъзи фикрларини диққатга молик деб топади. Унга кўра «Тингловчи учун, албатта, хоҳиш ва ундаш ўртасидаги чегара қўп ҳолларда

фарқланмай қолади, кўзга ташланмайди». Бунга қўшимча сифатида Е.В.Гулыга «ҳар бир ундашда хоҳиш ва унга қўшимча равишида ундаш амалга оширилиши учун талаб ва илтимос қатнашади», деб хисоблайди. Хоҳиш мазмунини ифодаловчи гаплардаги ундашни ифода этиш жараёнида мажбурий равишида адресатга мурожаат этилиши факультативдир. [3,14 б.]

Морфологик шакл нафақат бу икки ўзаро боғланган мазмунни, балки ўзлаштирма нутқни ҳам фарқлаш қобилиятига эга эмас. Ўзлаштирма нутқни ажратиш учун ўз таркибиға феълни киритган контекст хизмат қиласи. Хоҳиш ва ундаш маъноларини фарқлашда ҳал қилувчи ўринни гапни тўлдирувчи лексик қисм хизмат қиласи. Ушбу қонуниятни Н.И.Филичева немис тилидаги истак майлини таҳлил қилиш жараёнида келтириб ўтганлигига қарамай, ушбу ҳодиса немис тили билан бир гурухга кирувчи инглиз тилида ҳам кузатилади.

Ундаш ва хоҳиш, истак маъноларининг бир-бирига яқинлиги ундашни ифода этишнинг умумий ва ўзига ҳос шакли бўлмиш императив хоҳиш, истакни билдириши учун имкон яратади. Бу ерда ҳам аниқлаштириш функциясини феъл-кесим ва от-эга ўйнайди. Таққослаб кўрайлик:

Be ready! Be awake! Be honest (ундаш)

Be healthy! Be happy! (хоҳиш, истак, тилак)

Бу икки қурилма бир хил қурилишга эга бўлиш билан бирга мурожаат этишнинг бир хил функциясига ҳам эга. Императив ва ўтган замоннинг ўзаро мослашмаслиги туфайли буйруқ шаклидаги хоҳиш, истак хозирги ва келаси замонларга қаратилган бўлади.

Хоҳиш ундаш сингари бир таркибли инфинитив гапларда амалга ошади. Бу икки қурилмадаги мазмунларнинг фарқланиши, биринчи навбатда интонация воситасида содир бўлади. Хоҳиш ва ундашни ифодаловчи қурилмаларнинг фаолият майдони ҳам турличадир.

Ундаш кўчма нутқда фойдаланилади, у буйруқ йўналтирилган адресатнинг аниқлаштирилмаганлиги учун категориал хусусиятга эга. Инфинитив гаплар воситасида ифода этиладиган хоҳиш маъноси шахссиз кўчма нутқ орқали ўй-хаёллари ифода этилувчи шахсдан келиб чиқади.

Қатъий буйруқ ва турли даражадаги хоҳиш маънолари ўзаро номутаносиб бўлиб чиқади ва ушбу ҳолда фойдаланилиш усуллари бўйича аниқ фарқланади. Бу икки тушунчанинг функцияси ҳам турличадир: ундашни ифода этишда мурожаат функцияси амалга оширилади, хоҳиш маъноси ифода этилганида - экспрессия (ифода қилиш) функцияси.

Тадқиқотимизнинг ушбу босқичида "хоҳиш" деб биз томондан номланган функционал-семантик майдонини таҳлил этишга харакат қилинди. Хозирги инглиз тилида хоҳиш категорияси тил тизимининг лексик, семантик ва

морфологик қатламларида ўз ифодасини топади. Хоҳиш, истак, интилишни ифодаловчи тил восталарини семантик реляцион майдон доирасида жойлаштириш мүмкін. Бунда доминанта принципини қўллаш мақсадга мувофиқдир. Майдоннинг доминантасини хисобга олиб майдоннинг периферияси ва унинг ичидаги икки микромайдонни ажратиш тўғри деб топилди. Ушбу икки микромайдон хоҳишни имплицит ва эксплицит тарзда ифодалайди.

Имплицит (яширин) микромайдон устқурмаларида хоҳишни ифодаловчи шакл шундай хусусиятга эгаки, хоҳиш ҳиссиёти гўёки ўзининг хусусияти сабаб бошқа мазмун ичига яширилган.

Майдон бирликлари учун ишлаб чиқилган таърифлардан келиб чиқкан ҳолда ҳар икки микромайдоннинг доминантлари ажратилади. Бу доминантлар:

- 1) хоҳиш маъносини ифодалашга ва уни нутқда белгилашга мослашган бўлади;
- 2) хоҳиш йўналтирилган предмет ва ҳодисани тўла ифодалайди;
- 3) тилда мунтазам ишлатилади.

Хоҳиш семаси эксплицит (очик) тарзда ифодаланган микромайдоннинг доминантаси бўлиб эргашган гаплар каби қурилмалар қатнашади. Бунда эргашган қисмида хоҳишнинг обьекти ифодаланса, бош қисмида хоҳиш ҳиссиётининг ўзи акс этади. Хоҳишнинг табиати ва ҳиссий бўялганлик даражаси феълнинг семантикаси билан белгиланади. Масалан,

// they wanted to communicate with us , they would make it easy for us (C.Sagan).

I, for example, have a want to understand what the meaning of this signal is... (CS)

Хоҳиш мазмуни фақатгина феъллар ва фақатгина эргаш гапли қурилмалар асосида эксплицит тарзда шакланади деб эътироф этиш нотўғри бўлар эди. Зоро, ушбу маъно феъллар қаторида отлар, сифатлар ва равишлар билан ҳам ифодаланиши мүмкін ва гаплар эргашган гаплардан бошқа турда ҳам кўп учрайди: *Many of us have wants Mr. Kitz. (CS)*

With deliberate composure, Ellie left the assembled group crowded around the consoles and returned to her office. (CS)

Хоҳишни акс этувчи имплицит микромайдонда хоҳиш ҳиссиёти ва баъзи ҳолларда унинг обьекти яширин тарзда ифодаланган бўлади ва мазмуни ўз аниқлигини атрофдаги вербал контекст хисобга олинганида топади. Микромайдон доминанти бўлиб "хоҳиш" маъносини яширин ҳолда, маъносининг фақатгина баъзи элементлари асосида ифодаловчи бирликлар ташкил этади.

/ don 't mean to toot my own horn, but I take a lot of credit for what you have done. (CS)

It's probably nothing? But we have a bogey here and wonder if you could just check it for us. (CS)

All he is asking is to talk about it with us first. (CS)

Хоҳиш маъносини имплицит тарзда ифодалашнинг синтактик усулларидан бири сифатида, бизнинг назаримизда, истак майли шакллари катнашади:

I'll let you if you promise to call me right after. (CS)

If we succeed, we'll have changed the history of our species (CS)

Инглиз тилидаги хоҳиш категориясини бир қатор грамматик ва лексик воситалар ёрдамида ифодаланишини таҳлил этиш жараёнида , инглиз тилидаги хоҳиш-истак категорияси морфологик, грамматик, синтактик, лексик ва талафуз орқали ифода этиш воситаларининг мавжудлиги ва уларнинг ўзаро мустаҳкам алоқада эканлиги аниқланди.

Адабиётлар/Литература/References:

1. Гулыга Е.В., Шендельс Е.И. Грамматико-лексические поля в современном немецком языке. - М., 1966.
2. Натаонзон Е.А. Косвенное наклонение и модальные глаголы в английском языке. - М.: Международные отношения, 1968.
3. Хлебникова И. Сослагательное наклонение в современном английском языке.- М.: Учпедгиз, 1958.
4. Berk LM. English syntax: from word to discourse. - New York: Oxford University Press, 1999.
5. G. Vallens. The pattern of English.- London: Andre Deutch Ltd., 1956
6. Гальперин И.Р. Англо-русский словарь. В 2-х томах. – М.,1972.
7. Macmillan English Dictionary for Advanced Learners. – London, 2008.
8. <http://www.ceafinney.com/subiunctive/experts.html>.

Педагогика фанлари

**FANLARARO BOG'LIKLAR ASOSIDA GEOGRAFIYA FANIDAN
O'QUVCHILARDA KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISH
METODIKASI (5-SINF "TABIIY GEOGRAFIYA BOSHLANG'ICH
KURSI"26-§ AMALIY MASHG'ULOT MISOLIDA)**

Xalilov Xurshidbek Baxtiyorovich

Farg'ona viloyati xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini
oshirish hududiy markazi o'qituvchisi

**МЕТОДИКА РАЗВИТИЯ У УЧАЩИХСЯ КОМПЕТЕНЦИЙ ПО
ГЕОГРАФИИ НА ОСНОВЕ МЕЖПРЕДМЕТНЫХ СВЯЗЕЙ (НА
ПРИМЕРЕ ПРАКТИЧЕСКОГО ЗАНЯТИЯ «НАЧАЛЬНОГО КУРСА
ЕСТЕСТВЕННОЙ ГЕОГРАФИИ» 5 КЛАСС, 26-§)**

Халилов Хуршидбек Баҳтиёрович

преподаватель Ферганского регионального центра переподготовки и
повышения квалификации работников народного образования

**METHODOLOGY FOR THE DEVELOPMENT OF STUDENTS'
COMPETENCIES IN GEOGRAPHY BASED ON INTERDISCIPLINARY
CONNECTIONS (ON THE EXAMPLE OF THE PRACTICAL LESSON
"ELEMENTARY COURSE IN NATURAL GEOGRAPHY" GRADE 5, 26-§)**

Khalilov Khurshidbek Bakhtiyorovich

Fergana Regional Center for Retraining and Advanced Training of Public Educators

Иқтибос келтириши учун / For citation / Для цитирования:

Xalilov X.B. Fanlararo bog'liklar asosida geografiya fanidan o'quvchilarda kompetensiyalarini shakllantirish metodikasi (5-sinf "Tabiiy geografiya boshlang'ich kursi"26-§ amaliy mashg'ulot misolida) // Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари. – 2022. – №1 (4). – Б.58–64.

<https://doi.org/10.47390/B1342142022N7>

Annotatsiya. Maqolada umumta'lim maktablarining 5-sinf "Tabiiy geografiya boshlang'ich kursi" darsligida keltirilgan 26-§ Amaliy mashg'ulotni bajarishda fanlararo aloqadan foydalanish orqali o'quvchilarda bilim, ko'nikma, malaka, hamda umumiyl va fanga oid kompetensiyalarni shakllantirish ko'rsatib o'tilgan.

Kalit so'zlar: Amaliy mashg'ulot, Troposfera, havo harorati, havoning mutlaq va nisbiy namligi.

Аннотация. В данной статье на примере выполнения практического занятия («Начальный курс естественной географии» 5 класс, § 26) рассматривается формирование у учащихся знаний, умений, навыков, а также общих и предметных компетенций.

Ключевые слова: практическое занятие, Тропосфера, температура воздуха, абсолютная и относительная влажность воздуха.

Abstract. In this article, using the example of the implementation of a practical lesson ("Basic course in natural geography" grade 5, § 26), the formation of students' knowledge, abilities, skills, as well as general and subject competences is considered.

Key words: practical lesson, Troposphere, air temperature, absolute and relative air humidity.

DOI: 10.47390/B1342142022N7

Umumiy o'rta va o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi muassasalari o'quvchilarida geografik bilim va madaniyatni rivojlantirish o'quv fanlarini, shu jumladan, geografiyan biologiya, kimyo, fizika, matematika bilan bog'lab o'qitishni talab qiladi. Olamning geografik manzarasini to'liq tushunish, uni izohlash, baholash va bashoratlash uchun unga turli jihatlardan qarash va va buning uchun esa turli fanlardan olingan bilimlar zarur bo'ladi [1; B.99 – 100].

Olima B.S.Abdullayeva fikricha "o'quv fanlariaro aloqadorlikni ta'minlash o'quvchilarining bilimlarini tizimlashtirishga, ularning mustaqil fikrlash ko'nikma va malakalarini rivojlantirishga, ta'limning quyi bosqichlarida egallagan bilimlarini chuqurlashtirishga yordam beradi." [2; B.30-31].

Tadqiqotchi N.J.Isaqulova esa ta'lim jarayonida fanlar aloqadorligining ahamiyatini quyidagicha izohlaydi: ta'lim jarayonini tashkil etishda optimal yo'l; dars mavzusiga turli fanlar yondashadi; darsning qiziqarli tomoni kuchayadi; bir mashg'ul davomida o'zlashtirilgan axborotlarning ko'lami kengayadi; turli fanlar yuzasidan xulosa chiqarish imkon shakllanadi; mustaqil fikrlashni amalga oshiradi [3; B.20-21].

Fanlararo aloqadorliklar, uning mazmun-mohiyati, ta'lim jarayoni samaradorligini oshirishdagi ahamiyati haqida turli davrlarda N.A.Loshkareva, P.G.Kulagin, V.N.Maksimova, V.N.Fedorova, E.Mambetakunov, B.S.Abdullayeva,

A.A.Salomov, A.Ch.Choriyev, S.T.Aliqulov, X.B.Norbo‘tayev. M.U.Barotov, M.Q.Muxliboyev, N.J.Isaqulovalar tomonidan tadqiqot ishlari olib borilgan.

P.Gulyamov, R.Qurban niyozov, M.Avezov, N.Saidovalar hammuallifligida 2020-yilda chop etilgan 5-sinf “Tabiiy geografiya boshlang‘ich kursi” darsligining 88-sahifasida 26-§ Amaliy mashg‘ulotning 3-variantida quyidagi jadval keltirilgan va jadvaldagi bo‘sh kataklarni to‘ldirish vazifasi topshirilgan [4; B.89-90].

Havoning harorati (°C)	Mutlaq namligi (g/m ³)	Nisbiy namligi (%)
0°	3	
+ 10°		67
+ 20°	10	
+ 30°		50

Troposferada doimo suv bug‘i bo‘ladi. Suv bug‘i havoga okean va dengizlardan, quruqlikdagi suvlardan, tuproq va o‘simliklar tarkibidagi suvning bug‘lanishidan ko‘tariladi. Suv bug‘i ko‘zga ko‘rinmaydi. Havodan yengil bo‘ladi.

Havo o‘zida turli miqdordagi suv bug‘larini tutib turishi mumkin. Havoning qancha suv bug‘ini tutib turishi havo haroratiga bog‘liq. Agar havo harorati 0°C bo‘lsa, 1 m³ havo o‘zida 5 g, + 10°C bo‘lsa, 9 g, + 20°C da 17 g va + 30°C bo‘lsa, 30 g suv bug‘ini tutib tura oladi. Demak, havo qanchalik sovuq bo‘lsa, shuncha kam va qanchalik issiq bo‘lsa, shuncha ko‘p suv bug‘ini ushlab tura oladi. [5; B.65-66].

1 m³ havoda mavjud bo‘lgan va gramm hisobida o‘lchanadigan suv bug‘lari miqdori mutlaq namlik deyiladi. Agar havo o‘zida mavjud bo‘lgan suv bug‘idan ortiqcha namni sig‘dira olmasa, u namga to‘yingan havo deyiladi.

Ushbu topshiriqlarni bajarishda geografiya va matematika fanlarining o‘zaro bog‘likligidan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Geografiya darslarida tegishli miqdoriy ko‘rsatkichlarni olishning samarali usulidan biri – bu geografik mazmundagi masalalarini tuzish va yechishdir.

O‘quvchilarda geografik bilim, ko‘nikma va kompetensiyalarni rivojlantirish jarayonida matematik ifodalardan foydalanish o‘quvchilarning ilmiy dunyoqarashlarini kengaytiradi, raqamlarni taqqoslash, solishtirishga o‘rgatadi, raqamlar ustida ishslashni xush ko‘rvuchi o‘quvchilar faolligini yuqori darajada ta’minlaydi.

1. Yuqorida ko‘rsatilgan jadvalni birinchi qatorini to‘ldiramiz: topshiriqdan ma’lum bo‘ladiki 0°C haroratda 1 m³ havoda mutlaq namlik 3 g ga teng bo‘lsa, havoning nisbiy namligi (%) ni topishimiz kerak.

Topshiriqni bajaramiz. Bunday topshiriqlarni bajarishda o‘qituvchi fanlararo aloqa masalalaridan foydalana olish ko‘nikmalariga ega bo‘lishi kerak. Masalan, ushbu

topshiriqni bajarishda geografiyani matematika fani bilan bog'lab olib borish maqsadga muvofiqdir.

Topshiriqni bajarish uchun proporsiya tuzamiz:

$$5 \text{ g} - 100 \%$$

$$3 \text{ g} - x$$

Proporsiyani qarama-qarshi hadlari ko'paytmasi bir-biriga teng.

$$5 \text{ g} \cdot x = 100 \% \cdot 3 \text{ g}$$

Tenglikni har ikki tomonini bir xil qiymatga ko'paytirilsa yoki bo'linsa natija o'zgarmaydi. Ya'ni, bizni topshirig'imizda tenglikni har ikki tomonini grammga bo'lib yuboramiz.

$$5 \cdot x = 100 \% \cdot 3; \quad 5x = 300 \% ; \quad x = 60 \% .$$

Jadvalagi birinchi qatordagi bo'sh katakka 60 % ni yozamiz.

2. Yuqorida ko'rsatilgan jadvalni ikkinchi qatorini to'ldirishimiz kerak: topshiriqdan ma'lum bo'ladiki $+10^{\circ}\text{C}$ haroratda 1 m^3 havoda nisbiy namlik 67 % ga teng bo'lsa, havoning mutlaq namligi (g/m^3) ni topishimiz kerak.

Topshiriqni bajarish uchun proporsiya tuzamiz:

$$9 \text{ g} - 100 \%$$

$$x - 67 \%$$

Proporsiyani qarama-qarshi hadlari ko'paytmasi bir-biriga teng.

$$100 \% \cdot x = 9 \text{ g} \cdot 67 \%$$

Tenglikni har ikki tomonini bir xil qiymatga ko'paytirilsa yoki bo'linsa natija o'zgarmaydi. Ya'ni, bizni topshirig'imizda tenglikni har ikki tomonini % (foiz)ga bo'lib yuboramiz.

$$100 \cdot x = 9 \text{ g} \cdot 67; \quad 100x = 603 \text{ g}; \quad x = 6,03 \text{ g}.$$

Jadvalagi ikkinchi qatordagi bo'sh katakka 6,03 g ni yozamiz.

3. Yuqorida ko'rsatilgan jadvalni uchinchi qatorini to'ldirishimiz kerak: topshiriqdan ma'lum bo'ladiki $+20^{\circ}\text{C}$ haroratda 1 m^3 havoda mutlaq namlik 10 g ga teng bo'lsa, havoning nisbiy namligi (%) ni topamiz.

Topshiriqni bajarish uchun proporsiya tuzamiz:

$$17 \text{ g} - 100 \%$$

$$10 \text{ g} - x$$

Proporsiyani qarama-qarshi hadlari ko'paytmasi bir-biriga teng.

$$17 \text{ g} \cdot x = 100 \% \cdot 10 \text{ g}$$

Tenglikni har ikki tomonini bir xil qiymatga ko'paytirilsa yoki bo'linsa natija o'zgarmaydi. Ya'ni, bizni topshirig'imizda tenglikni har ikki tomonini grammga bo'lib yuboramiz.

$$17 \cdot x = 100 \% \cdot 10$$

$$17x = 1000 \%$$

$x = 58,8 \%$.

Jadvaldagи uchinchi qatordagi bo'sh katakka 58,8 % ni yozamiz.

4. Yuqorida ko'rsatilgan jadvalni to'rtinchi qatorini to'ldirishimiz kerak: topshiriqdan ma'lum bo'ladiki $+30^{\circ}\text{C}$ haroratda 1 m^3 havoda nisbiy namlik 50 % ga teng bo'lsa, havoning mutlaq namligi (g/m^3) ni topishimiz kerak.

Topshiriqni bajarish uchun proporsiya tuzamiz:

$30 \text{ g} - 100 \%$

$x - 50 \%$

Proporsiyani qarama-qarshi hadlari ko'paytmasi bir-biriga teng.

$$100 \% \cdot x = 30 \text{ g} \cdot 50 \%$$

Tenglikni har ikki tomonini bir xil qiymatga ko'paytirilsa yoki bo'linsa natija o'zgarmaydi. Ya'ni, bizni topshirig'imizda tenglikni har ikki tomonini % (foiz)ga bo'lib yuboramiz.

$$100 \cdot x = 30 \text{ g} \cdot 50; \quad 100 x = 1500 \text{ g}; \quad x = 15 \text{ g}.$$

Jadvaldagи to'rtinchi qatordagi bo'sh katakka 15 g ni yozamiz.

Amaliy ish yakunida berilgan jadval quyidagi holatga keladi:

Havoning harorati ($^{\circ}\text{C}$)	Mutlaq namligi (g/m^3)	Nisbiy namligi (%)
0°	3	60
$+ 10^{\circ}$	6,03	67
$+ 20^{\circ}$	10	58,8
$+ 30^{\circ}$	15	50

26-§ Amaliy mashg'ulotning 4-variantida quyidagi jadval keltirilgan va jadvaldagи bo'sh kataklarni to'ldirish vazifasi topshirilgan:

Joy nomi	Yillik yog'in miqdori	Yillik bug'lanish	Namlanish darajasi
Amudaryo etagi	150 mm	2000 mm	
Sirdaryo viloyati	250 mm	1800 mm	
Andijon viloyati	500 mm	1500 mm	
Piskom qishlog'i	900 mm	900 mm	

Namlanish darajasi deb yillik yog'in miqdorining yillik mumkin bo'lgan bug'lanish miqdoriga nisbatiga aytildi. Ya'ni yillik yog'in miqdorini yillik mumkin bo'lgan bug'lanish miqdoriga taqsimlab aniqlanadi.

Topshiriqni bajaramiz. Bunday topshiriqni bajarishda o'qituvchi fanlararo aloqa masalalaridan foydalana olish ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak. Masalan, ushbu topshiriqni bajarishda geografiya fanini matematika fani bilan bog'lab olib borishimiz

kerak. Topshiriqni bajarish uchun quyidagi formuladan foydalananamiz:

$$N_k = \frac{Yo}{B}; [6; B.89-90].$$

Bu yerda N_k – namlik koeffitsiyenti, Yo – yog‘in miqdori, B – bug‘lanuvchanlik.

1. Yuqorida ko‘rsatilgan jadvalni birinchi qatorini to‘ldirishimiz kerak: namlanish darajasini topamiz.

$$N_k = \frac{150 \text{ mm}}{2000 \text{ mm}}; N_k = 0,075$$

Jadvaldagagi birinchi qatordagi bo‘sh katakka 0,075 ni yozamiz.

2. Yuqorida ko‘rsatilgan jadvalni ikkinchi qatorini to‘ldirishimiz kerak: namlanish darajasini topamiz.

$$N_k = \frac{Yo}{B}; N_k = \frac{250 \text{ mm}}{1800 \text{ mm}}; N_k = 0,111111$$

Jadvaldagagi birinchi qatordagi bo‘sh katakka 0,111111 ni yozamiz.

3. Yuqorida ko‘rsatilgan jadvalni uchinchi qatorini to‘ldirishimiz kerak: namlanish darajasini topamiz.

$$N_k = \frac{Yo}{B}; N_k = \frac{500 \text{ mm}}{1500 \text{ mm}}; N_k = 0,33333$$

Jadvaldagagi uchinchi qatordagi bo‘sh katakka 0,33333 ni yozamiz.

4. Yuqorida ko‘rsatilgan jadvalni to‘rtinchi qatorini to‘ldirishimiz kerak: namlanish darajasini topamiz.

$$N_k = \frac{Yo}{B}; N_k = \frac{900 \text{ mm}}{900 \text{ mm}}; N_k = 1$$

Jadvaldagagi uchinchi qatordagi bo‘sh katakka 1 ni yozamiz.

Amaliy ish yakunida berilgan jadval quyidagi holatga keladi:

Joy nomi	Yillik yog‘in miqdori	Yillik bug‘lanish	Namlanish darjasasi
Amudaryo etagi	150 mm	2000 mm	0,075
Sirdaryo viloyati	250 mm	1800 mm	0,111111
Andijon viloyati	500 mm	1500 mm	0,33333
Piskom qishlog‘i	900 mm	900 mm	1

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, fan o‘qituvchisi o‘quvchilarda geografik bilim, ko‘nikma malaka va kompetensiyalarni rivojlantirishda ularning turli fanlardan olgan bilim hamda malakalariga tayanishi, har xil ma’lumotlardan foydalana olishga o‘rgatish orqali ularning fikrlash qobiliyatlarini rivojlanirishi zarur.

Geografik madaniyatni o‘quvchilarda fanlararo bog‘liklar asosida rivojlantirish darslarning jonli, qiziqarli o‘tishini ta’minlaydi. O‘quvchilarni fanlarni o‘rganishdagi

mas'uliyatini oshiradi. Fanlararo aloqadan foydalanilgan holda ayrim masalalarni bir-biriga bog'lab bayon etish o'quv dasturini o'rghanishni yengillashtiradi. O'quvchilarning turli fanlardan olgan bilimlarini bir butun tizimga keltiradi, ushbu bilimlardan real hayotiy jarayonlarda foydalanishga yordam beradi hamda o'rghanilayotgan fanlarga bo'lgan qiziqishini uyg'otadi.

References / Адабиётлар рўйхати / Список литературы:

1. Norboyev A.F. Uzluksiz geografiya ta'limining sifat va samaradorligini oshirish texnologiyasi. Monografiya. – Toshkent 2016. – 100 b.
2. Abdullayeva B.S. Fanlararo aloqadorlikning metodologik-didaktik asoslari (Ijtimoiy-gumanitar yo'nalishdagi akademik litseylarda matematika o'qitish misolida). / Ped.fan.dok...Diss. – Toshkent: TDPU, 2006. – B.31.
3. Isaqulova N.J. O'quvchilarda ekologik ta'lim-tarbiya berish nazariyasi va amaliyoti. Monografiya. – Toshkent: Fan, 2011. – B.21.
4. P.Gulyamov, R.Qurban niyozov, M.Avezov, N.Saidova. 5-sinf Geografiya (Tabiiy geografiya boshlang'ich kursi) darsligi. – T.: Mitti yulduz, 2020.- 89-90 b.
5. M.T.Mirakmalov, M.M.Avezov, E.Y.Nazaraliyeva. Tabiiy geografiyadan amaliy mashg'ulotlar. Toshkent – 2015
6. Q.Baxromov, G.Halimova. Geografiyadan mashq va masalalarni yechish usullari. – T.: Navro'z nashriyoti, 2017. -90 b.

Педагогика фанлари

ШАРҚ МИНИАТЮРА САНЪАТИНИНГ ЭСТЕТИК ТАРБИЯДАГИ ЎРНИ
Жумабоев Наби Пардабоевич

Гулистон давлат университети таянч докторанти

**РОЛЬ ВОСТОЧНОЙ МИНИАТЮРЫ В ЭСТЕТИЧЕСКОМ
ВОСПИТАНИИ**

Жумабоев Наби Пардабоевич

Базовый докторант Гулистансского государственного университета

THE ROLE OF EASTERN MINIATURE ART IN AESTHETIC EDUCATION

Jumaboev Nabi Pardaboevich

Base doctoral student of Gulistan State University

Иқтибос келтириши учун / For citation / Для цитирования:

Жумабоев Н.П. Шарқ миниатюра санъатининг эстетик тарбиядаги ўрни // Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари. – 2022 – № 1 (4). – Б. 65–71. <https://doi.org/10.47390/B1342142022N8>

Аннотация. мақолада аждододларимиз тарихи, миллий ва маданий мероси тўғрисида маълумотлар келтириб ўтилган. Буюк ипак йўлининг маданиятлараро уйғунлашуви ва тараққиётидаги роли, тасвирий ва амалий санъат турлари ривожи хусусияда сўз юритилган. Миниатюра санъати ҳамда унинг ўзига хос мактаблари ёритиб ўтилган.

Калим сўзлар: билим, маънавий қадрият, тасвирий ва амалий санъат, санъат намуналари, миниатюра санъати, маданият.

Аннотация. В статье представлены сведения об истории, национальном и культурном наследии наших предков. Обсуждались роль Великого шелкового пути в межкультурном согласии и развитии, развитии изобразительного и прикладного искусства. Освещены миниатюрное искусство и его уникальные школы.

Ключевые слова: знание, духовная ценность, изобразительное и прикладное искусство, образцы искусства, искусство миниатюры, культура.

Abstract. The article provides information about the history, national and cultural heritage of our ancestors. The role of the Great Silk Road in the intercultural harmony and development, the development of fine and applied arts were discussed. Miniature art and its unique schools are highlighted.

Keywords: knowledge, spiritual value, fine and applied arts, art samples, miniature art, culture.

DOI: 10.47390/B1342142022N8

Аждодларимиз тарихи биздан қанча узоқ бўлмасин ва уларнинг диний эътиқодлари ўзига хос бўлганлигидан қатъий назар биз билан уларни боғлаб турадиган нозик кўприклар бор. У ҳам бўлса, улар яратган ажойиб санъат намуналари, уларнинг маънавий қадриятлари, умумий дунёқарашларида инсоният тафакурининг узвий ривожланишига ўз таъсирини ўтказиб келган тушунчалари ва билимларидир. Шунинг учун ҳам замонавий тасвирий санъат ўқитувчиларни ҳар томонлама тарбиялашда, шакллантиришимизда бундай ўтмиш мерос намуналарига мурожат қилиб туришимиз, уларни таълим жараёнида нафақат ўтмиш намунаси сифатида, балки услубий мукаммал воситалар сифатида фойдаланишимиз мумкин.

Энг қадимги тасвирий санъатдан фарқли Марказий Осиё санъат мактабини Юнон санъати билан уйғунлашган намуналаридан қўриш мумкин. Бу санъат мактабини Искандар изи бўйлаб шаклланган тасвирий санъат мактаби деб аташга асослар бор. Маълумки, милоддан аввалги 329-327 йилларда Искандар қўшинлари Марказий Осиё ҳудудларини босиб олишган. Юнон тили, маданияти, санъати, дини тарғиб қилинган. Натижада юнонлаштириш вужудга келган [1:104]. Маҳаллий халқлар тасвирий ва амалий санъати билан юнонилар санъати ўртасида уйғунлашув бошланган, натижада юнон санъатига хос ҳайкалтарошлиқ, деворий расмлар, амалий санъат намуналари пайдо бўлган.

Тасвирий санъат тарихида халқларнинг алоқаларини боғлаб турган Буюк ипак йўлининг ҳам таъсири катта бўлган. Халқлар ўртасидаги савдо-сотик алоқалари, улардаги ҳар хил асбоб-ускуна, қимматбаҳо санъат намуналари орқали ўтиши натижасида тасвирий санъатнинг уйғунлашувига олиб келиши табиий бир ҳол эди. Буюк ипак йўли орқали халқлар ўртасидаги алоқа тасвирий санъатни нафақат уйғунлашувига таъсири бўлиб қолмасдан, бир-биридан андоза олиб, бойиб боришига сабабчи бўлганини Кушонлар даврини ўрганиш жараёнида гувоҳ бўламиз.

Тасвирий санъатнинг илғор намуналари қадимги маданий тараққий этган ўлкалар Суғдиёна (Зарафшон ва Қашқадарё вилоятлари), Бақтрия (Сурхондарё, Жанубий-Гарбий Тожикистон, Шимолий Афғонистон), Парфия (Туркманистоннинг Ашхабод вилояти, Шимолий-гарбий Эрон), Чоч

(Сирдарёning ўрта ҳавзаси, ҳозирги Тошкент вилояти, Жанубий Қозогистон) шунингдек Қадимги Хоразм, Қадимги Фарғона худудларида мавжуд бўлиб келганини кўрамиз [1:5]. Тасвирий санъат борасида бебаҳо асарларини ҳар бир санъат ўқитувчиси билиши лозим. Чунки Ўзбекистон тасвирий санъат тарихи, унинг илфор ўзига хос анъаналарини ўқитувчилар тайёрлашдаги тасвирий санъат таълимини мазмунини бойитибгина қолмасдан, илмий педагогик жиҳатдан тўғри талқин қилишнинг моҳиятини очиб беради.

Ўзбекистон ҳудудига мансуб қадимги рангтасвир санъати ўзига хос бебаҳо намуналарга эга. Афросиёб рангтасвир санъати, Бешиктепа рангтасвир санъати, Варахша санъати сингари ўтмишдаги таникли мусаввирларнинг иш тажрибаси, билими, малакаси, шунингдек педагогик маҳоратига эътибор қаратиш лозим. Бугунги тасвирий санъат ўқитувчилари салоҳиятини шакллантиришда санъатимиз меросидан тўғри, унумли ва илмий асосида фойдаланиш жоизлигини замоннинг ўзи тақозо этмоқда.

Миниатюра санъатига келсак, бу санъат аввало қоғоз билан боғлиқ. Араб олими Ибн Надимнинг ёзишича, 87 ҳижрий (мелодий 706) йилда дастлаб Самарқандга келганларида қоғозсозлик корхоналарини кўрар экан, ҳайратга тушганлиги ҳақида ёзил қолдирган [2:19]. Бундай ишлаб чиқариш устахоналари Хива, Қўқон, Бухоро, Самарқанд, Тошкент ва бошқа жойларда мавжуд бўлган. Хива хони Сайд Муҳаммад ўз саройида бир қанча ҳаттотларни, моҳир наққошлар ва рассомларни тўплагани маълум бўлиб, у китобга ихлос қўйган киши эди. Унинг катта кутубхонаси бўлиб, шу кутубхонада қўлёзмалар кўчирилар ва безатилар эди. Бундан ташқари Бухоро хони Амир Олимхон саройида ҳам машҳур кутубхона бўлиб, унда жуда кўп микдорда китоблар тўпланган ва ҳаттотлар шуғулланганлар.

Хива мактабига мансуб Худойберган-Девон малакали уста соатсоз бўлиб, у бир қанча китобларни безаганлиги маълум. Бухорода туғилиб ўсган шоир Аҳмад Дониш (1827-29-1897) шоирлик билан бирга ҳаттотлик ҳам қилган. Бир қанча қўлёзмаларни қайта кўчириб уларга миниатюралар ишлаган. Бухоро музейида сақланаётган "Лаззати ва Нисо" китобига ишланган 27 та миниатюраси жуда ҳам ҳарактерлидир. Бу рассом ижодий фаолияти яхши ўрганилмаган, кенг китобхонлар бу рассом билан яқиндан таниш эмас. Уни шоир деб билишади.

Тасвирий санъатнинг тарбиявий вазифаларини юксак мутахассислик тайёргарлигига эга бўлган ўқитувчи мусаввирлар томонидан амалга оширилиши, тарбиянинг янада мазмунли бўлишига туртки бўлади. Агар санъат турлари орқали эстетик тарбия олиб борилмас экан, бундай таълим синади ва ўз таъсирини йўқотади. Бундай таълим-тарбиянинг моҳиятини улуғ мутахассислар, олимлар, шоиру ёзувчилар, мусаввир-педагоглардан Лутфий, Абдураҳмон

Жомий, Бобур, Самарқандий, Музахҳиб, Хондамир, Беҳзод, Аттор, Аҳмад Яссавий, Абу Наср бин Аррон, Улугбек, Абдулҳай, Пир Саид Аҳмад ва бошқалар жуда яхши тушинишган. Пир Саид Аҳмад ва Абдулҳай каби рассомлар Самарқандя яшаб ижод этган ва уларни Осиё миниатюрачилари қаторида эслашимиз мумкин.

Турон (Қашқар)дан топилган Моний асарлари Самарқанд қоғозига битилганлигини тадқиқотчилар томонидан аниқлаган. Моний қадимнинг машҳур мусаввири бўлган. Унинг асарларидан бир нечта намуналар топилган "Худудул олам" (олам чегаралари) деган X аср график асарларида ёзилишича, монийлар (Моний таълимоти тарафдорлари) нинг Самарқандда обрў эътибори кучли бўлиб, ҳижрий 372 (мелодий 682) йилгача ижодлари орқали катта нуфузга эга бўлганлар. Археологик ёзма манбаларга асосланиб биз Ўрта Осиё миниатюрасининг тарихи жуда қадим-қадимлардан тарқалганини айта оламиз.

Ўрта Осиёда машҳур рассомлар, усталар, наққошлар ва ҳайкалтарошлар ўтганлигини тарихий фактлар асосида исботлай оламиз ва Ўрта Осиёда тасвирий санъат ва миниатюра санъати бўлмаган деган баъзи даъволарни асоссиз эканлигини исбот қиласиз. Бизга маълумки Ўрта Осиёда ривожланган маданият ва санъат ўчиқлари Араб, Мўғил босқинчилари томонидан яксон қилинган. Албатта, Темур ва Темурийлар даврида маданият жуда равнақ топиб гуллаб яшнаган. XIV-XVI асрларда Шарқ мамлакатларида, жумладан Ўрта Осиёда ривожланган бу санъат XVIII-XIX асрларга келиб анча тушкунлик даражасини бошидан кечирди.

Юқорида ўзига хос ўринга эга тасвирий санъат мактабларидан Бобурийлар миниатюра мактаби ҳамда Самарқанд миниатюра мактабини ўрганиб чиқиш мумкин.

Бобурийлар миниатюра мактаби. Бу даврда яъни XVI-XVII асрларда Бобурийлар томонидан ташкил қилинган тамойили янги тасвирий санъат мактабида Ўрта Осиёлик машҳур миниатюрачи рассомлар етакчи роль ўйнаганлар. "Бобурийлар" миниатюра мактабига асос солғанлардан бири Мир Саид Али бўлиб, XVI-XVII аср Ҳинд ёзма манбаларида ёзилишича, у ўз замонасининг кўзга кўринган мусаввири бўлган. Мир Саид Али Термизда таваллуд топган, мусаввирлик касбини отаси, моҳир рассом Мир Мансур ёки уста Мансурдан ўрганган ва тирикчилик тақозаси билан Ҳинди斯顿га бориб қолган. Бундан ташқари Ҳинд миниатюра мактабида бошчилик қилган Ўрта Осиёлик Муҳаммад Мурод, Муҳаммад Нодир Самарқандийлар ва Фаррухбекларнинг ўз юртини ташлаб кетишлирига албатта Ўрта Осиё хонликларининг тарқоқлиги ва маданиятнинг унча қадрланмаслигидан далолат беради. Ўрта Осиёда бир қанча Ҳаттотлик устахоналари, моҳир мусаввир –

усталаридан бири Камолиддин Беҳзод тўғрисида гапирап эканмиз, у ижодий фаолиятида Осиёда тенгсиз мусаввир даражасига кўтарила олган шахсdir [5:381]. Беҳзод ва унинг шогирдлари тасвирий санъатни оммавий даражада – жамият миқёсида кўтаришга эришган мусаввирлардир. Уларнинг ғоявий тарбиясига қўшган ҳиссаси эса ўзига хос тасвирий санъат ўқитишнинг услубий шаклини қолдирганлигида бўлиб, ҳозирги кунда ҳам ўзининг баҳосини йўқотган эмас. У устоз сифатида ўз шогирдларини формализмдан йироқ тутишга ҳаракат қилади [7:16]. Буни исботи эса Беҳзоднинг ўта қобилиятли, инсон сифатида жуда мўмин-қобиллиги А.Навоий томонидан жуда юқори баҳоланган.

А.Навоийнинг ва темурийларнинг ҳомийлиги туфайли тасвирий санъат ўта талабга жавоб берадиган даражада ривожланган.

Самарқанд миниатюра мактаби. Миниатюра мактаблари Шарқда жуда ривожланган бўлиб, турли номлар билан аталади. Мисол, "Бухора мактаби", "Бобурийлар" миниатюра мактаби, "Шероз" мактаби, "Асфаҳон" мактаби, "Язд" мактаби, "Бағдод" мактаби, "Табриз" мактаби каби йирик тасвирий санъат марказлари мавжуд бўлган. Темур ва Темурийлар даврида Самарқанд ўзининг равнақ топиши туфайли жаҳонни ва Ғарбий Европа давлатларини ҳам лол қолдирган эди. Аммо Самарқанд миниатюра мактаби тўлиқ ёритилмаган. Шарқнинг "Рафаэли" ҳисобланмиш Камолиддин Беҳзод бошчилигида камол топган Ҳирот мактабининг шаклланишида Самарқанд миниатюра мактабининг тутган ўрни муҳимдир. Самарқанд Темурийлар даврида илм-фан, санъат равнақ топган давлатнинг пойтахти эди. Ҳирот мактаби Самарқанддек санъат ва маданият ўчогининг ажралмас бир қисми бўлган. Аниқ тарихий маълумотларга кўра Камолиддин Беҳзод миниатюра санъатини Пир Сайд Аҳмад Табризийдан ўрганган. Пир Сайд Табризий эса "Умдай ул-мусаввирир" (мусаввирлар пешвоси) номи билан машҳур Бухоралик устоз Жаҳонгирнинг суюкли шогирди бўлган. Устоз Жаҳонгир эса темурийлар давлати тасвирий санъатининг асосчиси устоз Гунг (Соқов)дан таҳсил олган.

Демак, Самарқанд тасвирий санъат мактаби ўзига хос таҳлилни кутуб ётиби. Айниқса "Самарқанд деворидаги жанг" асари (Туркияда "Юлдуз" кутубхонасида) сақланмокда. Бу асарларда Самарқанд тасвирий санъат мактабига хос портретлар аниқлиги ва табиат манзарасини ёрқинлиги билан миниатюраларга ўзига хос услуб бахш этган. 1441-42 йилларда номаълум мусаввирлар томонидан Мирзо Улуғбек тасвирининг яратилиш даври Ҳирот мактабидан ҳам аввалроқ Самарқандда кенг ривожланганлигининг исботидир. Айниқса, "Соҳибқироннинг бўладиган жанг олди мажлиси" миниатюра асари дикқатига сазовордир. Бу асарда Темур ва унинг аёнларининг сурати чизилган. Бу асарга "Халил Мирзо Шоҳруҳ" деб имзо чекилган. Бобурий "Жаҳонгирнинг"

гувоҳлигига "Агарда тасвирда мусаввир номи аниқ қилиб ёзилмаганда эди, бу асарни Камолиддин Беҳзод мўйқаламига мансуб дейиш мумкин эди". Чунки бу иш услубий жиҳатдан Камолиддин Беҳзод ижодий мактабини эслатади. Камолиддин Беҳзод фаолиятидан анча аввал яратилган бу асарнинг муаллифи Халил Мирзо Шоҳруҳ ўз навбатида устоз Беҳзоднинг устози бўлган. Аммо Жаҳонгир таърифлаб кетган бу асар ҳали чоп этилмаган. Лекин XIII-XIV асрга мансуб бўлган бу асар муаллифининг асл исми Халил Мирзо Шоҳруҳ бўлмаган, чунки ўша даврда Осиёлик мусаввирлар ўз асарининг тагига имзо чекиши одати бўлмаган. Амир Темурнинг ҳаётлигига бошланган бу асар унинг ўлимидан кейин ҳам давом эттирилган. Соҳибқирон Темур вафотидан кейин Самарқанд таҳтини эгаллаган Халил Мирзога ҳам бағишлиланган бу асарнинг ниҳояси пайтида таҳтга Шоҳруҳ Мирзо ўтирган. Аммо Ўрта Осиёдаги Самарқанд миниатюра мактабларида портрет жанри ва тарихий воқеалар баёни миниатюрачиларнинг изчил мавзусига айланган.

Самарқандлик мусаввирлар Маъсуд ибн Усмоний Кўҳистонийнинг Абдулхайрхон тарихи асарига чизилган "Чингизхоннинг Сирдарё соҳилларида ўз ўғилларини қабул этиши", "Газанхон Ургонда", "Абдуллахон портрети" ва Хотифийнинг "Темурнома" асарига ишланган "Темурнинг Ҳиндистонга юриши", Шарафиддиннинг Али Яздий "Зафарнома" асарига ишланган "Темур Самарқанд атрофида базми жамшида" миниатюралари юқоридагиларнинг тасдигидир. Самарқанд миниатюра мактабининг намоёндаларидан Мухаммад Мурод Самарқандий, Мухаммад Носир Самарқандий Мир Сайд Али (Табризий таҳаллусини олимлар унга бериб, Эрон миниатюра мактабига мансуб деб янги кўрсатма бериб келганлар, аслида эса Термизлик)лардир. Мир Сайд Алининг отаси Мир Мансур моҳир мусаввир бўлган. Осиёдан Ҳиндистонга келиб ижодий фаолиятларини давом эттиришган.

Мусаввирлардан Мухаммад Носир Самарқандийнинг ўн битта асари Британия музейида, Париж ва Ленинград илмий муассасаларида эса биттадан имзо чеккан портретлари сақланмоқда [3:92]. Мир Сайд Али ва қисман Ҳўжа Абдусамад мўйқаламига мансуб Темурийлар хонадони асари ҳам жуда машҳурдир. Улар Хумоюн, Акбар Жаҳонгир, Шоҳ Жаҳон, Шоҳруҳ Мирзо, Бобур, Султон Мухаммад ва Мироншоҳларнинг тасвирлариридир. Бу асарлар Лондонда "Британия" музейида сақланмоқда. Хулоса қилиб айтганда Самарқанд миниатюра мактабининг собиқ талабалари асарларини кенг ўрганиш, қидириб топиш, шундай мактаблар мавжудлигини, ишлаш усувларини омиллаштириш ҳозирги даврнинг долзарб масалаларидан биридир. Биз аждодларимиз маданияти ва санъатининг сирларини қанчалик пухта ўрганар эканмиз, улар қолдирган ёрқин излар аникроқ қўзга ташаланаверади, қадимги манзилгоҳлар,

улар томонидан яратилган маданий-маънавий мерослар ҳақида батафсил ҳикоя қиласверади. Биз уларни яқиндан ўрганиб дунёқаршимизни бойитишимиз ва тарихий далиллар асосида тасвирий санъат методикасини янада ривожлантиришга ҳиссамизни қўшишимиз керак. Мамлакатимизда ўтказилаётган турли ижодий лойиҳалар, Тасвирий ва амалий санъат ҳафталиклари, кўргазмалар, халқаро биенналелар, кўрик-танловлар, ижод аҳлига кўрсатилаётган эътибор Шарқ миниатюра санъати равнақида муҳим ўрин тутади. Шарқ миниатюрасининг ЮНЕСКО Инсоният номоддий маданий меросининг репрезентатив рўйхатига киритилгани мазкур санъатга дунёдаги эътибор ва қизиқишининг яна бир исботидир.

References / Адабиётлар рўйхати / Список литературы:

1. С.Булатов. Ўзбек халқ амалий беъзак санъати. Т.:1991 й.
2. Ш.К.Шоёқубов Замонавий Ўзбекистон миниатюраси. Т.: “Ўзбекистон” нашриёти 2006 й.
3. П.Шабаратов. Лакли миниатюра “ Композиция” Т: “Янги аср авлоди” 2007 й.
4. Н.Абдуллаев, Ўзбекистон санъати тарихи, Т.: 2007 й.
5. У.Уватов. Буюк юрт алломалари (учинчи нашр). Т.: “Ўзбекистон”, 2020 й.
6. Н.Усмонова. Шарқ миниатюра санъати дунё эътиборида. <http://kbmsm.uz>
7. Р.Ҳасанов. Тасвирий санъатни ўқитиш методикаси. Т.: 2004 й.
8. Н.Жумабоев. Ёшларни шарқона, тарихий қадриятлар асосида замонавий рухда тарбиялашнинг аҳамияти. Фан ва жамият илмий журнали, 2021 й., 2-сон.

Психология фанлари

**REPRODUKTIV YOSHDAGI AYOLLARDA RO'Y BERADIGAN TUG'RUQ
PSIXOZLARINI OLDINI OLİSH VA AYOLLARNI RUHIY
SALOMATLIGINI MUSTAHKAMLASH**

Nabiyeva Odina Rafikjonovna

NamDU psixologiya kafedrasi doktoranti

**ПРОФИЛАКТИКА ПСИХОЗА БЕРЕМЕННОСТИ У ЖЕНЩИН
РЕПРОДУКТИВНОГО ВОЗРАСТА И УКРЕПЛЕНИЕ ПСИХИЧЕСКОГО
ЗДОРОВЬЯ ЖЕНЩИН**

Набиева Одина Рафикжоновна

Докторант кафедры психологии НамГУ

**PREVENTION OF PREGNANCY PSYCHOSIS IN WOMEN OF
REPRODUCTIVE AGE AND STRENGTHENING WOMEN'S MENTAL
HEALTH**

Nabiyeva Odina Rafikjonovna

Doctoral Student of the Psychology Department of NamSU

Иқтибос келтириши учун / For citation / Для цитирования:

Nabiyeva O.R. Reproduktiv yoshdagи ayollarda ro'y beradigan tug'ruq psixozlarini oldini olish va ayollarni ruhiy salomatligini mustahkamlash // Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари. – 2022. – № 1(4). – Б. 72–79. <https://doi.org/10.47390/B1342142022N9>

Annotasiya. Ushbu maqolada reproduktiv yoshdagи ayollarda ro'y beradigan tug'ruq psixozlarini kelib chiqish sabablari, omillari bayon etiladi. Tug'ruq psixozlarini oldini olish, davolash, tug'ruq psixozlari ro'y bergan hollarda reproduktiv yoshdagи ayollarni ruhiy salomatligini saqlash bo'yicha ayolning oila a'zolariga, parvarish qiluvchi hamshiralariga tavsiyalar beriladi.

Kalit so'zlar: reproduktiv davr, ayol, homiladorlik, chaqaloq, tug'ruq psixozozi, ruhiy salomatlik, genetik moyillik, affektiv jinnilik

Аннотация. В данной статье описаны причины и факторы врожденных психозов у женщин в репродуктивного возраста. Даны рекомендации членам семьи и медсестрам женщины по профилактике и лечению послеродовых психозов, психическому здоровью женщин репродуктивного возраста при возникновении послеродовых психозов.

Ключевые слова: репродуктивный период, женщина, беременность, ребенок, родовой психоз, психическое здоровье, генетическая предрасположенность, аффективное помешательство.

Abstract. This article describes the causes and factors of congenital psychosis in women of reproductive age. Recommendations are given to the family members and nurses of the woman on the prevention and treatment of postpartum psychosis, the mental health of women of reproductive age in the event of postpartum psychosis.

Key words: reproductive period, woman, pregnancy, baby, birth psychosis, mental health, genetic predisposition, affective insanity

DOI: 10.47390/B1342142022N9

Mustaqillik yillarida mamlakatimizda ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy-ma'rifiy jabhalarda tub islohatlarni amalga oshirish jarayonida xotin-qizlar masalasiga ham katta e'tibor berila boshlandi. Vatanimiz taraqqiyotida, oila va jamiyat hayotida xotin-qizlar muhim o'rinni va mavqega ega. Mamlakatimiz aholisini qariyib 50 foizini tashkil etadigan ayollar ijtimoiy-ma'naviy, siyosiy-iqtisodiy hayotninig barcha sohalari xususan, davlat boshqaruvi va vakillik organlarida, ishlab chiqarish, tadbirkorlik, fermerlik, sog'likni-saqlash, ta'lif va boshqa ijtimoiy sohalarda samarali mehnat qilmoqdalar. {3} Bugungi kunda reproduktiv yoshdagagi ayollarni ruhiy salomatligini saqlash ularni jamiyatda munosib o'rinalarini topishlari va sog'lom avlodni dunyoga keltirib tarbiyalashlari uchun mamalakatimizda ko'plab ishlar amalga oshirilmoqda. Amalga oshirilayotgan tadbirlarga qaramasdan ayollar o'rtasida turli ko'rinishdagi ruhiy buzilish holatlari kuzatilmoqda. Aynan bunday ruhiy buzilishlar reproduktiv yoshdagagi ayollarda ko'p uchraydi. Reproduktiv yoshdagagi ayollarda ro'y beradigan tug'ruq psixozlarini oldini olish va ayollarni ruhiy salomatligini mustahkamlash mavzusidagi maqolamizning asosiy maqsadi ushbu yosh davridagi kuzatiladigan ruhiy buzilishlarni kelib chiqish omillari, sabablarini bayon etish orqali ayollarni, ularni oila a'zolarini bunday xastaliklardan xabardor etish, ushbu yoshdagagi ayollarni ruhiy salomatligini saqlash va mustahkamlashga ko'maklashishdan iborat. Bizning fikrimizcha reproduktiv yoshdagagi ayollarni oilaviy polkinikalarda, mahalla fuqorolar yig'inalari qoshidagi ayollar masalalari bo'yicha mutaxassislar tomonidan reproduktiv yosh davridagi o'zgarishlar, ruhiy holatlari bo'yicha ayollarga, ularning turmush o'rtoqlariga ma'lumotlar berib borishlari lozim. Oilalarda tibbiy va psixologik bilimlarning yetishmasligi bu kabi kasalliklarning kelib chiqishining asosiy

sabablaridan biridir. Agar ma'sul xodimlar tomonidan ayollarni homladorlikka, tug'ruq jarayoniga tayyorlashga oid darslar, seminarlar tashkil etilib, ma'lumotlar berilib borilsa turli ko'rinishdagi ruhiy buzilishlarni oldini olinadi va ayollarning ruhiy salomatligi mustahkamlanadi. Reproduktiv yosh - ayollar tug'ishining tibbiyot tomonidan xavfsiz va ayol sog'ligi uchun normal holat deb belgilangan yosh davri. Ayollarda reproduktiv yosh o'rtacha 30 yil (16 yoshdan 46 yoshgacha) davom etadi. {1.144.b} Ayrim adabiyotlarda 16-49 yosh deb qayd etilgan. {2.29.b} Bu davrda ayol kayfiyati, hayoti, ruhiyati, salomatligida keskin o'zgarishlar ro'y beradi. Bu o'zarishlardan biri farzandni dunyoga keltirgandan so'ng sodir bo'ladigan tug'ruq psixozlaridir. Tug'ilish - bu tanadagi ulkan stress, organlar va tizimlar uchun jismoniy ortiqcha yuk. Tug'ruqdan keyingi davr yosh onada juda ko'p qiyinchiliklarga duch keladi: laktatsiya davri, reproduktiv organlarning zo'ravon involyatsiyasi (teskari rivojlanishi), ichki sekretsiya bezlarini qayta tuzilishi, og'riqli tikuv va yoriqlar, qon yo'qotish oqibatlari. Tabiiy tug'ruqdan yoki operatsiya bilan tuqqandan so'ng, ayol o'zini zaif va charchagan his qiladi. Ammo u dam olish, tiklanish imkoniyatiga ega emas: chaqaloq haftasiga 7 kun, kuniga 24 soat davomida maksimal e'tibor va g'amxo'rlikni talab qiladi. [5] Turmush tarzidagi muammolar, charchoqlar oqibatida ayolda turli ko'rinishdagi ruhiy buzilishlar kuzatiladi. Tug'ruq psixozlari. Tug'ruqdan keyin ko'proq amensiya, katatonik va maniya belgilari uchraydi. Og'ir hollarda qonda biokimyoiy o'zgarishlar – giperazotemiya, albuminuriya, qon bosimining ko'tarilishi kuzatiladi. Tug'uruqdan keyin bemorlarda shizofreniya yoki maniakal-depressiv psixozlar va boshqa kasalliklar kelib chiqadi. Hozirgi vaqtida tug'uruqdan keyingi psixozlar juda ham kam uchraydi. Bunday paytlarda bemorlar hamma vaqt hamshiralarning kuzatuvida bo'lishlari, hech qachon bir o'zini tashlab ketmasliklari kerak. Agar tug'uruqdan keyin psixozlar kuzatilsa, tezda psixiatr shifokorni chaqirib, psixiatriya shifoxonasiga o'tkazish tavsiya etiladi. [4.148.b]

Ayollarda tug'ruqdan keyingi psixoz - bu tug'ilishdan keyin gallyutsinatsiyalar va aldanishlar boshlanganda ruhiy kasallik. Tug'ruq paytida ayolning xulq-atvori atrofdagi hamma narsani shubhali ko'rinishda ko'rganida, noadekvat bo'ladi. Hatto yangi tug'ilgan chaqaloq ham o'zinikiga o'xshamasligi mumkin, lekin birovning bolasi, deyishadi, uni almashtirdilar. Bu og'riqli holat tug'ruqdagi ming ayoldan ikkitadan ko'p bo'limgan hollarda uchraydi. Birinchi marta tug'ilgan ayollarda tug'ruqdan keyingi psixozga qayta tuqqanlarga qaraganda 35 marta ko'proq uchraydi. Tug'ilgandan keyin haqiqatan ham tuzalmagan yosh ona ko'z yoshlari oqadi, umumiylashtirishdan shikoyat qiladi, yomon tush... Uning suti kam yoki umuman yo'qligi haqida doimo tashvishlansa, bola och qoladi. Chaqaloqdagi qichqiriqlar sababini biror organi og'riyapti deb o'ylay boshlaydi, masalan, qorin, chunki u juda qichqiradi. Asossiz g'amxo'rlik qo'zg'aluvchan holatga, notinchlikka olib keladi. U nosog'lom bola tug'gan

yoki olib ketilgandek tuyulishi mumkin bo'lsa, shubha paydo bo'ladi, xayolparast fikrlar paydo bo'ladi. Keyin birdan u keskin pasayish kayfiyat: melanxolik bo'ladi, zerikarli - stuporga tushadi. Kuchni yo'qotish bolaga bo'lgan barcha qiziqishni yo'qotish bilan birga keladi. Uni emizishni istamaydi, unga g'amxo'rlik qilishdan bosh tortadi. Bunday alomatlar hatto kasalxonada ham paydo bo'lganda, shifokorlar darhol ularni to'xtatishga harakat qilishadi, tug'ruq paytida ayolni normal holatga keltirish uchun ma'lum davolanishni buyuradilar. Shundan keyingina ular bo'shatiladi. Uyda tug'ruqdan keyingi psixoz paydo bo'lganda, bu juda ham yomon. Agar oila a'zolari o'z vaqtida yosh onaning g'alati tomonlarini sezmagan bo'lsa, bu uning uchun, yangi tug'ilgan chaqaloq yoki ikkalasi uchun yomon tugashi mumkin. Ona chaqaloq bilan o'z joniga qasd qilgan holatlar ham bo'lgan. Keling, ushbu holatlarning barchasini batafsil ko'rib chiqaylik. Postpartum psixoz quyidagi sabablarga ko'ra yuzaga kelishi mumkin:

- **Genetik moyillik...** Qachonki, ayol tomondan, qarindoshlaridan biri ruhiy kasallik bilan kasallangan, masalan, shizofreniya.

- **Affektiv jinnilik...** Bu kayfiyatning tez o'zgarishi bilan ajralib turadi. Tushkunlik o'z o'rnini ko'tarinkilikka olib keladi va aksincha, quvnoq kayfiyat o'rnini qayg'u egallaydi.

- **Tug'ilish kanali infektsiyasi...** Tug'ish paytida yoki tug'ruqdan keyingi davr stafilokokklar kiritiladi - tug'ruq paytida ayolning tanasida og'riqli jarayonlarni qo'zg'atadigan bakteriyalar. Tana harorati ko'tariladi, taxikardiya va mushak og'rig'i paydo bo'ladi, shilliq pardalar quriydi. Bu tashvishli kayfiyatni qo'zg'atadi. Natijada psixoz paydo bo'ladi.

- **Emotsionallikning kuchayishi...** Postpartum psixoz rivojlanishining omillaridan biri. U ilgari aqliy anormalliklarga ega bo'lмаган ayollarda o'zini namoyon qilishi mumkin, lekin juda hissiy, masalan, hayz paytida.

- **Spirtli ichimliklar, giyohvand moddalar, psixotrop dorilar ...** Spirli ichimliklar, giyohvand moddalar va markaziy asab tizimini rag'batlantiradigan ba'zi dorilarni suiiste'mol qilish kasallikka olib kelishi mumkin.

- **Tug'ish paytida shikastlanish...** Tug'ilish, stress, g'amgin fikrlar va kayfiyat paydo bo'lganda, tug'ruqxona xodimlarining nazorati ostida toqat qilingan jarohatlar ayolning sog'lig'i bilan bog'liq muammolarga olib kelishi mumkin.

- **Gormonal o'zgarishlar...** Bolaning tug'ilishi - katta bosim ayolning tanasida, bu uning sezilarli qayta tuzilishiga olib keladi. Biologik faol moddalar, gormonlar, hayot jarayonlarining ritmini tartibga soladi, gormonal uzilishlar jiddiy kasalliklarga, shu jumladan ruhiy kasalliklarga olib keladi.

- **Charchoq...** Homiladorlik paytida surunkali charchoq kayfiyat uchun yomon va tug'ruqdan keyingi psixozga yordam beradigan omil bo'lishi mumkin.

• **Muvaffaqiyatsiz tug'ilish...** Og'ir, katta qon yo'qotish bilan, abort sodir bo'lganda yoki o'lik bola tug'iladi.

• **Har xil kasalliklar...** Bemor jigar, kuchaygan Qon bosimi, boshqa surunkali kasalliklar tug'ruqdan keyingi ruhiy kasalliklarni qo'zg'atishi mumkin.

• **Bosh jarohati...** Agar bu homiladorlik paytida bo'lsa, qiyin tug'ish paytida yoki undan keyin tug'ruq paytida ayolning ruhiy salomatligi buziladi.

• **Tug'ishga tayyor emaslik...** Ayol psixologik jihatdan ona bo'lishga tayyor emas. Tug'ilish tananing jiddiy qayta tuzilishi ekanligini umuman tushunmaydi yangi davr hayot. U onalikdan qo'rqadi. Bu psixikani tushkunlikka soladi, asabiy buzilish va ruhiy kasalliklarga olib keladi.

• **Nosog'lom oilaviy munosabatlar...** U kasalxonadan chiqdi, lekin eri bolasidan mamnun emas, o'zini qo'pol tutadi, yangi tug'ilgan chaqaloqqa g'amxo'rlik qilmaydi. Ayol asabiylashadi, janjal boshlaydi, suti yo'qoladi. Bu holat psixoz bilan yakunlanishi mumkin. Psixoz har doim hissiyotda bo'lgan ayollarga ko'proq ta'sir qiladi. Bunday holatda, tug'ruqdan keyingi doimiy depressiya, hatto mehnat jarayoni muvaffaqiyatli yakunlangan taqdirda ham paydo bo'lishi mumkin. Bunday tug'ruqdan keyingi psixoz ruhiy holatning keskin o'zgarishi bilan tavsiflanadi, lekin ko'pincha ayol o'zini juda tushkun his qiladi. Tug'ruqdan keyingi psixozning sababi hali ham tanadagi gormonal buzilish bo'lishi mumkin. Bu, ayniqsa, homiladorlikdan oldin uzoq vaqt davomida kontratseptsiya vositalaridan foydalangan ayollar uchun to'g'ri keladi. Bunday holatda psixozni gormonal dorilar bilan davolash maqsadga muvofiqdir. Ammo shunga qaramay, tug'ruqdan keyingi psixozni homiladorlik paytida yoki uning boshlanishidan oldin spirtli ichimliklar, giyohvand moddalar yoki chekilgan sigaretlardan foydalanganlar ko'proq tahdid qiladilar. Bu omillarning barchasi nafaqat homiladorlik jarayoni va homila sog'lig'iga salbiy ta'sir qiladi, balki ayolning o'zi ham bundan aziyat chekmoqda.^[6] Ammo agar ayol butunlay sog'lom bo'lsa, unda psixozning sabablari hech qachon topilmasligi mumkin. Va keyin shifokorlar ayolning bu holatini tug'ruq paytida bo'lgan stressdan boshqa narsa bilan izohlamaydilar. Psixoz ayniqsa og'ir va og'riqli tug'ilishdan keyin aniqlanadi.^[7] Ruhiy salomatlik bilan bog'liq muammolari bo'limgan 29 homilador ayolni o'rganish tug'ruqdan keyingi psixozning oldini olishda estrogenlarning sezilarli samaradorligini aniqlamadi. Patologiyaning boshlanishini qo'zg'atuvchi omillar tug'ilish muammosi, shuningdek, tanadagi nosozliklar bo'lishi mumkin. umumiyl faoliyat(suvsizlanish, ko'rsatkichlarning o'zgarishi qon bosimi, jigar funktsiyasi buzilgan). Salbiy ta'sir ko'rsatish ruhiy holat ayollar: uyqu yetishmasligi, yaqinlaringiz tomonidan qo'llab-quvvatlanmaslik, onalikka tayyor emaslik. Kasallikning rivojlanishiga shubha, tashvish, ruhiy jarohatlar yordam beradi. Psixoz alomatlarini o'z vaqtida sezish va ularni yo'q qilish uchun tegishli chorralarni ko'rish juda muhimdir. Darhaqiqat, oxir-oqibat, tug'ruqdan keyingi

